

RAXMANOVA MUQADDAS QAXRAMONOVNA

MILLIY TARBIYA ASOSLARI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAXMANOVA MUQADDAS QAXRAMONOVNA

MILLIY TARBIYA ASOSLARI

O'QUV-QO'LLANMA

60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalishi uchun

Toshkent
«BOOK TRADE 2022»
2025

UO'K 37.013;392
KBK 74.200.54.1
R-37

Raxmanova M.Q. Milliy tarbiya asoslari. O'quv-qo'llanma. –
T.: "BOOK TRADE 2022", 2025. 228 b.

Mazkur o'quv-qo'llanma milliy tarbiya tizimining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Ushbu qo'llanma, avvalo, o'zbek xalqining boy madaniy va tarixiy merosiga asoslangan holda milliy tarbiya mazmunini o'quv jarayoniga tatbiq qilish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Mazkur o'quv-qo'llanma pedagoglar, tarbiyachilar, ilmiy tadqiqotchilar va talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, milliy tarbiya jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik tavsiyalar, amaliy usullar va namunaviy dars ishlanmalari bilan boyitilgan. Ushbu qo'llanma nafaqat ta'lim muassasalarida, balki oilaviy tarbiya, mahalla va boshqa ijtimoiy tuzilmalar faoliyatida ham samarali qo'llanilishi mumkin.

Tuzuvchi:

Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrasi v.b., professori, pedagogika fanlari doktori (DSc).

Taqrizchilar:

A.R.Soxibov - Shaxrisabz davlat pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrasi professori, p.f.n.

U.N.Xodjamqulov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrasi professori.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 29 maydagi 194-sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9616-6-3

1- mavzu:

"Milliy tarbiya asoslari" fan sifatida

Mavzu rejasi:

1. "Milliy tarbiya asoslari" fanining maqsad va vazifalari.
2. "Milliy tarbiya ijtimoiy tarixiy, qonuniy va ob'ektiv jarayon sifatida.
3. "Milliy tarbiya asoslari" fanining ilmiy tadqiqot metodlari va boshqa fanlar bilan aloqasi.

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat ozluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. *"Ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – o'zod va ohod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi"*. Yoshlarni o'qitish va tarbiyalash, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak matakali kadrlarni tayyorlashda ayniqsa o'qituvchining tarbiyachi sifatidagi o'imi beqiyosdir. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'qituvchining kasbiy faoliyatiga shunday ta'rif beradi: *"Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l, avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, qadodlarimiz qoldirgan hebaho merosni eslash bilan birga, ada-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk ot – o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz. Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug' daryoning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi"*.

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning

istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

Ko'pchilik yosh o'qituvchilarda, ta'lim berish mahoratiga qaraganda tarbiyachilik mahoratini egallash jarayoni qiyin kechadi. Albatta buning ob'ektiv sabablari bor: tarbiya tushunchasi, insonning aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish, axloqan pok, estetik didli, mehnatsevar qilib tarbiyalash omili bo'lib, ta'lim berish ko'nikmalarini egallashga qaraganda keng ma'nodagi tushuncha bo'lganligi uchun doimo ziddiyatlarga va tasodifiy hodisalarga boy.

Tarbiya – o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida jamiyatning shaxsga nisbatan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va

irodasiga o'qituvchi tomonidan pedagogik mahorat qonuniyatlari asosida ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiyaning mohiyati va mazmuni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini ifodalaydi, jamiyatning fuqarolar oldiga qo'yadigan talablaridan kelib chiqib asoslanadi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Zero, *"Soq'lon avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asoslarini qurish deganidir"*. Barkamol avlod tarbiyasi o'lim va demokratik jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar dolzarblik kasb etishini shunday ifodalanadi: *"Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"*.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning *"Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasidir"*¹ – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi bo'lgan. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir. O'zining kasbiy mahoratini endigina boshlagan yosh o'qituvchilarda tarbiyachilik mahoratining ko'nikma va malakalarini egallash qiyin shakllanadi. Bunga asosan, yosh o'qituvchilarda kasbiy sifatlar tizimini egallash imkonlari bilan bog'liq sub'ektiv sabablar mavjud bo'ladi. Bu nimani nazarda tutadi? Boshlovchi o'qituvchining ziddiyatli vaziyatlarda

¹ Abdulla Avloniy. *Tarbiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent, O'qituvchi, 1992.

o'quvchilar orasida o'zini tuta bilishi, xilma-xil tarbiyaviy usullardan foydalanib, ko'zlangan maqsadiga erishishi tarbiyachilik mahorati bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatni endigina boshlagan tarbiyachi-o'qituvchi jazolash usullarini ko'proq egallashga harakat qiladi. Ular oldida, go'yo tarbiyaviy maqsadlarga erishishning omili sifatida «*qanday jazolamoq kerak?*» muammosi barcha tarbiyaviy masalalarni hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiyada maqsadning aniqligi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq mamlakatimizda amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiyaviy maqsad aniq belgilab olingan va o'qituvchi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklangan. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni g'oyalariga ko'ra o'qituvchiga jamiyatimiz tomonidan qo'yilayotgan maqsad – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa – bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlarini, ya'ni, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o'ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o'z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlaridahuzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo'lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan.

Hali insoniyat yozish-o'qishni bilmagan paytlarda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etgan. Uzoq davrlar tajribada sinalib, sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish darajasiga etgan. Yozish o'qish paydo bo'lgandan keyin ham xalq og'zaki ijodi o'z mavqeini yo'qotmagan, aksincha, yozma adabiyotlar mazmuniga singgan

holda ta'sirchanligi yanada ortib borgan. Insoniyat tarixidagi butun tajribalarga suyangan holda yaratilgan urf-odatlar kabi odob-axloq qoidalari ham tarkib topgan. Odob va axloq qoidalarining hammasi bir kishi tomonidan bitilmaydi. Zotan, ular inson hayotiy tajribasining umumlashgan boy mahsulidir. Ma'naviy etuklik insonning ehtiyojiga aylanib qolishi zarur. Odob qoidalari hamma uchun bajarilishi zarur bo'lgan hayotiy talabdir. Axloq kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlarini sifatida mavjud bo'lsa, odob kishining ko'zga tashlanadigan mulozmati, xulq-atvori, muomila munozabati tarzida namoyon bo'ladi. Odob va axloq qoidalariga to'la amal qilish insonlarning o'zaro hurmat-ehtirom bilan tinch-totuv yashashlarini ta'minlaydi. Odob va axloq qoidalariga kam e'tibor beriladigan har qanday oilada, jamiyatda dilozorliklar, bo'ndishliklar va shu kabi insoniy fazilatlarga dog' tushadi.

Qaysi mamlakatda, qanday jamiyatda odob va axloq qoidalariga yaxshi e'tibor berilsa, shu joyda hayot farovon, kishilarning ruhi to'la, imon-e'tiqodi mustahkam bo'ladi. O'tmishda oilada farzand tarbiyasiga, ularning odobi, axloqiga alohida e'tibor berilgan. Agar oilada o'g'il tug'ilsa uni jasur, jisman baquvvat, ilmu odoblik bo'lib o'rindimog'iga, biron-bir kasb egasi bo'lishiga sharoit yaratilgan. Odob va axloqning mukammal bo'lishi haqida qayg'urilgan va ularga muntazam amal qilish nazorat ostiga olingan. Qiz bolalarga ham ilm va hunar o'rgatilgan. Ayniqsa, ularning odob va axloqiga birinchi darajali vazifa sifatida qaralgan. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishi, yo'nalishi, ijtimoiy munozabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Chunki, kadrlar tayyorlash milliy modelimizning barcha muddaosi barkamol shaxs va intellektual salohiyati i muntazam ravishda tayyorlashdan iborat bo'lib, O'zbekistonning xalqaro amaliyotidagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan. mustaqil fikr yuritadigan, talak k urli, malakali, bilimli mutaxassis, ayol paydo insonning ichki sifatleri barq urib kamolotga etgan

pedagoglarni tayyorlashni ko'zlaydi. Mazkur maqsadni amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri tarbiya jarayonidir. Tarbiyaning maqsadi natijasi barkamol avlodni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, o'quvchi shaxsning o'zi tomonidan raollik ko'rsatishni taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog etakchi vazifani bajaradi. Chunki ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari, mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan vaziralar tizimidan yaxshi xabardor. tarbiya shakllari, metodlar va vositalarni asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiyaga tadbiq etadi.

O'z tabiatiga ko'ra tarbiya ko'p omilli xarakterga ega ya'ni bola shaxsining qaror topishiga oila, maktab, jamoatchilik, ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Tarbiyaning natijalari bir xil tavsifda bo'lmaydi. Bu o'quvchilarning psixologik (individual tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlariga, ularning hayotiy va ma'naviy qiyosiga, shaxsiy jihatlari bog'liq. "Tarbiya odatda, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va shaxs xususiyatlarini shakllantirish bilan bog'liq shib olib boriladi. O'z-o'zini tarbiyalash shaxsning o'zida ijtimoiy qadrga ega bo'lgan tuzilatlarning hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf ettirishga qaratilgan ichki faoliyat sifatida ta'riflanadi. O'z-o'zini qayta tarbiyalash shaxsning o'zidagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarini yo'qotishga, bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat mazmunidir. Bola xulqidagi ilk sog'lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo'l qo'ygan xatolari, o'qituvchi, Salohiyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida, salbiy xulq, hosil qilingan zararli sifatlar o'zgartiriladi, qayta tarbiyalashda maktab, ota-onaning hamkorligi lozim bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. "Milliy tarbiya asoslari" fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini tasniflab bering.

2. "Milliy tarbiyani ijtimoiy tarixiy, qonuniy va ob'ektiv jarayon ekanligini bayon eting

3. "Milliy tarbiya asoslari" fanining ilmiy tadqiqot metodlari qaysilar hamda ularning funksiyalarini bayon eting

4. "Milliy tarbiya asoslari" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

2-Mavzu

Milliy tarbiya g'oyasining tarixiy pedagogik asoslari

Mavzu rejasi:

- 1.O'zbek milliy tarbiyasi tajribasining tarixiy-pedagogik tavsifi.
- 2.O'zbekona tarbiyaning turli qirralari adiblar talqinida.
- 3.Sobiq sho'ro davrida milliy tarbiya masalasiga munosabat.
- 4.Milliy tarbiyaning tiklanishi va rivojlanishi.
- 5.Uchinchi renesans davrida milliy tarbiya g'oyasining takomillashuvi.

Mamlakatimizda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas'uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir.

Ma'naviy-ruhiy sog'lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog'lom va ahil oila mehnatining samarasi sifatida qarab, oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish bugungi kunda har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni judayam katta. Qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avlodlardan avlodga o'tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o'zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida: "Agar jamiyat hayotining

tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat", – deb e'tirof etdilar "Renessans" lug'aviy fransuzcha "qayta tug'ilish" degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibligidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan.

Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mesning 1909 yilda "Musulmon Renessansi" nomli fundamental asari chop etilgan. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropalikalarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to'g'risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N. N. Konrad Renessans VII — VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo'g'ul istilosi tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta g'urkurab o'sganini ta'kidlaydi. U O'rta Sharq Uyg'onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho'zadi. Javoharlal Neru Boburni ham Renessansning tipik vakili, deb baholagan edi.

XV asrdan Renessans Yevropaga siljidi. Bu paytga kelib Yevropa 300—350 yil davomida islom olimlari, jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz asarlarini, ayniqsa, Xorazmiy, Farg'oniy va Ibn Sino asarlarini lotinchaga o'girib, chuqur o'zlashtirib olgan edi. Yevropa Uyg'onishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatganlardan biri Ibn Rushddir. Yevropa falsafasi va ilmiy tafakkurida XVI asr o'rtalarigacha averroizm (Ibn Rushd ta'limotiga asoslangan oqim)

mavqeini saqlab turdi.

Afsuski, XVI asrning 30 — 40 yillarida bizda an'anaviy jamiyat uzil-kesil qaror topdi. Ilmiy, badiiy izlanishlarga ijtimoiy ehtiyoj pasayib ketdi. O'tmish yutuqlari oldida qulluq qilish, ularni ideallashtirish va faqat takrorlashga urinish, yangiliklarga salbiy munosabat shakllandi. Asta-sekin chuqur turg'unlik va inqiroz boshlandi. Ular noxush ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy-mafkuraviy, regional nizolar va ayirmachilik kabi sabablar bilan qo'shilib qoloq bo'lib qolishimizga, XIX asr ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizni yo'qotishga olib keldi. O'tmishdan birinchi bo'lib teran tarixiy xulosa chiqargan — jadid bobolarimiz edi. Ular taklif qilgan islohotlar millatni qayta uyg'otish, taraqqiyot tomon burishni ko'zladi. Ammo mustabid hokimiyat jadidlar harakatini avj olmasdan bo'g'ib qo'ydi.

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug'ullanishga to'g'ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo'ydi. Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX — XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi — XVI asr birinchi choragi. Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar — Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar — Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinchi Renessansda — Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me'morlar, bastakorlar, musavvirar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg'or, mutaraqkiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo'lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog'imiz zarur.

Uchinchi Renessans milliy g'oyaga aylanishi zarur

Milliy g'oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so'zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir. U xalqni o'sha maqsad yo'lida birlashtiradi, safarbar etadi. Xalq barcha sa'y-harakatlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo'lsa, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta'lim-tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi. Milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biri, avvalo, xalqning jipsligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo'ljallarini umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g'oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat'i nazar, xalqqa istiqbolni, ijtimoiy mo'ljalni ko'rsatishi shart.

Istiqbolga erishganimizdan keyin dastlabki yillarda "O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat" shiori olg'a surildi. U amalga milliy g'oya vazifasini o'tadi va xalqni birlashtirishda, safarbar etishda katta rol o'ynadi. Mazkur jozibali shiorda urg'u jamiyatga emas, davlatga berilgandi. Keyinchalik milliy g'oya shaklan takomillashtirilganda "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" iborasi olg'a surildi. Unda urg'u siyosiy tashkilotga (davlatga) emas, balki har kishi uchun, siyosiy, mafkuraviy qarashlaridan qat'i nazar, birdek aziz Vatanga hamda shaxs va jamiyat hech qachon befarq bo'lmaydigan erkinlikka va farovonlikka qo'yildi. Milliy g'oyaning bunday tushunchaviy ifodasi ancha mukammallik kasb etdi.

Ammo uning mazmunini, uni amalga oshirish vazifalarini ochib berishga yetarlicha mas'uliyat bilan yondashilmadi. Ayniqsa, u islohotlarning yo'nalishlari, sohalari, turli bosqichlari, amaldagi va ehtimoldagi muammolari bilan bog'lanmadi. Natijada u mafkuraviy chaqiriq, quruq shior darajasida qolib ketdi. Aniq muammolar va vazifalardan yiroqligi uchun odamlarga ta'siri asta-sekin susaya boshladi. Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan "Ozod

va obod Vatan, erkin va farovon hayot" bugun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizga real ta'sir ko'rsatayotirmi, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g'oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g'oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog'i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g'oyaning yangi ifodasi, deb e'lon qilish maqsadga muvofiq.

Milliy g'oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda Uchinchi Renessans g'oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g'oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog'da o'tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog'lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo'lida xalqimiz turli mayda, vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko'rinishlariga chalg'imasligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo'q.

Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi.

Savol va topshiriqlar

1.O'zbek milliy tarbiyasi tajribasining tarixiy-pedagogik jihatini tavsiflang.

2. Adiblar talqinidagi O'zbekona tarbiya masalasining talqini

3.Sobiq sho'ro davrida milliy tarbiya masalasiga munosabat qanday bo'lgan?

4.Milliy tarbiyaning tiklanishi va rivojlanishi haqidagi fikrlaringizni bayon eting.

5.Uchinchi renesans davrida milliy tarbiya g'oyasining takomillashuvini misollar asosida bayon eting.

3-Mavzu

Milliy tarbiyaning mazmuni va uni takomillashtirish

Mavzu rejasi:

1.Milliy tarbiya - ijtimoiy buyurtma sifatida.

2.Milliy tarbiyaning texnologik tizimi.

3.Umumiy o'rta ta'lim maktabining milliy tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari va mexanizmlari.

Inson va insoniyat hech qachon tashqi dunyodan o'zini qurshab turgan olamdagi o'zgarishlar, rivojlanishlar, ro'y berayotgan hodisalar, voqealar, jarayonlardan ajralib qolgan, ularni his etmagan holda yashay olmaydi. Dunyodagi davlatlar, xalqlar, millatlar, ijtimoiy-siyosiy kuchlar, ular o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa ijtimoiy jarayonlardagi mafkuraviy ta'sirlar odamlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Ana shu ma'noda olib qaralganda har qanday jamiyat o'z istiqbolini kishilarni e'tiqod darajasiga aylangan muayyan g'oyasida ko'ra oladi. Chunki, «jamiyatning, jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi bo'lmasa, o'z oldiga qo'ygan aniq bir maqsad-muddaosi bo'lmasa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi». O'z navbatida kishilar ongi va qalbini makon tutgan g'oya va mafkuralar ta'lim hamda tarbiyasiz shakllanmaydi, jamiyat ravnaqiga, millat va xalqni kelajagiga xizmat qiluvchi qudratli botiniy kuchga aylana olmaydi. Zero, jamiyat mafkurasi, o'tmish bilan hozirgi davr va kelajakni, kechagi kun bilan ertangi kunni bog'lab, tutashtirib, aloqadorligini mustahkamlab turish uchun xizmat qilishga qodir ijtimoiy g'oyalar majmuyidir. Ana shu g'oyalardagi belgilovchi ustuvor tamoyil, bu jamiyatimiz tabiatiga, millatimiz mentalitetiga xos bo'lgan insonparvarlik bo'lib, u bizning milliy g'oyamizning shakllanishini tub negizi hisoblanadi. Binobarin, yoshlarimiz ruhiyatiga insonga mehr-muhabbat tuyg'ullarini singdirish jarayonida milliy g'oyaning ana shu tamoyilini ta'lim-tarbiya tizimini bosh maqsadiga aylantirish

bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

«Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardandir. Boshqacha aytganda, biz o'z xaq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak».

Yoshlarni imon-e'tiqodli, milliy g'oyaga sadoqat, bir-birlariga mehr-oqibatni, o'z Vataniga, millati, dini, tili, tarixi, madaniyati urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir. Fuqarolarni yangicha tafakkur asosida tarbiyalash orqali milliy g'oya va mafkuraning hayotbaxsh insonparvarlik tomoyillariga, umumbashariy qadriyatlarga mos keladigan xulq-atvorni shakllantirish va kamolga etkazish, ya'ni jamiyatda mehr-muruvvat madaniyatini qaror toptirish mumkin. Fikrimizcha, mehr-muruvvat milliy mustaqillik g'oyasining insonparvarlik tomoyillaridan ko'zlangan asosiy yo'nalishdir. Shuning uchun ham tarbiya jarayonida xuddi shu yo'nalishga jiddiy e'tibor berish zarur.

Ma'lumki, tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra, keng va tor ma'nolarda istefoda etiladi hamda ijtimoiy hayotda amal qiladi. Keng ma'noda oladigan bo'lsak, tarbiya – ijtimoiy-madaniy tajribalarni aniq maqsadni ko'zlagan holda avloddan-avlodga o'tkazadigan va shaxsning kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan alohida jarayondir. Tor ma'noda esa, mehr-muruvvat madaniyatini tarbiyalash bu yoshlarni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirish yo'lida kattalarning birgalikdagi aniq maqsadga yo'naltirgan faoliyatini, ya'ni rahm-shafqatli shaxsni kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayonini anglatadi. Ushbu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Xuddi shuning uchun ham mehr-muruvvat madaniyatini shakllantirishning

amaliy tashkiliy va pedagogik uslublari, vositalari ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishi zarur. Bunday shakl va vositalar milliy g'oyani ruyobga chiqarish, barkamol avlodni shakllantirishdan iborat bosh maqsadga erishishni ta'minlovchi xalqimizning milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlariga va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiya barcha davrlarda ham insoniyat oldida hal etilishi zarur bo'lgan eng muhim dolzarb vazifa bo'lib turgan. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlari va an'analari asosida tashkil qilingan. Farzandlar tarbiyasiga doir shakllangan urf-odatlarimiz, boqiy an'analарimiz ko'p. Bugungi kunda ham ulardan yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak». Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo'naltirilgan. Zero, ushbu masalaga o'yaviy nuqtainazardan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun printsiplariga to'la muvofiq keladi. Demak, milliy merosimizni o'rganishning dolzarbligina zariy jihatdan asoslidir. Xususan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning 4-bobida, ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, yangi zamonaviy tarbiyaviy shakl va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbiiq etish, milliy tarixiy an'analar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan. Demak, milliy modelga ko'ra, ta'lim tizimini yangilash – tabiiy davrda milliy merosimizni o'rganish va uni pedagogik metodlar yordamida olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Bu bo'la emas, albatta. Chunki milliy merosimizning g'oyaviy mohiyati – shaxs tarbiyasi, uning ma'naviy ehtiyojlariga da'vogar bo'lgan onillarni o'rganishdan iborat bo'lib kelgan, ushbu onillarni hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatda

eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo'lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik – ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy-ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda o'tmish allomalari, mutafakkirlarining ma'naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g'oyat beqiyosdir. Komil inson va etuk malakali mutaxassisni tayyorlashni qo'yilishida ham yuqoridagi masalalar bilan mantiqiy aloqadorlik mavjud. Zero, kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiyadagina iborat emas, balki bir-biriga bog'liq bo'lgan ko'pgina hayot bosqichlarini o'z ichiga oladi. Milliy modelimiz, bu – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishning uzviy birligi va hamkorligi, ularning o'zaro bir-biriga aloqasini aks ettiradi. Alloma o'zining «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida batafsil fikr bayon etadi. Farobiy ta'limotida inson ta'lim yordamida barcha fanlarni puxta o'zlashtirish bilan ma'naviy-axloqiy fazilatlariga, odob me'yorlari vakasb-hunarga oid malakalarga ega bo'ladi. U «Ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surdi. Bu usullar esa, o'z navbatida, Farobiyning «Fozil insonlar jamiyati»da axloqan pok, barkamol avlodning tarbiyasi uchun xizmat qilish kerak edi. Farobiy ta'lim-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan mutafakkir sanaladi. Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya – insoniy fazilatni hamda ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim. IX-X asrdan keyingi davrlarda yashab o'tgan allomalar ham inson axloqi, yoshlar tarbiyasi masalasiga oid ko'p ish olib borganlar. Bu xayrli ishga tasavvuf olamining allomalari Najmiddin Kubro, Fariddin Attor, Baxovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi,

Abdurahmon Jomiy, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy va boshqalar katta hissa qo'shdilar. Bu allomalarning ijodiy faoliyati, boy ma'naviyati tufayli milliy tarbiya tizimining asoslari vujudga keldi. Shuni alohida ta'kidlash kerak-ki, milliy modelimiz kontsepsiyasining mazmuni milliy turmush tarzimiz va ma'naviy-axloqiy an'analarimiz bilan bog'liqdir. Shu boisdan ham respublikamiz jamiyatshunos olimlari faylasuflar, ta'lim-tarbiya tizimida milliy modelimizning asosiy xususiyatlarini tahlil etayotganda ko'proq uning milliy tarbiyadagi o'rni hamda ahamiyatini ochib berishga harakat qilishmoqda. Jumladan, milliy modelning milliy tarbiyaning quyidagi xususiyatlari bilan bog'liq jihatlari mavjud:

- milliy tarbiyada, yuksak ahloqiy fazilatlarini shakllantirish;
- yoshlarga milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish;
- inson omilini shakllantirish;
- kishilarni halol mehnat qilishga, ishbilarmonlik va tadbirkorlikka o'rgatish;
- yoshlarda milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalash;
- ta'lim va tarbiyani uzviyligini ta'minlash.

Milliy tarbiyaning bu xususiyatlari zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg'unlasha olishi bilan bir qatorda milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz bilan bog'lansagina ijobiy samara beradi. Tarbiya muammolari – insoniyat tarixining barcha davrlaridagi g'oyalar, mafkuralar tizimidan ham katta o'rin olgan. Insonning ongi, e'tiqodi uchun bo'lgan kurashlar ham yoshlarga tarbiyaviy yo'llar orqali ta'sir etish shaklidan namoyon bo'ladi. Shu sababli ham jismoniy terq'om, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash O'zbekiston milliy ta'limotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, milliy modelning bosh muddaosi komil insonni tarbiyalashdir. Ushbu masalada ham respublikamiz olimlari o'ziga xos kontsepsiyalarni ilgari surishmoqda. Jumladan, ma'naviy barkamol inson aql-idrok asosida harakat qiladi. Vatanga, xalq va millatiga sodiq bo'lish ham madaniyatlilik, insoniyatlilik, barkamollik, axloqiy poklik belgilaridan hisoblanadi.

Avvalgi mavzularda aytilgan mulohazalar va komil inson haqidagi olimlarimiz bildirgan fikr va qarashlarga tayanib, shunday xulosa qilish mumkinki, komil inson tushunchasiga hali mukammal ta'rif berilib, uning mohiyati to'la va uzil kesil yoritilmagan. Balki komillikka erishish o'ta murakkab va mas'uliyatli jarayon ekanligini bu jarayonda inson fitratini tuzatmoq uchun avvalo, baloi-nafsni, xudbinlikni, munofiqlikni, egoizmi, kishilardagi loqaydlikni bartaraf etish zarurligini, bu esa unchalik jo'n ish emasligini ta'kidlamogchimiz, xolos. Zotan inson mavjud ekan, u xato qilishga moyilligi, agar uning ma'rifati sayyoz, ma'naviyati past bo'lsa, bu hatto fojeaga aylanishi muqarrar. Ana shunday illatlarga muhtalo kishilardan ko'pchilik o'zini olib qochadi, ularga yaxshi odamlarni ibratini singdirish, jamoa mahalla-ko'yni ta'sirini o'tkazish ham qiyin kechadi. Shuning uchun ham Hazrat A.Navoiy:

El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,

Ahvolidan idbor nishoni bil oni

Fe'l ichra ulus baloyi jon bil oni

Olam elining yomon-yomoni bil oni, deb bejiz yozmagan.

Umumlashtirib aytganda, komil inson tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Komil inson shunday insondirki, u avvalo dinu-diyonatini mustahkam tutgan, muayyan g'oya va maslakni e'tiqod darajasiga ko'targan, o'zidagi qusurlarni ilm-ma'rifat ne'matlari asosida bartaraf eta olgan, nafs va xoyu-havasni irodasiga tayanib boshqara olgan kishidir.

Bizda qadimdan «Ma'rifatli inson tushunchasi ancha keng ma'noni anglatgan. Unutmasligimiz kerakki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra ma'rifatlilik – bilim, ma'naviyat va go'zal ahloq degani hamdir. Xalqimiz bilimli, komil inson deganda aynan shunday odamlarni ko'z oldiga keltiradi.

Milliy meodelimizda komil inson g'oyasiga, uni tarbiyalash masalalasiga alohida e'tibor berilganligi ham ayni ana shu haqiqat

bilan bog'liqdir.

Ertangi kunimiz, hayotimizning farovonligi, zamondan orqada qolmaslik, taraqqiy topgan davlatlardan va xalqlardan kam bo'lmashlik, bir so'z bilan aytganda, ertangi istiqbolimiz, barcha o'zga niyatlarimizning amalga oshirilishida, birinchi navbatda, bizning o'zimizga kelayotgan yosh avlodimizni har tomonlama etuk insonlar qilib tarbiyalashga, voyaga etkazishga bog'liqdir.

Ma'lumki, tarbiya – inson shaxsi, ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Ta'lim esa axloqli, odobli shaxsga hunar o'rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan tarbiya va ta'lim bir-biri bilan uzviy bog'langan jarayondir. Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiyaning mushtarakligi haqida shunday yozadi: «Dars (ya'ni ta'lim) ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrimaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir. Chunki dars oluvchi - tarbiya oluvchi, amal qiluvchi demakdir»⁵. Inson shaxsi shakllanishida tarbiya ustivor ahamiyatga ega bo'ladi. Umumian aytganda, tarbiya ta'lim berish jarayonini barcha ma'rifiy majmuauni ham o'z ichiga oladi. Har qanday ta'lim, tarbiya bilan uyg'unlashtirilganida etuk ma'naviyatga zamin bo'ladi.

Tarbiya, xususan milliy tarbiya xususida so'z bo'lganda, bu tushunchaning mohiyati ustida alohida to'xtab o'tish lozim. Tarbiya so'zi asli arabcha bo'lib, «parvarish qilish, ta'lim berish, o'rgatish» degan ma'noni anglatadi. Tarbiyachi esa yuqoridagi maqsadlarni amalga oshiruvchi shaxsdir. E'tiborlaniladigan tarbiya berish ma'naviy kamolotning barcha jabhalarini shakllantirish uchun sub'ektiv omil yaratishdir.

Hadoma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarni axloqi va odobli, yomon va vijdoni, bilimi hamda malakasini davr talablari va shart-sharoitlari bilan uyg'unlashtirib shakllantirishga harakat qilganlar.

Shunga ko'ra, har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir⁶.

So'g'lon g'oyaviy tarbiya esa – yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini ham anglatadi. Shu o'rinda tarbiya hamda ta'lim

beruvchining shaxsiy sifati hamda o'z ishiga fidoyiligi bu masalada g'oyat muhim ekanligini unitmaslik kerak. Bu xususan g'azzoliy shunday yozadi. «Shayxning (tarbiyachining) muridini tarbiyalash kaliti - erdan ungan ne'matning yaxshi hosil bermog'i uchun dehqon uning atrofini begona o'tlar, tikanlardan tozalagani kabi bir hol».

Xuddi shuning uchun Yurtboshimiz, tarbiya, muallim hamda murabbiyning ta'lim tizimidagi o'rnini atroflicha tahlil etib shunday degan edi: «Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, «Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham shu erda, o'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ham shunday bilimga ega bo'lishi kerak». Shu bilan birga, o'qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag'batlantirish, ularni o'z ishi, kasbidan mamnun bo'lishini ta'minlashimiz lozim. Albatta bu masalani birdaniga echish qiyin, lekin uni echmasdan turib kelajak avlodning tarbiyasi to'g'risida gapirishning o'zi mutloqo nomaqbuldir». Zero, biz yangi asrda va yangi bir sivilizatsiya davrida yashayapmiz. Bu sivilizatsiyada mehnat qilib, o'zining ustida tinmay ishlaydigan, uzluksiz ta'lim oladigan, doimiy ravishda o'z bilim ehtiyojlarini qondirib, olgan bilimlarini oilasi, xalqi va davlati rivojlanishiga sarf qila oladigan shaxsgina munosib o'rinni egallashi mumkin. Shuning uchun ham Milliy modelimizda uzluksiz ta'limga katta ahamiyat berilgan. Chunki jamiyatimiz o'z oldiga qo'ygan oliy maqsad - kelajagi buyuk O'zbekistonni, ozod, obod Vatanni yaratish va umuman, islohotlarning taqdiri oxir-oqibatda bugun shakllanayotgan avlodning dunyoqarashiga, ijtimoiy mo'ljalliga zamonaviy ilm-fan va kasblarni egallashiga, amaliy tashkilotchiligiga bevosita bog'liq. Bizning davrimizda muayyan e'tiqod, aniq umid va ezgu niyatlarga ega, o'z mavqei, huquqini anglagan bilimdon, o'z vatani burchiga sadoqatli fuqarosiz ijtimoiy taraqqiyot mumkin emas. Shuning uchun yosh avlodni tarbiyalashda uning dunyoqarashi, bilim

darajasi, madaniy va siyosiy saviyasi, xulq-atvori umuminsoniy qadriyatlarga va qonun-qoidalariga mos kelishi eng muhim ahamiyatga ega. Chunki inson mavqei jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxs kamolining asosiy manbai jamiyatda, uning faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy va oilaviy-maishiy munosabatlar tuzumida ekanligini tarix tajribasi tasdiqlab bergan. Inson mohiyati masalasini, uning jamiyatda tutgan o'rnini, o'zining dunyosini ifodalovchi o'zaro uzviy bog'langan e'tiqod (imkon), huquq, burch, diyonat (vijdon), adolat, halollik kabi qadriyatlar orqali to'g'ri idrok qilishi mumkin. Aslida har bir fuqaro hayotdagi o'rnini, mavqegini o'z jamiyati, vatani, tevarak-atrofidagi muhim (oil, mehnat jamoasi, mahalla va h.k.) oldidagi burchi va mas'uliyatini ichki his-tuyg'ulari, vijdoni orqali chuqur tushunib olgan, ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi.

Hozirgi murakkab davrda biz fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashi va ongi qanday bo'lishiga befarq qaray olmaymiz, kelajakda ham har tomonlama kamol topgan, bilimdon va ishlabatmon, real hayotni va qonun-qoidalarini to'g'ri idrok qila oladigan, ongli va faol, o'z burchiga sadoqatli erkin shaxsni tarbiyalashimiz zarur. Erkin shaxs yashash maqsadini va o'z mavqei to'g'ri aniqlab olishga, xurofiy tasavvurlardan ozod holda aql idroki, kuch-qayrati va vijdoniga tayanib, halol mehnat va faoliyati bilan turmush sharoitini yaxshilashga intiladigan bo'lishi zarur.

Bozor munosabatlari faqat pul topish yo'lini izlashdangina iborat emas. Bozor munosabatlari rivoji uchun kishilarda daromad topishga intilishdan tashqari yuksak ma'naviyat ham bo'lishi kerak. Agar odamlarda halollik, haromdan hazar qilish, imon, insof, adolat, tinchqaravchilik singari fazilatlar bo'lmasa, bozor taraqqiyot yo'li to'xtab qoladi, jamiyatda ma'naviy inqiroz kuchayadi. Bozorning muvaffaqiyati «yo men birovni aldayman, yo birov meni aldaydi», degan qiyofa olinadi. Bozor munosabatlariga asos bo'ladigan milliy, diniy, ma'naviy qadriyatlar - har bir shaxs o'zining, boshqalarning qadri qiyofada namoyandasi ham adolatli ravishda hisobga olinishi zarur.

Yoshlar tijoratga intilishining ijobiy va salbiy tomonlari ham bor. Hozirchabu intilishning salbiy tomonlariga etarlicha tibor berilayotgani yo'q. Yoshlarni pul topishgagina o'rgatmay, ularni ko'proq aqliy, ilmiy, amaliy kamolot yo'liga boshlamoq kerak. Barcha yoshlar oldi-sottiga berilib, pul topish yo'liga o'tib ketaversa, O'zbekiston kelajakda buyuk, qudratli davlat bo'la olmaydi. Mamlakatimiz istiqbolli birinchi navbatda yoshlar zamonaviy fan asoslarini, eng yangi texnika va texnologiyani, milliy va umuminsoniy ma'naviyat asoslarini qanchalik chuqur egallashiga bog'liq.

Bu fikrlar oiladagi tarbiya masalasiga ham oiddir. Ota-onalar farzandlarining maktabda, oliy o'quv yurtlarida o'layotgan bilimlariga, kasb tanlash madaniyati, ehtiyoji shakllanishiga befarq qarashlari mumkin emas. Yosh avlodni bugungi kun imkoniyatlarigagina emas, balki ertangi kun ehtiyojlariga tayanib tarbiyalamoq zarur. Umuman tarbiyada ertangi kunni o'ylash, ko'ra bilish ustivor ahamiyatga ega. Bolalar doim biror foydali ish bilan band bo'lishini ta'minlash ham katta ahamiyatga ega. Biror ish bilan band bo'lishga o'rgangan yoshlar mehnatsevar bo'lادilar, ularda juda yoshligidanoq ma'lum mehnat malakalari shakllanadi. Bo'sh vaqtlarida, ular o'zlari sevgan ish bilan shug'ullanishga o'rganib qoladilar. Bunday bolalarning jinoyat qilishga yoki nojo'ya ishlar bilan shug'ullanishga vaqti ham bo'lmaydi. Odobli, mehnatsevar, sabr-toqatli farzandlar ota-ona qoldirgan boylikka boylik qo'shadi, halol mehnati bilan jamiyatda o'z o'rnini, qadr-qimmatini topadi. Ota-onadan meros bo'lib qolgan axloq va odob esa bir umr tugamaydigan eng katta boylikdir. O'zbek xalqi maqolida aytilganidek, meros yo'li bilan orttirilgan moddiy boylik yomon, akadan qolgan boylik undan ham yomonroq, xotindan qolgan boylik esa bularning hammasidan ham yomonroqdir. Yoshlar o'z mehnati, peshona teri bilan topgan boylikni ko'proq qadrlaydilar.

Ota-onalar bilishi, amal qilishi lozim yana bir muhim masala farzandlariga berayotgan tarbiya davr ruhiga, zamon imkoniyati va ehtiyojlariga, davlat belgilagan rejalar tizimiga

qay darajada mos kelishini yaxshi tasavvur etishdir. Ota-onaning ko'zi oldida shirin farzandlari bilan bir qatorda, ularning jamiyat, millat taraqqiyoti, davr ehtiyojlari va imkoniyati bilan uzviy bog'langan kelajagi ham turmog'i kerak. Ota-onalar farzand tarbiyasida asrlar davomida shakllangan an'onalarga, bu boradagi umuminsoniy qadriyatlarga tayanganida, davr ruhi va ehtiyojlarini e'tiborga olganida yaxshi natijalarga erishadilar. Bu ishning samarasi ko'proq tarbiyaning maqsadi va usullariga bog'liq bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni, yo'nalishi, usullari esa o'zgarib, yangilanib, takomillashib turadi. Bunga har bir konkret tarixiy davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, mafkuraviy, ehtiyojlari ham ta'sir etadi. Ammo bota aqlan etuk, ruhan tetik va sog'lom, erkin va tanqidiy fikrlaydigan, ayni paytda, ijtimoiy mas'uliyatni to'g'ri his etadigan, muayyan kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash O'zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning zarur shart-sharoitiga, asosiy shart-sharoitiga va maqsadiga aylandi. Shu o'rinda ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq yana bir masalaga ham e'tibor berish kerak. Milliy axloqiy qadriyatlarning, milliy tarbiya usullarining ahamiyatini kamsitmagan holda shuni ham aytish mumkinki, har qanday sharoitda ham tarbiya sof milliy mezonlar doirasida qolib ketishi millat ma'naviy kamoloti imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida belgilanadi. Bu fikr o'rnatilgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya o'tibori yo'nalishlarini belgilash uchun ham katta ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri yoshlarda yuksak aqliy qobiliyatlarni shakllantirishdir. Olimat ul Banotning milliy tarbiya an'onalari haqida quyidagi fikrlarida ham chuqur ma'no bor. U shunday deb yozgan edi: «Ota-onalar qo'lida bolalar aziz omoratlardir. Shuning uchun ham ularni go'zal tarbiya etmoq yaxshi solqilga o'rgatmoq va ko'rkam odatlarni tushuntirmoq kerak».

Tarbiya bilan bir bolani oltin etmoqlik mumkin, tuproq qilmoq ham mumkin. Tarbiyalangan kishilar din amri bilan yashaydilar, ularning tili bilan dili, so'zi bilan ishi bir bo'ladi.

Bunday fazilatlarni shakllantirish birinchi navbatda oilada ota-onaga hamda qolaversa tarbiyachilarga bog'liqdir.

Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tilgan hozirgi sharoitda oila va undagi ota-onaning farzand tarbiyasida mas'uliyati yanada oshdi, deb aytishga to'la asosimiz bor. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda oila - haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Har bir inson uchun, deb ta'kidlagan edi Vatan tushunchasi, avvalo oiladan boshlanadi. Shu bois, oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatdagi o'rnini, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab etmasdan, oilaga milliy manfaat nuqtai-nazaridan yondoshmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz».

Binobarin, jamiyat faqat o'z shaxsiy manfaatini ko'zlaydigan odamlar yig'indisidan iborat emas. Umumiy manfaatlarni teran anglash, kishilarning jamiyat bo'lib uyushishlariga, ijtimoiy talab va normalarni e'tirof etib, ularga amal qilishlariga sabab bo'ladi. Bu ayniqsa, hozirgi o'tish davrida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ana shu sababdan ham jamiyat a'zolarini umumiy maqsad va manfaatlar yo'lida birlashtirish mafkuraning asosiy vazifalaridan biridir. O'zining Vatan deb atalmish ulug' bir oilasiga mansubligini his etish tuyg'usi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki muttasil va izchil g'oyaviy tarbiya samarasi o'laroq, yuzaga keladi. Oiladagi totuvlik, ahillik, mehr-shafqat hislatlari uluksiz ravishda turli shakllarda olib boriladigan axloqiy tarbiyaning g'oyat xilma-xil qatlamlarini umumiy manfaatlari atrofida jipslashtirish,

odamlar o'rtasida hamjihatlik totuvlik, o'zaro yordam xislatlarini shakllantirish ham izchil mafkuraviy tarbiya vositasida amalga oshiriladi.

Diqqat qilinsa, ta'limning milliy modelida ilgari surilgan maqsadlarning mohiyati aynan milliy g'oya va mafkuradagi asosiy tamoyillar bilan uyg'unligini anglab olish qiyin emas. Buningdan, milliy model tadbiqi kishining jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonini tezlashtiradi.

«Ta'limning yangi modeli ishga tushgach, – deb ko'rsatgan edi L.A. Karimov, – insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi. Har qanday odam ham o'smirlik chog'ida, endigina yuzaga otib kelayotgan davrda jamiyatdan munosib o'rin topishi kerak».

Savol va topshiriqlar

1. Milliy tarbiyaning - ijtimoiy buyurtma sifatidagi mohiyatini tushitib bering.

2. Milliy tarbiyaning texnologik tizimi qanday tizim, uning tarkibini bering.

3. Umumiy o'rta ta'lim maktabining milliy tarbiyani amalga oshirishning qanday imkoniyatlarini bilasiz?

4. Umumiy o'rta ta'lim maktabining milliy tarbiyani amalga oshirishning qanday mexanizmlari bilasiz? Ularning funksiyalarini yoritib bering.

4-Mavzu

O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari

Mavzu rejasi:

1. Milliy tarbiyalanganlik mezonlari.

2. Milliy tuyg'u, O'zbekiston vatanparvarligi, milliy mafkuraviy onglik, vijdoniylik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy g'urur va milliy odob.

O'zbekistonda davom etayotgan milliy mustaqillikni mustabkamlash jarayoni ta'lim va tarbiya targ'ibotini ham isloh qilishni, ma'naviy va ma'rifiy ildizlarga payvand qilishni, yosh avlodlarda O'zbekiston vatanparvarlariga hos fazilatlarining tarixiy o'zaklarini aniqlashni, o'zbek xalqi tarhi, tili, ma'naviyati, adabiyoti, san'ati, an'analari va urf-odatlarini milliy-tarbiyaviy tadqiq qilishni talab etmoqda. Ana shu nuqtai nazardan tadqiqotimiz mavzusi milliy pedagogik tarix qirralarini ham o'rganishni talab qiladi. Chunki tarix o'zbek xalqi oldiga qachon, qanday tarbiyaviy talablar qo'yganligini; davr o'zgarishi bilan milliy tarbiyada fe'l-atvorimizda qay sifatlar qaysi tomonlarga o'zgarganligi, qaysi sifatlar o'zgarmay, avloddan-avlodga meros bo'lib etib kelganligini aniqlash respublikamizda milliy ma'naviyatni o'rganish, tiklash va istiqbolini belgilash nuqtai nazaridan g'oyat qimmatlidir.

Markaziy Osiyo xalqlari, ularning turmush tarzi, odatlari bilan jahonning atoqli tarixchilari qiziqib kelishgan. Buni tarixchi Strabonning asarlaridagi massagetlar ahloqiy tasavvurlari haqidagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin. Uning yozishicha, qadim zamonlarda ajdodlarimiz o'lkamiz hududida ko'plab qabilalarga bo'linib yashagan. Ular uchun o'zaro halollik, adolatlilik hamma narsadan ustun qadriyatlar hisoblangan. O'tmishda ajdodlarimiz qanday fazilatlarga ega bo'lgan farzandni orzu qilishganini anglash uchun xalqimiz uzoq tarix davomida

vatanga afsona, ertaklar, dostonlarga murojaat qilish kerak. O'zbek xalq o'z zaki ijodiyoti namunalari tarannum qilingan vatanga muhabbat, erkarparvarlik, g'ururilik, sadoqatli (jon do'sti) do'st bo'la olish, o'z burchini, o'z so'zini oqlash, mardlik, jasoratga qodirlik eng zarur fazilatlar bo'lgan. O'zbek olimi, professor Y. Ismatovning qayd qilishicha, ajdodlarimiz «... o'z burchini ado etib, dushman ustidan g'alaba qilish yo'lida qahramonlarcha o'z jonlaridan kechishga, har qanday mashaqqatlarga bardosh berishga, sevgi, muhabbatdan kechishga, o'z qabiladoshlarining ehtiyojlarini uchun to'ohirigacha kurashishga shay» turganlar.

Ajdodlarimizda milliy vatanparvarlik fazilatining qanday namoyon bo'lganligini sak qabilasiga mansub cho'pon Shiroqning oramizdan avvalgi 519 yilda ko'rsatgan mashhur jasoratidan bilish mumkin. Grek tarixchisi Gerodot shoh Doroning O'rta Osiyoga qilgan hujumi haqida hikoya qila turib, Shiroqning mingboshi Panosbatga qarata aytgan quyidagi so'zlarini keltiradi: «Men g'alaba qildim, chunki saklarni, mening yurt-doshlarimni sizlarning hammaningizda saqlash uchun men siz forslarni ochlik va chanqoqlik azobiga muhtalo etib, holdan toydirishga muvaffaq bo'ldim».

Markaziy Osiyo xalqlari hayoti, madaniyati, urf-odatlari orasida tarbiyaviy umumiylik mavjud. Demak, mazkur umumiylik qadim xalqlar orasida tarbiyada ham umumiylik mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bu haqda islomgacha davr madaniyati tarifi, qadimiy yozma obidalar: Avesto, O'rhun-Enisey yozma adabiyoti, maniheylik, mazdakizm kabi oqimlar ta'limotlarini o'rganib olinmalarining ilmiy hulosalari mavjud. Avestoning eng muhim qismlaridan biri «Yasna»da chorvadorning adolatli, oqil va hurmatga ega bo'lishi maqsadiga etkazishini e'tiqod darajasiga ko'tarib olingan. Lekin qo'lida qurol bilan, zo'rlik ishlatib, yaylovlarni talon-toraj qilish bilan yakson qilib, merosga qolgan mol-mulkini talon-toraj qiluvchi bo'chmanchilarni manfur dushman hisoblaganlar. Natijada, qadimgi ajdodlarimiz nazdidayoq adolatsizlik natijasida «...» (bosqinchilar) antitezasi paydo bo'lgan. Bu esa

o'z navbatida yosh avlodlarda vatanparvarlik, millatparvarlik, fidoyilik kabi fazilatlarini shakllantirishni qabilaviy tarbiya vazifalariga aylantirgan. Ajdodlarimiz farzand tarbiyasining negizi sifatida ahloqiy uchlik: o'y-niyat—so'z—ish birligini yaratishgan. Mazkur uchlik negizini keyinchalik lug'atimizga kirib kelgan «vijdon» so'zi bilan ham ifodalash mumkin. «Men Yahshi niyat, Yahshi so'z va Yahshi ishga shon-shaykat bahsh etaman. Men yahshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shaykat bahsh etaman» — deb yozilgan «Yasna»da. «Yahshi fikr deganda... yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtoj va havf-hatar ostida qolganda ko'maklashishga shaylik, yovuzlikka qarshi, kishilar baht-saodati uchun faol kurashishga shaylik, hamma bilan ahil va totuvlikda, o'z maslakdosh birodarlari bilan do'stlik va hamkorlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushuniladi. Inson o'z fikri-hayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim, yahshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va boshqa jaholatlariga berilmaydi, chunki bunday holatida yahshi niyatini yo'qotadi, burch va adolat haqida unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi», — deb hisoblangan. Bu axloqiy fazilatlar kishini elga qo'shilishga, el bilan birga bo'lishga, elning tashvishi bilan yashashga tayyor turuvchi xalqparvar kishini tarbiyalashga qaratilganligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Zamonlar o'tib, odamlar orasidagi munosabatlarning boyishi, savdo-sotiqning yuzaga kelishi bilan qabilaviy tarbiyaga qo'yiladigan talablar ham o'zgarib, zamonaviylasha bordi. Ajdodlarimiz o'zlaridagi hislatlarning nafaqat Hudo tomonidan ato qilingan, balki shakllantirilishini tobora chuqurroq ilg'ay bordilar. Jumladan, yahshi so'zlar — ahliga vafodorlik, berilgan va'dani oqlah, hamma oldi-berdilarda halol bo'lish, o'zgalarning haqini yemaslik, buzuqlikdan o'zini to'htata bilish kabi yangi sifatlar bilan boyib bordi. Ma'naviyat — nur, ma'naviyatli shaxs dilida haqiqat nuri aks etgan, o'zligini anglagan, o'zining borliqdagi o'rni va vazifasini tushunib etgan, haqiqat oldidagi o'z maqomiga loyiq bo'lish va burchini ijro etish ma'suliyatini zimmasiga ola biladigan inson. Millat

ma'naviyati, o'z tarixiy shakllangan qiyofasiga ega, shu bilan birga mohiyatan umumbashariy qadriyatlarga aslo zid emas, balki muvofiqdir.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq halqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davomi etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

O'zbek xalqi milliy ma'naviyat jahon xalqlari madaniyati tarixida o'ziga xos bebaho o'ringa ega. Jahon madaniyati qadriyatlarini boyitish, sarmazmun, o'ziga xos xususiyatlari bilan kishini o'ziga tortadi.

Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy, ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik huquqiy, siyosiy badiiy, ekologik qarashlar, butun insoniyatning mulki bo'lgan boshqa qadriyatlardan iboratdir. Xaqiqatan madaniyat umuminsoniy hodisa.

Milliy ma'naviyat va uning asosiy mohiyati;

Birinchidan, islohotlarning ikkinchi bosqichida ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk insonlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish; Ikkinchidan, xalq xo'jaligining barcha sohalarida ma'naviy poklikka to'la erishish; Uchinchidan, milliy qadriyatlarni to'la tiklash va shu asosida milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish; To'rtinchidan, O'zbekiston mustaqilligini rivoqlantirish va takomillashtirish ishlarida faol qatnashish, bu yo'lda fidoyilik namularini ko'rsatish; Beshinchidan, mustaqil jamiyat va uning taraqqiyoti uchun halol xizmat qilish. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekanligiga ishonch tuyg'ularini rivoqlantirish. Oltinchidan, mustaqil hukumatimiz chiqargan qaror va qonunlarga, Prezident Farmonlariga sodiq bo'lish, qadrlash va amal qilishdan iboratdir.

Barakamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishda quyidagi

maqsad va vazifalarni amalga oshirish kutilgan samarani beradi:

1. Shaxs irodasini shakllantirish. Iroda ichki, ammo muhim insoniy sifatdir. Iroda kishida bilish, his qilish va chiniqish quvvatini hosil qiladi. Iroda vositasida shaxs olam va odamni, voqea va hodisalarning sabablarini anglab etadi, haqiqatni his qiladi va yaxshilik – yomonlik ta'sirlarida bardosh berish ko'nikmasini hosil qiladi. SHaxs irodasi shakllantiriladi, u o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Shu ma'noda Irodani shaxs jamiyatning ongli individi sifatida faoliyat ko'rsatadi, buning aksi bo'lgan irodasiz kishi esa ongsiz, mute va o'zgalarga «qul» sifatida shakllanadi.

2. Shaxsni haqiqatgo'y sifatida voyaga etkazish. Haqiqatgo'ylik muhim ahloqiy qadiryat sifatida shaxsning ma'naviy ahloqiy qiyofasida muhim o'rin tutadi. Haqiqatga intilish shaxsni jamiyatda o'z o'mini topishga turtki beradi. SHu ma'noda haqiqatgo'ylik shaxsning xarakterini shakllantiruvchi omillardan biridir.

3. Shaxsni insonparvar sifatida voyaga etkazish. Insonparvarlik shaxs faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi va uni baholovchi muxim fazilatdir. Shaxs o'z faoliyatida insonparvarlik fazilatini namoyon qilmas ekan, u jamiyatning ilg'or kishisiga aylana olmaydi.

Zero, jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichida ma'anviy ahloqiy tarbiya muhim o'rin tutadi. Chunki jamiyatimiz demokratik qadriyatlarni qabul qilib borgan sari uning a'zolarini «tarbiyalash»ga bo'lgan davog'lar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, turli diniy oqimlar o'zlarining mutaassibona, illyuzion xususiyatlarga boy tarbiya yo'llarini tiqishtirishga urinishmoqda.

Bunday sharoitda ma'naviy –ahloqiy tarbiya yo'nalishlarini aniq belgilab olish dolzarb hisoblanadi.

Shu ma'noda ma'naviy – ahloqiy tarbiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Maqsadlilik.
2. Onglilik.
3. Samaradorlik.

Savol va topshiriqlar

1. Milliy tarbiyalanganlik mezonlari qaysilar. Har bir mezonni misollar asosida bayon eting.

2. Milliy tuyg'u, O'zbekiston vatanparvarligi, milliy mafkuraviy onglik, vijdoniylik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy g'urur va milliy odob kabi tushunchalarni milliy tarbiya bilan bog'liq holda ifodalang

5-Mavzu

O'zbek oilasidagi milliy tarbiya mazmuni

Mavzu rejasi:

1. O'zbek oilalarida tarbiyaviy an'analar.
2. Ota-ona obro'si milliy tarbiyaning asosi sifatida.
3. Milliy tarbiyaviy fazilatlarni shakllantirishda maktab, oila va mahalla hamkorligi

Sharqda azaldan oila ijtimoiy mohiyati bilan o'ziga xos qadriyat hisoblanadi. U avlodlar davomiyligining, shajaralar uzviyligining o'ziga xos ko'rinishidir. Ayni paytda erkak va ayolning birgalikdagi hayotiy taqdiri, saodatli turmushi, hayot farog'ati va orzu-umidlarning mo'tabar maskani hamdir. Ana shu maskan qanchalik mehrlı, muhabbatli, ezguliklarga yondosh, yaxshiliklar, muruvvat va saxovatlariga asoslansa, u sog'lom va mustahkam oila muhitini vujudga keltiradi. Bu muhit o'zining ma'naviy-axloqiy yetukligi bilan erkak va ayolning o'zaro munosabatlaridagi holatdan kelib chiqib, oilani muqaddas maskanga – avlodlar va sulolalar qo'rg'oniga aylantiradi. Albatta, ikki yoshning qovushishidan iborat holat bu hali to'laqonli oila emas. Muhabbatli hayotning, birgalikdagi turmushning dastlabki ko'rinishi, xolos. Farzand tug'ilgach tom ma'nodagi oila vujudga keladi. Farzand – oilaning mustahkam tayanchi. Uning butun og'irligi-yu zavqli tomonlarini uyg'unlashtirib turadigan, ota-onani kelajakka qat'iy ishonch bilan qarashga da'vat etadigan qudratli kuchdir. Bola kichkinaligida torgina makonning zavqi, ota-onaning kelajagi, saodatli hayotining mahsuligina, xolos. U yura boshlab, ostona hatlab ko'chaga chiqqanidan keyin ijtimoiylasha boshlaydi. Bolalarga qo'shilib, ulkan jamiyatning kichik a'zosi bo'lib qoladi. Ana shunda oilaning tarbiyaviy roli, ma'naviy-axloqiy roli oshadi. Sharq turmush tarzi, asosan, axloqqa tayanganligi va yuksak ma'naviy ehtiyojlarni qadriyat darajasida ko'targanligi bilan alohida ajralib turadi. Oila mas'uliyati, uning ijtimoiy mohiyati

ziddi ana shu bilan belgilanadi. Oila katta bo'ladimi, kichik bo'ladimi, baribir, u sonidan qat'i nazar mustaqil ijtimoiy makon sifatida o'z muhitiga, iqlimiga, ma'naviy, axloqiy ob-havosiga ega. Har bir oilaning o'z aqidalari, turmush tarzi, hayotiy ehtiyojlari mavjud. Ana shu ehtiyojlar va aqidalar turmush tarzidagi an'analar, urf-odatlar va qadriyatlarni qay darajada qabul qilgani va uning asosida o'z hayotini qurganligini ko'rsatadi. Farzand – oila tayanchi. Demak, farzand sog'lom, durkun, jismoniy biologik jihatdan honuqson tug'ilishi zarur. Ota-ona bunga intilishi shart. Zotan, oilaning fayzi, tarovati, zavqli va mehr-muhabbatli jihatlari ayni ana shu bilan o'lchanadi. Atoqli adib Chingiz Aytmatovning sulolariga ko'ra, ikki haftalik embrion tashqi muhitni his qilar ekan. Hali odam shakliga kirmagan hujayra oila muhiti, hayot murakkabliklari, ziddiyatga to'la olam, ayniqsa, inson degan nodir, shu bilan birga, ayanchli jonzot taqdiri, hayoti haqida fikr yuritar ekan. Ayrim holatlarda o'n besh kunlik murtak odam bo'lib tug'ilmasammi yoki tug'ilmasammikan, degan fikrga borar ekan. Bu – dramatism. Bu – inson degan muham olamning fojiaiy qiamati. Oila esa ana shu dardli qismatni ezgulikka yo'naltiruvchi mo'jizaviy makon. Darhaqiqat, inson hayoti hech qachon tugal bo'lmagan, bo'lmaydi ham. Shuning uchun donishmandlar bu dunyoni biri kam deb atashgan. Lekin ana shu biri kam, hech qachon tugal bo'lmaydigan, muammolarga, kelishmovchiliklarga, iztiriblariga to'la bu dunyoda hayotini mazmunli o'tkazishga, o'tayotgan kunidan rozi bo'lib, hayot zavqi, shavqi va mehr-muhabbatli jihatlari chuqur his qilgan oila baxtli oila hisoblanadi. Ana shu holatning butun mohiyati, ko'lami va mazmunini anglashning o'zi kishini saodatga eltuvchi buyuk qudrat, ma'rifiy kuch, ma'naviy rag'batdir. Azaldan Sharqda oila, ota-ona tushunchalari muhim qadriyatga aylangan. Ota – padari buzrukvor. Ona – volidayi muhtarama. Bunday sifatlar faqat ulargagina munosib. Ularning oiladagi, butun jamiyatdagi mavqeyini belgilaydi. Ota-onaning o'zaro munosabatlari oila muhitini shakllantiradi. Darhaqiqat, har bir oila alohida ma'naviy, ruhiy

makon. Bumakondagi ob-havo, kayfiyat ota-onaning munosabatidan kelib chiqadi. Farzand dunyoga kelib, ayni ana shu muhitda rivojlanadi, kamol topadi. Shakllangan tarbiya muhitidan oziqlanadi, havosidan nafas oladi. Insonning dunyoga kelib, odam bo'lib shakllanishida ota-onaning roli oila muhiti bilan bog'lanib ketgan murakkab psixologik va tarbiyaviy jarayon. Afsuski, biz ba'zan bunga e'tibor bermaymiz. Ota, asosan, moddiyat bilan shug'ullanadi. Topganini uyiga tashiydi, bolalarining rizqi butun bo'lsin, deb eladiyuguradi, xolos. Ona esa bolasini yuvib-tarab oziqlantiradi. Afsuski, bu kamlik qiladi. Bunday holatda ota ham, ona ham faqat yuzaki, yashash uchun zarur bo'lgan vazifani bajargan bo'ladi. Mehr, qalb qo'ri, yurak harorati, fikrlash imkoniyatlariga kamroq e'tibor beriladi. Aslida esa tarbiya ana shundan boshlanadi. Qalb uyg'onmog'i lozim, ruhiyat uyg'oq bo'lmog'i shart. Rivoyatlarga ko'ra, bir odam farzandi uch yoshlik bo'lganda Aflotunning oldiga boradi: "Taqsir, farzandim uch yoshga to'ldi, endi uni qanday tarbiyalasam ekan, maslahat bersangiz", – deydi. Aflotun esa "Afsus, farzandingiz tarbiyasiga uch yil kechikibsiz", – deb javob beradi. Demak, donishmandlarning xulosalariga ko'ra, farzand dunyoga kelgan kundan boshlab tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Boshqacha qilib aytganda, farzand tarbiyasi u dunyoga kelgan kundan boshlanadi. Ota-ona buni juda chuqur tushunishi, anglab olmog'i lozim. Balki, tug'ilmasidan oldin, ona qornidanoq tarbiya bilan shug'ullanmoq kerakdir. Shuning uchundir, ayrim mutaxassislar homilador onaga ko'proq mayin, sokin musiqa tinglashni, shovqinsuronlardan, baqir-chaqirlardan uzoqroq bo'lishni tavsiya etadilar. Pedagoglarning xulosalariga ko'ra, bolaga to'rt-sakkiz yoshlarida ko'pdan ko'p ijobiy ma'lumotlar berish kerak. Aytaylik, oila, ota-ona, qarindosh-urug', Vatan, tarixiy qahramonlar, ulug' donishmandlar, shoirlar, sarkardalar haqidagi latifalarni, voqealar va hodisalarni tushuntirib borish kerak. Toki bolaning murg'ak qalbida ezgulikka, yaxshilikka moyillik hislari kuchayib, uning fe'l-atvorini, xarakter xususiyatlarini shakllantirsin. Bolaning to'rt-sakkiz yoshlarida

to'plagan ma'lumotlar bazasi qandayligidan kelib chiqib uning bir umrlik hayot yo'lini, inson sifatidagi fazilat-u nuqsonlarini belgilab berar ekan. Demak, ota-ona farzand tarbiyasi uchun mas'ul, to'la javobgar shaxs. Ota-onaning farzandlari oldidagi asosiy vazifasi ularni katta hayotga, serg'alva, tashvishli olamda yashashga tayyorlash hisoblanadi. Bolaning tabiiy imkoniyatlari, qobiliyati, ma'naviy-ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqib ma'lum bir sohaga yo'naltirish, uning qiziqishini hisobga olib kasb tanlashiga yordam berishi, avvalambor, oiladan boshlanadi. Bu ota-onaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktab yoshida esa oila va maktab, ota-ona va ustoz hamkorligi muammosi kelib chiqadi. Bunda ham, albatta, ota-onaning roli hamisha baland bo'ladi. Chunki oila muhiti, oila psixologiyasi ota-ona munosabatlarining mahsuli sifatida murg'akkina bolaning odamga aylanish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Buning ilmiy-genetik asoslari, irsiy ildizlari ham bor. Inson – fazilatlar va illatlar olami. Dunyoda mutlaq ideal odam bo'lmagan, bo'lmaydi ham. Faqat ideal bo'lishga, komil insonga aylanishga intilish har bir insonning ham ilohiy, ham dunyoviy burchi hisoblanadi. Inson yuz yil yashasa, yuz yil tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Demak, hammamizning jismimizda illatlar-u fazilatlar jamuljam. Qonimizda yuzlab bag'rikenglik, shafqatlilik, mehrlilik, muruvvatlilik, sadoqat singari fazilatlar bilan birga sotqinlik, munofiqlik, hasad, ko'rolmaslik, g'ayirlik singari illatlar ham parallel ravishda yashaydi. Faqat kimlardadir fazilatlar, kimlardadir illatlar ko'proq. Inson tabiatan manfaatlar olami. U hamma narsa o'zini bo'lishini, unga qanchalik erkinlik bersangiz, undan ham ko'proq erkinlikni istaydigan, qanchalik farovonlik sharoitini yaratsangiz, undan ham farovonroq yashashga intiladigan olam. Uning ehtiyojlarini hech qachon qondirib bo'lmaydi. Inson ehtiyojlari hayot ne'matlaridan ko'ra ko'proq va kengroq. Ana shunday kayfiyatda xudbinlik, manfaatparastlik illatlari kuchayib boradi. Natijada "gunoh", deb ataladigan tavqi la'natga munosib bo'lga kiriladi. Ulug' bobokalonimiz Forobiyning xulosalariga ko'ra, qonunlari barkamol bo'lmagan jamiyatda axloqsizlik

kuchayadi. Axloqsizlik esa jamiyatni parokandalikka olib keladi. Buyuk nemis faylasufi Osvald Shpengler: "Qayerda madaniyat yo'qolsa, o'sha yerda zoologiya kuchayadi", – deydi. Demak, madaniyat, ma'naviyat, axloq yo'qolsa, odamdagi insoniy instinktlar so'nib boradi. Aksincha, hayvoniy instinktlar kuchayadi. Inson odam shaklidagi maxluqqa aylanadi. Ma'naviyatga ehtiyoj unutiladi. Bu esa oxir-oqibatda jamiyatni abgor qiladi. Keyingi yillarda ma'naviyatga, ma'rifatga, inson tarbiyasiga e'tibor tobora oshib bormoqda. Demak, bunga ehtiyoj bor. Odamning insonga, insonning shaxsga aylanish jarayonlarining samaradorligini oshirish zaruratga aylanmoqda. Bunday zarurat va ehtiyojni ijtimoiy fanlar qondirishi mumkin. Afsuski, oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar keskin qisqartirib yuborildi. O'zining tor mutaxassisligi doirasida yashaydigan va bu biqiq qobiqdan tashqaridagi keng olamni, uning rang-barangligini, jozibasini, hayotiy ehtiyojini anglamay yashaydigan kadrlar yuzaga kelmoqda. Haqli savol tug'iladi: zamonaviy, oliy universitet ta'limini olgan agronom yoki muhandis adabiyotni bilmasa, she'r o'qimasa, Navoiyni tushunmasa, uni to'laqonli inson deb atash mumkinmi? Yuqori malakali tibbiyot xodimi falsafiy fikrlashni bilmasa, mantiqiy xulosa chiqarishni eplolmasa, uni zamonaviy sivilizatsiya talablariga mos kadr deb atash mumkinmi? Bunday odamning oilaviy muhiti qanday bo'ladi? Murg'ak bolalar tor tushunchalar asosida shakllanib, mexanik yashaydigan robotlarga aylanmaydimi? Bu kasbiy bilim, professional mahoratgina insonni to'laqonli shaxsga aylantiradi, degan fikr qanchalik noto'g'riligini ko'rsatmaydimi? Masalaning ikkinchi tomoni bor. Inson – qalb va ruhiyat olami. Odam o'zini jamiyatda to'laqonli namoyon etishi uchun faqat iste'dodning o'zi kamlik qiladi. U iste'dod bilan birga yuksak ma'naviyatga, yetuk axloqiy asoslarga ega bo'lmog'i lozim. Unga falsafiy tafakkur, mantiqiy tahlil, jozibador va go'zal ifoda, yetarli darajadagi so'z boyligi kerak bo'ladi. Bular esa qalbnii tarbiyalaydi. Qalbning buyukligi, pokligi, tozaligi ruh tozaligiga olib keladi. Ruh qalbdan oziq oladi. Ruhni esa aql boshqaradi. Ana

bu formulaning yechimi – komil inson degan qadriyatga olib keladi. Bizning qalbimiz so'qirlashib bormoqda, ruhiyatimiz ogirda, shikasta, nimjon, aqlimiz esa zaif, noshud, notavon. "Gunoh" degan tavqi la'nat ochko'z qurt kabi qalbimizni, jism-u jonimizni kemirmoqda. Bu ketishda manqurtlar, fikrlamaydigan, belgilangan dastur asosida yashaydigan robotlar jamiyatini yaratamiz. Demak, biz yangilanishlar jarayonida yangi O'zbekistonning yangi barkamol qiyofadagi fuqarolarini tarbiyalashimiz, shakllantirishimiz uchun qalb tarbiyasiga, ruhiyat tarbiyasiga jiddiy e'tibor bermog'imiz kerak. Hayotiy tajriba, insoniyat taraqqiyotining bir necha ming yillik mohiyati shuni ko'rsatadiki, o'z sohasini puxta egallagan, yetuk va noyob qobiliyatga ega bo'lgan axloqsiz, ma'naviy jihatdan qashshoq mutaxassisdan ko'ra qalbi toza, ruhiyati pokiza, aqliy sog'lom, g'oyaviy chiniquqan o'rtamiyona mutaxassis jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Chunki u jamiyat boyliklarini o'marmaydi, talon-toroj qilmaydi, korrupsiyadan uzoqroqda yashaydi. Insof, diyonat, vijdon, iymon singari Ilohiy olam o'lchovlari va mezonlari dunyosida yashaydi. Ana shunda "gunoh" degan tavqi la'natdan poklangan jamiyatni yuzaga keltirishimiz mumkin bo'ladi. Buning asosiy tayanchi – Oila! Millatning xaloskori, jamiyatni barkamol muvohida mo'tabar maskan – Oila!

Hozirgi zamon taraqqiyoti har bir shaxsdan voqelikni to'g'ri tushunishni, xulosa chiqarishni, axloqiy poklikni va hissiy-asabiy chidamlilikni, jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida mustahkam va faol bo'lishni talab etmoqda. Ma'lumki, shaxsning bunday ijtimoiy, emotsional, xulqiy va boshqa sifatlariga oila asos bo'ladi, shakllantiradi va kamol toptiradi. Zamonaviy oilalar mavjud jamiyat bilan uzviy bog'langandir. Shaharlarning o'sishi, yashash sharoitlarining yaxshilanishi, xalqning moddiy va madaniy turmush saviyasining oshishi yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashga imkon qiladi. Ma'lumki, iymonlilik, insonparvarlik, diyonat, e'toplilik kabi shaxs mafkuraviy tasavvurlarining asosida yotgan ta'lim-farqonning, eng avvalo, oilaviy munosabatlar tizimida

tutgan o'rnidan, ota-ona, oiladagi boshqa katta avlod vakillarining ijtimoiy mavqelari va roli mazmunidan kelib chiqadi. Zero, mafkuraviy tasavvurlar hamda ular asosida shakllanuvchi insoniy fazilatlar shaxsning yaxlit strukturasiidagi muhim omillardan hisoblanadi. Milliy g'oyani oila muhitida bolaning ongi, qalbiga singdirishning muhim vositasi – bu oilaviy qadriyatlarni saqlash va ilg'or oilaviy an'analarni kundalik tarbiya tizimiga joriy etish, turmush tarzining bir bo'lagiga aylantirishdir. Bunda ota-onaning o'zni va roli bevosita xarakterga ega bo'lib, faqat sog'lom muomala va samimiyat muhitigina o'smiring dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, har bir oilaning muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya'ni ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom, barkamol inson faqat sog'lom oilada shakllanadi. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma'naviy takomilining asosidir.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbek oilalarida qo'llaniladigan tarbiya an'analari haqida nimalarni bilasiz?
2. Ota-ona obro'si qanday egallanadi?
3. Milliy tarbiyaviy fazilatlarini shakllantirishda maktab, oila va mahalla hamkorligi tizimi xususida fikrlaringizni bayon eting

6-Mavzu

Tarbiyaviy faoliyatda pedagogik texnika

Mavzu rejasi:

1. Tarbiyaviy faoliyatda pedagogik texnika mazmuni
2. Tarbiyaviy faoliyatda pedagogik texnika imkoniyatlaridan foydalanish

Pedagogik texnika – o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir.

Uning asosiy xususiyatlari–o'qituvchining maxoratini talqinlovchi kasbiy ko'nikmalari xisoblanadi, ya'ni savodli va ibodatli so'zlay olishi, o'z fikr muloxazasini tushunarli ta'sirchan bayon eta olishi, xis-tuygularini jilovlay olishi, xozirjavoblik, pedagogik bilimlarga ega bo'lishi kabilar kiradi.

Hozirgi zamon pedagogika fani pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning roli beqiyos deb qayd etadi. Chunki u o'qituvchiga o'z g'aydasini tuta bilish (mimika, pantomimika), his-tuygularini (emotsiyasini) boshqara olish, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ishlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntirishda dasturamal bo'lib xizmat ko'rsatadi. Demak, pedagogik texnika shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisidirki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quvchi – yoshlarga ta'sir ko'rsatish, tashkil qilish va boshqarishda asosiy amil bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday malakalardan iborat?

U o'qituvchining o'quv ishlarini tashkil qilish, amalga oshirish va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday rol o'ynaydi?

Ilg'or va novator pedagoglarning ish tajribalarini kuzatish ilg'or tajriba maktablari faoliyatini o'rganish shundan dalolat berib boshladi pedagogik texnikani to'liq egallash, uning malakalarini

o'zida shakllantirish ta'lim – tarbiya samaradorligini oshirishga, o'quvchi-yoshlar tarbiyalanganligini yuksaltirishga va shu asosda pedagogik mahorat pillapoyalari sari ko'tarilishga sabab bo'ladi. O'qituvchining pedagogik faoliyat madaniyati tizimida pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari pedagogik texnika, pedagogik odob, pedagogik muloqot madaniyatining roli katta ekanligi e'tirof etilgan. Mazkur muammoni ham pedagogik, ham psixologik jihatdan ilmiy – nazariy, uslubiy – tashkiliy hamda amaliy jihatdan tadqiq qilgan YU.P.Gonobolin, N.V.Kuzmina, A.N.Sherbakov, V.A.Selastenin, L.I.Ruvinskiy, V.N.Kuxarev, I.A.Zyazyun N.N. Tarasevich, M.G.Davletshin, K.Zaripov S.Rajabova, B.Xo'jaev va boshqalar o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida pedagogik texnikaning muhim ahamiyat kasb etishini alohida e'tibor bilan qayd qiladilar.

L.I.Ruvinskiy o'qituvchining pedagogik mahorati tizimida pedagogik texnikaning alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd qilgan ekan, shunday yozadi:

“O'qituvchining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi”

N.N. Tarasevich esa o'zining “Pedagogicheskaya texnika – kak element» nomli risolasida pedagogik texnika to'g'risida fikr yuritgan ekan, shunday deydi: O'qituvchi faoliyatining ichki va tashqi ko'rinishlarini izohlaydigan usullar, hissiyotlar, psixik holatlar yig'indisidan iborat mahorat – pedagogik texnikadir”.

Darhaqiqat usta pedagogik topshiriqlarni oliy darajada bajaradigan pedagoglar faoliyatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar bilish faoliyatlarini tashkil etish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda pedagogik texnika muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilish his-tuyg'ulari (emotsiyasi) ni boshqara olish, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va ularni o'quv faoliyatida, ishlash jarayonida qo'llash yo'llarini o'rgatadi.

Shunday qilib, pedagogik texnika ma'lum kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisidirki, u o'qituvchining pedagogik faoliyati jarayonida ta'sir ko'rsatish, o'quv – tarbiya ishlarini tashkil qilish va boshqarishda etakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik mahorat nazariyasini o'rganuvchi va tadqiq qiluvchi olimlar

(L.I. Tarasevich, N.V. Kuxarev)ning fikrlaricha pedagogik texnika malakalari ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh malakalariga pedagogning nutq texnikasi o'z harakatlarini idora qilishi, mimik va pantomimik ifodalari, o'z hissiyoti, hamda kayfiyatini boshqarishi, aktyorlik va rejissyorlik mahorati kabilar kiradi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruhidagi malakalari faollikor malakalaridan iborat bo'lib, ularga gnostik malakalar, loyihalovchi malakalar, konstruktiv (jamoaning ijodiy ishlarini tashkil eta olishi, o'quvchi – talabalarni tarbiyalash, o'qitishdagi faollik) malakalari kiradi. Buni 1-jadvalda ko'rish mumkin:

Pedagogik texnika malakalari

Pedagogning shaxsiy-kasbiy malakalari Pedagogning faollikor malakalari

1. O'qituvchining nutq texnikasi
2. O'qituvchi faoliyatidagi mimik va pantomimik ifodalar
3. O'qituvchining aktyorlik va rejissyorlik malakalari
4. O'qituvchining o'z hissiyotini boshqara olishi
1. Gnostik malakalar:
 - muhim va asosiy masalani ajratish;
 - o'quv materialini tuzimlashtirish;
 - qo'shimcha manbani aniq belgilash;
 - mavzuga doir didaktik materialni tanlay olish; – dalillar to'plama olish;
2. Loyihalovchi malakalar:
 - o'quv ma'lumotini aniq bayon etishni rejalashtira olish;
 - savol-javob topshiriqlarini to'g'ri tuza olish;
 - talabchi xarakteridagi masalani tuza olish va kuzatish;

farazlarni qo'ya olish.

3. Konstruktiv malakalar:

- fikrni mustaqil ifodalashga o'rgata olish;
- javobni asoslash va dalillashga o'rgata olish;
- nazariy va amaliy ma'lumotni bog'lashga o'rgata olish.

Jadvalda keltirilgan pedagogik texnikaning malakalari o'quvchilar o'quv biluv faoliyatini tashkil etish va ma'lumotlarni o'zlashtirishga aniq yo'llash, topshiriqlarni aniq qo'llash va nazorat qilish, jamoa va ayrim shaxslar bilan ishchi munosabatda bo'la olish, savollar qo'ya bilish, o'z kayfiyati, hatti-harakati, emotsiyasini boshqara olish kabi usullardan o'rinli foydalanishda amaliy yordam ko'rsatishidan dalolat bermoqda. CHunonchi, texnika – usullar yig'indisi bo'lgani kabi, pedagogik texnika ham o'qishni o'rgatish, ta'sir ko'rsatish, o'rganish, munosabat bildirishning ta'lim va tarbiya usullari yig'indisidir.

Endi, o'qituvchi pedagogik texnikasi malakalarining qisqacha tavsifnomasi bilan tanishib chiqamiz.

I. O'qituvchi pedagogik texnikasining muhim malakalaridan biri uning nutq texnikasi. (Nutq tempi, diksiyasi, (tovushning baland, o'rta, past qila olishi) nutq tembridir.

Ma'lumki, insonlar hayotida nutq katta ahamiyatga ega. Buni barcha biladi va u har bir kishiga aloqa uchun zarur. Nutq kishilarning bir-birlariga ta'sir etishning qudratli vositasi sifatida insonni ishontirishi, mehnatga, g'alabaga chorlashi, yomon yo'ldan qaytarishi, quvontirishi yoki jahlini chiqarish va hatto o'ldirishi ham mumkin.

O'qituvchi faoliyatida ham nutq juda muhim ahamiyat kasb etib, u ta'limiy – tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi. O'quvchilar o'qituvchi nutqi orqali bilim, fikr, ishonchga ega bo'lادilar. Muayyan his – tuyg'ularni tushunib, o'z faoliyatlarini shu nutqda bayon ettirganlari asosida tashkil etadilar. Nutqning fiziologik asoslari I.P.Pavlov tomonidan izohlab berilganligi sababli ham biz sezgilarimiz, idrokimiz va tasavvurimizni atrofimizdagi tashqi dunyoning birinchi signallari deb bilamiz; nutq va tafakkur esa,

ikkinchi signal sistemasini tashkil etadi. So'z voqelikdagi narsa va hodisalarni idrok qilish, ular to'g'risida tasavvurlar hosil qilishdan iborat bo'lgan bevosita signallarning signalidir.

Shunda, – deb yozadi I.P.Pavlov, – talaffuz etiladigan, e'tiladigan va ko'rinadigan so'z sifatida ikkinchi darajali signallar paydo bo'ldi, taraqqiy etdi va takomillashdi. Bu yangi signallar avtomatik borib-borib insonlar tashqi va o'z ichki dunyosidan to'vonta qabul qiladigan, butun taassurotlarni belgilaydigan bo'lib qoldi.

Bilamizki, o'zgalarga qaratilgan nutq og'zaki va yozma bo'lishi mumkin. Nutqning bu ikkala ko'rinishi bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Ba'zan og'zaki nutqni yaxshi o'zlashtira olgan odam o'z fikrini yozma nutqda yomon bayon etishi yoki aksincha yozma nutqni yaxshi egallagan odam fikrini og'zaki nutqda aniq bayon eta olmasligi ham mumkin. O'qituvchining nutqi o'quvchilarga ma'lumotlarni qanday tarzda o'qitilishi bilan xarakterlanadi, shuning uchun u boshqa nutqlar kabi ta'riflanmaydi. Ammo, faqat pedagogga xos nutqgina muayyan belgilarga ega bo'lishi mumkin. SHuning uchun ham har bir odam nutqning o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

O'qituvchilarning o'quvchilarga o'quv materiallarini taqdim etishi, ular bilan suhbatlar olib borishiga qarab quyidagi xususiyatlarni ko'rsatish mumkin:

Taqdimning ko'rsatishicha o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi asosiy rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha o'quv materialining 1/2 foizi o'qituvchi nutqining to'g'ri talaffuz qilishi orqali idrok qilinadi va o'zlashtiriladi. O'quvchilar o'qituvchining taqdim etgan nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik bilan kuzatadilar.

Mabodo, o'qituvchi so'zlarni noto'g'ri talaffuz etsa, o'quvchilar uning ustidan kulib, masxara qilib yuradilar. Ammo, past ovozda gapiradigan o'qituvchining darsi esa, o'quvchilar uchun hamma vaqt zerikarli bo'ladi.

Nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida gapirib o'tkazish, o'quvchilarni charchatadi va bezdiradi.

O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, fikr va his-tuyg'ularini so'zida aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning fikrlari o'quvchitalabalar ongiga tez etib boradi va o'quv materiallarini o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, o'quvchi-talabalar bunday o'qituvchilar darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. Darhaqiqat, suxandonlar Qodir Mahsumov, Mirzohid Rahimov,

O'ktam Jobirov, N.Qambarova, Sh.Qayumov, T.Isroilov, V.A.Kirilov, V.Levitanlarning xalq qalbidan o'rin olganliklarining boisi ham shunda. Shuning uchun, o'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinmay ishlashlari, so'zlarining chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapozonlari, kuchi, temбри, harakatchanligi, diksiyasini doimo tarbiyalab borishlari lozim.

Ovoz diapozoni deganda biz tovush hajmini tushunamiz. Uning chegarasi baland yoki past, gapirishi tovishning tez yoki sekinligi bilan belgilanadi. Diapozonning qisqarishi tovushning past tonliligiga olib keladi. Past ohangda so'zlashish idrokni bo'shashtiradi va susaytiradi.

Tembr-tovushning go'zalligi, tiniqligi va chiroyliligidir. O'qituvchi tovush diapozonini, uning temбри bilan bog'lab ishlatib, gaplari chiroyli, aniq, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni o'ziga tortadi, oqibatda o'quv materiallari o'quvchilar tomonidan yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining ovoz diksiyasi esa nutqida so'zlari aniq, to'g'ri, eshitarli va tushunarli bayon qilishi bilan ifodalanadi. To'g'ri ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni aniq, to'g'ri va ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim.

O'qituvchining nutqi muayyan mazmunga ega bo'lganligi sababli bolalarning his – tuyg'ularni uyg'otibgina qolmay, balki

nutq to'g'ri ifodalash, so'zlarni aniq, burro talaffuz qilishi bilan ham ta'sirchan bo'ladi. Lekin eng muhimi, bayon etiladigan ma'lumotga o'qituvchining o'zi yaxshi qiziqishi va uning o'zida ham samimiy his-tuyg'u hosil bo'lishi kerak. Tajribali bir maktab rahbari yosh o'qituvchilarga: "O'quvchilarga tarixiy voqealarni shunday hikoya qilinki, qattiq ta'sirlanganingiz bilinib tursun. Birinchi sayohat haqida shunday kayfiyat bilan gapiringki, bu sayohatda o'zingiz ham ishtirok etgandek tuyulsin", deyishi bejiz emas edi.

Ayrim o'qituvchilarda esa nutq ancha ohista, ta'sirsiz, kam ifodali, qat'iy izchillikka rioya qilinmagan holda, dalilsiz va muvofiqlashtirilgan bo'ladi. Bunday nutqda bayon qilingan o'quv ma'lumoti o'quvchilar tomonidan past va bo'sh o'zlashtiriladi, uning mahiyatini ta'siri ham sust bo'ladi.

O'quvchiga materiallarni aniq, to'g'ri, tushunarli, ifodali bayon qilishda ovoz ritmi ham muhim ahamiyat kashf etadi. Fozatshilarning shundan dalolat bermoqdaki, ruslar bir daqiqada 120, inglizlar 120 dan 150 gacha, fransuzlar 110 so'zni talaffuz qiladik. O'rtaacha, hammaga tushunarli bo'lishi va ma'lumotlar to'liq o'zlashtirilishi uchun o'qituvchi 5-6 sinflarda 60 so'zni, 7-9 sinflarda 75-80 so'zni talaffuz etsa talabga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi nutqini lo'nda, aniq, puxta, chiroyli bayon etsa, u tinglovchilarga shuncha tushunarli bo'ladi va ular xotirasida uzoq saqlanadi.

Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kasb etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, mahiyati, ovoz kuchi, diapozoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik texnikaning verbal va noverbal vositasi o'qituvchining kommunikativ qobiliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining faoliyatida eng muhim narsa bu uning nutqi va o'quvchilar bilan muloqatidir. Nutq bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy muloqatda birinchi – bir mahiyatni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi.

Odamlar munosabatiga aloqa bog'lovchilarning xis-hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan bo'ladi. U kommunikatsiyaning mazmunini hisoblanganligini narsaga ham munosabatga kirishganlarga nisbatan muayyan tarzda taalluqli bo'lib, nutqiy fikr-mulohazalari bilan qo'shilgan bo'lib, yuzaga chiqadigan bu xis-xayajonli munosabatlar axborot ayriboshlashning alohida, nutqsiz jihat, o'zgacha nutqsiz kommunikatsiya tarkib topadi. Nutqsiz kommunikatsiya vositalariga noverbal ya'ni qo'l, barmoq va yuz harakatlari, imo-ishora, ohang, pauza, turq-tarovat, kulgu, ko'z yosh qilish va shu kabilar kiradi.

Og'zaki nutq kommunikatsiyasi verbal bo'lib, uning ta'sirini kuchaytirishda munosabatga kiruvchilarning fazoga joylashuvi muhim ahamiyatga egadir. Sira o'ylanmasdan tashlangan luqma kommunikatorning retsipientiga munosabatni aniq ifodalaydi. Ta'limning ba'zi turlarida o'qituvchi o'quvchilarni sinfda qabul qilinganidek bir-birining orqasidan emas, balki doira shaklida, bir-biriga yuzma-yuz o'tkazilganini afzal ko'radi. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari: o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dir.

Pedagog malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir o'qituvchiga xos shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh bilan yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi mumkin. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotni mustaqil o'qishda egallanishi mumkin.

7-Mavzu

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash

Mavzu rejas:

1. Tarbiyaviy faoliyatda pedagogik mahoratning o'rni va roli.
2. Milliy tarbiyani amalga oshirishda pedagogik mahoratning ahamiyati bo'lishi

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim – tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zaminida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar tomonidan faoliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

O'QITUVCHI FAOLIYATINING TUZILISHI

O'qituvchi faoliyatining maqsadi

O'qituvchi faoliyatining ob'ekti va sub'ekti

O'qituvchi faoliyatining vositasi

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. O'qituvchilarning faoliyati **pedagogik jarayonning harakat vositasidir**. Pedagogik jarayonning ob'ektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning sub'ektlari - ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. O'qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi.

O'qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Mazkur fanning mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni echish uchun o'quv – tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik-psixologik ta'limot nuqtai – nazaridan yondashish, ta'lim – tarbiyani milliy an'analarimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o'quv – tarbiyaviy jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun o'qituvchi mahoratining zarurligi haqidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o'rin olgan.

Shunga ko'ra, «Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq

malomiyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi.

Pedagogik mahoratni egallash vositalari

O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etadigan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnatilgan bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, etuk o'qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining qimmatli hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatlari, o'rta osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalar, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi. Yosh o'qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator qadrlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi vositalar asosida yanada rivojlantirish mumkin:

1. Mustaqil o'qib-o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan eng so'nggi yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot o'rinlari chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan tajribalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

2. Tajribali ustoz o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt va iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan o'qituvchi malomotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. O'qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalarni oshirib borish.

4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish.

5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning etakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro'-e'tiborini oshiradi, o'quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida yosh o'qituvchilarning kasbiy mahorati, bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida qizg'in faoliyat olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hamda osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Ta'lim sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasi doirasida respublika hududlarida masofadan o'qitishning "ta'lim-resurs" markazlari

tashkil etilgan. Ushbu faoliyat natijasida yosh o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda kasbiy malakalarini oshirish imkoniyati topildi. Maktablarga yosh o'qituvchilarni jalb etish va ularga har tomonlama amaliy yordam berish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilmiy va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish maqsadida 2009 yildan boshlab "respublika yosh o'qituvchilar assotsiatsiyasi" o'z faoliyatini boshladi.

Mustaqillikka erishgach, birinchi prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan 1 oktyabr – o'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Mamlakatimizda an'anaviy ravishda "yilning eng yaxshi pedagogi" respublika ko'rik-tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar orasidan ilg'or va tashabbuskor o'qituvchilar aniqlanib rag'batlantirilishi, yosh o'qituvchilarda o'z kasbiga nisbatan hurmat va ehtirom uyg'otadi. 2006 yildan boshlab esa, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. "Yil maktabi" – Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni targ'ib etish uchun sharoit yaratmoqda.

Shuningdek, mustaqillik yillarida Respublika xalq ta'limi tizimidagi 3425 nafar o'qituvchi va murabbiylar pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritganlari va fidokorona mehnatlari uchun turli davlat mukofotlari va unvonlari bilan taqdirlandilar.

XXI asr bolasini o'qitish va tarbiyalash, ularni barkamol inson va yetuk malakali mutaxassis kadrlar darajasiga etkazish vazifasini faqat yuksak tajribaga ega XXI asr o'qituvchisigina uddalay oladi.

Bu maqsad bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.

2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik fanidoshlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, o'qituvchilik mahorati, ta'lim jarayonini boshqarish, nutq

madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.

3. Bo'lajak o'qituvchilar milliy urf-odat va an'alarimizda va O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.

4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.

5. O'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar.

6. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.

7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar uzluksiz ma'lumotlarni o'rganib boradilar.

8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o'qituvchilar va tarbiyachilarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi, hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi.

"Pedagogik mahorat" tushunchasi

Xo'sh pedagogik mahoratning o'zi nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan quyidagicha ta'rif beriladi:

Pedagogik mahorat – o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, savitsohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va h.k.) faxrlatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, insonparvarlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Pashenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: "pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy-etik munosabatda bo'lishi, o'z fikr mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi".

Mahorat faoliyatda namoyon bo'ladi. Pedagogika fanida "Pedagogik mahorat" tushunchasining turli ta'riflari mavjud:

– pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo'lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo'ladi. (N.V.Kuzmina, N.V.Kusarev);

– "o'qituvchining ilmiy bilimlari, ko'nikmalari, metodik mahorati va shaxsiy fazilatlarini sintezi" (A.I.Sherbakov);

– "pedagogik faoliyatni egallanganlikning yuqori darajasi, ixtisoslikka doir bilim, ko'nikma va malakalar hamda kasbiy ahamiyatli sifatlar majmui" (Pedagogik lug'at);

– "kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini

ta'minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o'qituvchi faoliyatining gumanistik yo'naltirilgani, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlari va pedagogik texnikasi" (I.A.Zyazyun);

- "pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi" (I.P. Rachenko).

- pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi (N.N.Azizxo'jaeva);

- "pedagogik mahorat – o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir" (A.Xoliqov);

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, "Pedagogik mahorat" tushunchasiga quyidagi tarzda umumlashgan ta'rifni berish mumkin:

Pedagogik mahorat – bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari

Mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi ilk qadamlaridan o'qib buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida

jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida ta'lim tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Ta'lim tizimidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy prinsiplari belgilab berilgan:

- Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

- Ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

- Umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ehtiyojligi;

- Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

- Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma tomon ochiqqligi;

- Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

- Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;

- Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ushbu prinsiplar zamidra o'qituvchi pedagogik faoliyatining asosiy mohiyati mujassamlangan bo'lib, uni hayotga tatbiq etish o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan. O'qituvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlovchi asosiy javobgar shaxs ekan, uning pedagogik mahorati ham hozirgi zamon talablari darajasida, jahon andozalariga mos ravishda shakllanishi kerak. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasbiy sifatlarini takomillashtirishni qo'llab-quvvatlash ta'mintanadi. Ushbu talablar zamidra ham o'qituvchining pedagogik mahoratini uzluksiz takomillashtirib borish naqadar muhim va davr talabi ekanligi ta'kidlanmoqda. Shunday ekan, "Pedagogik mahorat" tushunchasining vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanish va

islohotlarni insonparvarlik va demokratik tamoyillarga moslab olib borish;

- ta'lim mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda boyitib borishni ta'minlash;

- bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan dunyoqarashini rivojlantirishda milliy urf-odat va an'analrimizdan, boy adabiy merosimizdan samarali foydalanishning tezkor metod va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va tarbiya jarayonini kelgusida o'qituvchilardan talab qiladigan darajada sifatini va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlash uchun normativ hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar, moddiy-texnika va axborot bazasi bilan boyitib borish;

- bo'lajak o'qituvchilarning yuksak kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilimi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirib borish;

- bo'lajak o'qituvchilarni yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarishga o'rgatish.

Pedagogik mahoratni egallashda kasbga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallash, pedagogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo'lish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: *"O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmogi lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek,*

kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi".

Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur'atda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan tarqalavda o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro'y berayotgan yirik kashfiyot qariyb o'n besh yillik samarali va kishi bo'lgan ishonadigan voqea hisoblangan bo'lsa, hozir har yili, hatto bir oyda fan, texnika sohasida yangi kashfiyotlar yaratilmoqda, bilimlarning ilgari noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqda. Kishilarda bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada oshib borayotir. SHuning uchun hozir kunda o'qituvchi faqat o'z fanini bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalardagi yangiliklarni bilishi talab etiladi.

Bizga ma'lumki, ilg'or jamiyat fuqarosining, xususan o'qituvchining ma'naviy boyligi uning keng dunyoqarashi, teran fikrlash layoqati, savodxonligi, yuksak insoniy fazilatlarga boyligi bilan baholanadi. *"Barcha illatlarning kelib chiqishi ilmiy fikrdandir"* degan edi yunon faylasufi Sokrat. SHunday ekan, yosh avlodning yuksak bilim va tafakkur sohibi bo'lishi uchun barchamiz javobgarmiz. Bu javobgarlik ko'proq o'qituvchilar zimmasida.

Darhaqiqat, o'qituvchilarning obro'-e'tiborini ta'minlaydigan bir vosita uning **tarbiyalanganlik darajasidir**. Birinchidan, o'qituvchi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlar va millatimizning buyuk aymolari ijodiy merosini teran bilishlari kerak. Binobarin, o'z ta'lim mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borib, allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda ma'naviy tafakkurga ega bo'lishi lozim. Bu o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy an'analrimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo'lmish yosh avlodga sifatli bilim berish o'qituvchilardan yuksak qobiliyatni va

ishchanlikni talab qiladi.

O'qituvchilik kasbining shakllanishi davomida uning pedagogik mahorati takomillashib boradi. U har xil psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. Turli ziddiyatlarga duch keladi. Bu o'z navbatida unitinimsiz ijod qilishga, tarbiyaning har xil vosita va usullarini topib, mohirona qo'llashga majbur etadi. Tarbiya natijasida belgilangan maqsadga erishish uchun o'qituvchilar yillar davomida yig'ilgan tajriba va malakalariga tayanib ishlaydilar. O'quvchilarning nazariy hamda amaliy faoliyatida erishadigan barcha yutuqlari va ijobiy natijalari o'qituvchi pedagogik mahoratini namoyon etuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. O'qituvchi pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini bilishi, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Quyida keltirilayotgan pedagogik mahorat fanining asosiy **tarkibiy qismlari** milliy an'ana va urf-odatlarimizdan kelib chiqib, hozirgi global rivojlanish davrida yanada to'ldirilib borilishi mumkin.

8-Mavzu

Ho'lujak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash.

Mavzu rejası:

1. O'qituvchilar milliy tarbiyaviy faoliyat targ'ibotchisi sifatida.

2. Ho'lujak o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga zarur kasbiy kompetentsiyalari.

3. Sinf rahbarlariga milliy tarbiyani amalga oshirish uchun zarur shaxsiy va kasbiy sifatlar.

O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli shoya so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim. Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rin bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan holi bo'lishi. – O'qituvchi eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud muammolarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak. Unda qoladigan talablardan kelib chiqib, zamonaviy pedagog yuksak madaniyati, notiq, o'quvchilarni sevuvchi, mehribon, ijodkor, o'z fanini chuqur biluvchi, psixolog, zamonaviy texnikalardan foydalana oluvchi, qobiliyatli shaxs bo'lishi kerak.

O'qituvchi bola qalbining injeneridir. O'qituvchi tarbiyachi sifatida quyidagi talablarni bilishi lozim:

O'qituvchi kasbiga oid faoliyat	O'z kasbiy mahorat elementini hosil qilish	O'quvchilar guruhi bilan ishlay olish

Shaxsiy xususiyatlarning o'qituvchi mehnatiga ta'siriga doir Assisment metodi

Test. Hozirgi zamon ilmiy nazariy va metodologik tizimlariga tayangan holda ta'kidlash joizki, o'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi hamda ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan muhim yo'nalishlaridan biri o'qituvchining.... A.Ob'ektiv- shaxsiy xususiyatlari. V.Kasbiy xususiyatlari. S.Shaxsiy va kasbiy xususiyatlari.	O'qituvchining kasbiy mahoratini aniqlashga doir muammoli vaziyat. Sinf o'quvchilaridan biri doim ertalab darsga kechikib keladi. Bunga odatlanib qolish yomon ekanligi qanchalik tushuntirilmasin, u bu odatini tashlamadi.
Simptom O'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi, uning sifat va samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar: O'qituvchining pedagogik texnikasi:	Amaliy ko'nikma O'qituvchi kasbiy mahoratini asosini tashkil etuvchi komponentlar:...

Quyidagi fikrlar bilan tarnishing va nuqtalar o'rniga mos jumalarni qo'ying.

Jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni

bunchalik qayd qilib boradi.

Jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan «metapozitsiya» (noaniq pozitsiyada)da turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari aniqlashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi, refleksiv – «MEN» shakllanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liq.

Jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy «MEN» va ideal «MEN» nisbatlanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

Jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati davomida talqinlanadigan pedagogik mahorati, refleksiyalangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijalarida tubdan optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarning o'sishi sodir bo'ladi.

O'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z – o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi darajasi boshlanishini nazarda tutadi. **(o'qituvchi javobi)**

O'z-o'zini bilish jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni bunchalik qayd qilib boradi.

O'z-o'zini anglash jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan «metapozitsiya» (noaniq pozitsiyada)da turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib

chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi, refleksiv – «MEN» shakllanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liq.

O'z – o'zini aniqlashtirish jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy «MEN» va ideal «MEN» nisbatlanadi. Bu o'qituvchining eng yaqin rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

O'z – o'zini rivojlantirish jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksiyalangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarining o'sishi sodir bo'ladi.

O'z – o'zini nazorat qilish o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z – o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

F (Fikringizni bayon eting).
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating).
M (Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
U (Fikringizni umumlashtiring).

FSMU jadvali

O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi bo'yicha FSMU jadvalini to'ldiring

Jadvalni to'ldiring va tahlil qiling:

Pedagogik muloqotda muomala madaniyati	O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati
...	...
...	...
...	...

Quyidagi "Insert" jadvalini to'ldiring

(+) Men bilgan ma'lumotlarga mos	(-) Men bilgan ma'lumotlarga zid	(V) Men uchun yangi ma'lumot	(?) Men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash

Savol va topshiriqlar

1. O'qituvchilar faoliyatda milliy tarbiya shakllanishiga misollar keltiring.

2. Do'lajak o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga qanday kasbiy kompetentsiyalari mavjud, ular asosida Venn diagrammasi tayyorlang.

3. Sinf rahbarlariga milliy tarbiyani amalga oshirish uchun qanday zaruriy shaxsiy va kasbiy sifatlarini bilasiz?.

9-Mavzu

Ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari

Mavzu rejasi:

1. Ta'limning milliy tarbiyaviy mazmuni.
2. Milliy tarbiya mazmunining qadriyatlar, an'analarda aks etishi.
3. Tarbiya darsliklarida milliy tarbiya g'oyalarining sindirilganligi.

Dunyo hamjamiyatida yoshlar tarbiyasi, ularni hayotga tayyorlash, kasb tanlashga o'rgatish, ularda zamonaviy tendensiyalarga moslasha olish ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalar doim dolzarbligi va ahamiyatini yo'qatmaydi. Bu muammoni o'z o'rnida bartaraf etishda milliy tarbiya va sharqona qadriyatlarning o'rnini beqiyosdir. Davlatimiz sobit qadamlar bilan o'z taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Bu yo'l – milliy xususiyatlar, qadriyatlarni tiklash, saqlash, rivojlantirish, milliy g'ururimizni uyg'otish, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mafkura negizida kamolotga erishish yo'lidir.

Milliy tarbiya O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Bu maqsadga erishishning o'ziga xos nazariy muammolari bor. Shulardan biri – milliy tarbiya nazariyasining asosiy qoidalari va ilmiy tushunchalari yaratilmaganligidir. Ikkinchi muammo – «O'zbekiston mustaqilligini amalga oshirishga, mustahkamlashga tayyor farzandlar qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?» degan savolga aniq tajribada asoslangan javoblar olish masalasidir. Bularning barchasi O'zbekiston maktablarida milliy tarbiyaning mezonlarini ilmiy asoslash zaruratini vujudga keltirmoqda. O'zbekiston maktablari o'quvchilarini milliy tarbiyalash mezonlari mustaqillik tufayli yanada dolzarb ahamiyat kasb etgan shaxsning milliyligiga bevosita aloqador bo'lgan fazilatlarini singdirish tamoyilidan kelib

chiqib belgilanadi. Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda mustakil

O'zbekistonning ijtimoiy buyurtmasi bulmish ijobiy sifatlar: milliy iftixor, vatanparvarlik, millatlararo mulokot madaniyati, milliy odob, vijdoniylik, iymon-e'tiqod, milliy istiklol mafkuraviy ongini rivojlantirish zarur. Ularning aksi bo'lgan salbiy sifatlar: milliy befarqlik, vatanfurushlik, xoinlik, manqurtlik, millatchilik, mahalliychilik, vijdensizlik, mafkurasizlik kabilarga nafaqat uyqotish darkor. Bu ishlarni bir-biri bilan uzviy boglab olib borish o'quvchi tarbiyachi tomonidan maxsus mezon qilib olinishi kerak. Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda o'quvchilarning yosh, milliy imkoniyatlarini e'tiborga olinadi. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchisining milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari va mezonlari quyiday bo'lishini taxminiy namunasini keltiramiz.

O'zbekiston – Vatanim mening. O'zbekistonning tabiiy, ma'naviy, jurg'rofiy va milliy xususiyatini anglash; o'lkaning o'tmishini, hozirgi hayot va kelajagi haqida tushunchalarga ega bo'lish. O'zbekistonning, o'zbek xalqining qahramon farzandlari shahmatlarini bilish; O'zbekiston Davlat ramzlarini bilish. Milliy p'nni asoslari. O'zining o'zbek millatiga mansubligini anglash; «O'zbek xalqi» tushunchasining madaniy mohiyatini tushunish, o'z o'z millatining farzandi deb bilib, milliy burchlarini anglash; o'z tilini cheksiz sevis, shu tilda tug'ri so'zlash va fikrlash. Milliy o'lad. Avval salomlashib, keyin so'z boshlash; o'zbek xalqida «yaxshis», «yomon» deb baholanuvchi xulq namunalarini bilish, farqlarni e'tizalash, o'zidan katta va kichiklarni izzatlash, do'stlik farqlarini bilish; ustozlarni e'zozlash munosabati, uyat so'z, o'zini o'ziga, odobsizlikka salbiy munosabat bildirish.

Vijdoniylik. Biror ishga qo'l urishdan avval «Bu ishimga qandalar nima deyisharkan?» degan mulohaza va andishaga borish, o'ziga'ylik, yaxshi xulq va yomon xulqning farqlarini tushunish, yaxshi xulqqa ijobiy, yomon xulqqa salbiy munosabatini bildirish, farqlardagi gapni ochiq aytishga o'rganish. Tarixning guvohlik beradigan, bir bir xalq va millat o'zlarining eng ibtidoiy davridan, o'z o'ziga'ylik davridan boshlab, o'zligini namoyon qilishiga,

milliyligini saqlab qolishga va uni tobora rivojlantirib borishga harakat qilib kelganlar. Tarbiyaning bunday ko'rinishlari va uning o'ziga xos shakllari xilma-xildir.

Shu o'rinda milliy qahramon Spitamenning vatanparvarlik yo'lida olib borgan mardonavor kurashlar yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Ilm-fan mo'jizalar yaratgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Axmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqa ko'plab ajdodlarimiz qaysi zaminda yashamasin, qaysi tilda asarlar yaratmasin, o'z elini, urfodatlarini unutnaganlar, doimo «O'zbek» degan nomni ulug'laganlar. Milliy an'analarni o'rganishda Maxmud Qoshg'ariy va Yusuf Xos Xojib singari mashhur siymolar xizmatlari ham beqiyosdir. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulg'azi Baxodirxon, Nodirabegim, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi yorqin siymolarning sa'y-harakatlarini aytmaydizmi?! Haqiqatan ham, bu davr el-yurt tarixini, madaniyatini va san'atini o'rganishning oltin davrini tashkil etadi. Urf-odatlar, marosim va udumlar o'z-o'zicha boshqa xalqlar ma'naviyatidan ayricha taraqqiy etmagan qardosh-yaqin, qirg'iz, turkman, tojik va ozarbayjon xalqlarining ta'sirida yaratilgan, taraqqiy topgan. Tarbiya metodlari (usullari) – o'qituvchi- tarbiyachining oquvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobiy xulq-atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llaridir.

Aniqrog'i, tarbiya usuli deb tarbiyachining bolalarda axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish ta'sir etish yo'llariga aytiladi. Tarbiya usullari tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgandir. O'z-o'zini tarbiyalash bolaning doimiy ishi bo'lmog'i va uzluksiz davom etmog'i zarur. Chunki haqiqiy tarbiya bolani o'z kuch, layoqatlari va qobiliyatini ishga solishga undaydi, uning ideallarini, shaxsiy mulohazalarini, e'tiqodlarini tarkib toptiradi. Natijada bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayon o'z

o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi.

Tarbiyaviy usullarni ularning vazifasiga qarab quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin: Ijtimoiy axloqni tarkib toptirish va o'quvchilar faoliyatini yo'lga qo'yish usullari: o'rgatish ibrat-namuna, ishonitirish, o'yin, musobaqalar. Bular yordamida o'quvchida axloqiy odatlar hosil bo'ladi. O'quvchilarning xulqida tarbiyaviy mazmunga muvofiq axloqiy nafosat, mehnat qilish odatlari qator topib boradi. Bunday odatlar asosan faoliyat zaminida topib topadi.

Demak, bola shaxsini ifodalaydigan ijtimoiy xulq odatlarini hosil qilish uchun uni faoliyatga jalb etish yo'li bilan ijtimoiy aloqalar sharoitiga qo'yamiz va uning shaxsiy xususiyatlarini belgilaydigan odatlar hosil qilamiz. Bu guruh usullariga vazifalar bir-birdan farq qiladigan juda ko'p yo'l va vositalar kiradi. Masalan, o'quvchiga sharoitda urf-odat, tarbiyani o'rgatish, mashq qildirish, ibrat namuna, talab etish ishonitirish, o'yin, jamoatchilik fikridan foydalanish shular jumlasidandir. O'rgatish usuli o'quvchilarning hayotini, mehnatini, dam olishlarini batafsil o'ylab chiqqan holda taqlid etishni hamda dastlabki axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularni muomala- munosabat, yurish-turish odatiga o'rgatib borishni nazarda tutadi.

Bolalar tarbiyasida ibrat-namunaning ahamiyati kattadir. Namuna yoki ibrat usuli bolalardagi taqlidchanlikka asoslanadi, taqlid boshqalarning xulq-atvorini, yurishturishini ongli yoki betiyor ravishda takrorlash demakdir. Odatda bolalar o'zlarining qo'polari, tovarak-atrofdagi kishilarning (ota-onalari, opa-akalari, amallonlari, kattalar, tengqurlari) xulq-atvorini va hatti-harakatlarini ko'rib boradilar, ularga taqlid qiladilar. Lekin ko'pincha bularning namuni yaxshi-yu, nimasi yomon ekanini farqlay olmaydilar, ular o'zlarini uchun ma'qul bo'lganlariga taqlid etadilar va qabul qiladilar. Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirish uchun zarur bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Mehnat – inson va baxtli hayot kechirishning eng asosiy sharti bo'lganligi taqlid namuna fuqarolar uchun majburiydir. Mehnat odamlarning

biror maqsad uchun sarflagan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashamoq mumkin emas.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlari sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazinalar – ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi san'at asarlari, me'morchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mahsulidir. Jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo'shgan al-Xorazmiy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur singari bobokalonlarimiz mehnatsevarliklari tufayli ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishgan va yoshlarni ham mehnatni sevishtirgan, mehnatsevar bo'lishga chaqirishgan. Shu boisdan jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi o'zbek maqollarida ham mehnat va mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. «Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz rohat», «Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan», «Oltin o'tda chiniqar, odam – mehnatda», Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli izzatu hurmat ko'rgan har bir ota-ona o'z farzandlarining ham halol mehnat bilan yashashini, mehnati bilan el-yurt oldida sharafla topishini xohlaydi. Har qanday yumush, jumladan, idish-tovoq yuvish, uy hovlilarni supurish, mol-xollarga qarash, tomorqa, qurilish, ta'mirlash ishlarida qatnashish ham mehnatdir.

Ota-onalar bolalarining kelajagini o'ylab, ularni ilkyoshlaridan mehnatga solib chiniqtirib boradilar. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham mehnatdir. Ota-onalar bolalarining mehnatiga hamma vaqt ham muhtoj bo'lavermaydilar, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmalaridagi burch ekanligidan shunday yo'l tutadilar.

Oilada ota-onalar o'z farzandlarining mehnatsevar, tejamkor va ehtiyotkor kishilar bo'lib yetishishlarida o'zlari namuna bo'lishlari kerak. Bu tarbiya ishlari uchun juda muhim omillardan sanaladi. Bolalarda mehnatga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj ancha barvaqt paydo bo'ladi. Maktabga kelgan o'g'il va qizlarda esa muayyan mehnat ko'nikmalari tarkib topgan bo'ladi. Bu

ko'nikmalar maktabdagi ta'lim [1-30] va tarbiya ta'sirida yanada mustahkamlanadi. O'quvchilarning jismoniy mehnatga nisbatan ijobiy munosabatlarini tarbiyalashda mehnat turlari va ilg'or mehnat kushilari haqida suhbatlar o'tkazish, ishlab chiqarish korxonalariga, zavod va fabrikalarga, dala, bog' va chorvachilik, parrandachilik fermalariga ekskursiyalar uyushtirish, mehnat ilg'orlari haqida ocherk va hikoyalardan o'qib berish; mehnatni ulug'lovchi ertak va maqollardan foydalanish; o'quvchilarning o'z ota-onalari kasbi, ularning ishlari haqida suhbatlar uyushtirish singari tadbirlardan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Ta'limning milliy tarbiyaviy mazmunini misollar asosida tahlil qiling.

2. Milliy tarbiya mazmunini qadriyatlar va an'analarda aks etishini bayon eting. 3. Tarbiya darsliklarida milliy tarbiya g'oyalarining sindirilganligini ta'riflang.

10-Mavzu

O'quvchilarning milliy tarbiyalanganliklarini diagnostika qilish

Mavzu rejasi:

1. Milliy tarbiyalanganlikni diagnostika qilish mazmuni

2. Milliy tarbiyalanganlikni diagnostika qilish texnologiyalari

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish va mustahkamlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, uning qonuniy zaminlari huquqiy asoslarini takomillashtirish fuqarolarning siyosiy-huquqiy faolligiga, onglilik, bilimdonlik darajasiga uzviy aloqadorlikdadir. Buning uchun O'zbekistonning har bir fuqarosi, eng avvalo, hayotimizning Asosiy qonuni — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning har bir moddasini puxta o'rganishi lozim. Konstitutsiyada inson huquqlarining davlat huquqidan ustuvorligi tamoyili qonun yo'li bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, Prezidentimiz tomonidan ta'kidlanganidek, fuqarolar manfaati ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Unda inson, uning hozirgi erki, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa huquq hamda erkinliklari muqaddas bo'lib, davlat himoyasida deyilgan. Yuqorida keltirilgan talab va vazifalarni amalda joriy qilish, asosan, ta'lim-tarbiya muassasalaridan boshlanadi. Ushbu ma'noda o'quvchilarda fuqarolik tarbiyasini shakllantirish uchun ularni o'tmish merosimiz va xalqimizning ming yillik qadriyatlari asosida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga fuqaro sifatida o'z xulq-atvori mazmunini tahlil qilish imkonini berish lozim. Ya'ni „Bugun xalq farovonligi taraqqiyoti uchun nima qila oldim?“ „Zimmamdagi burchni ado etdimmi?“ tarzidagi savollarga javob topishga o'rgatish kerak. O'quvchilarga o'qish, a'lo baholarga o'zlashtirish, o'z tafakkuri, qarashini shakllantirish, bolaga fuqarolik burchini ado etish mas'uliyatini tushuntirib berish zarur. Fidoyilik, intizomlilik, tashabbuskorlik, qat'iyat, matonat,

uyushqoqlik kabi xislatlar fuqarolik tarbiyasini olib borish jarayonida yuzaga keladi. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart-sharoitlar taqozo etiladi. Bular: 1. Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak. 2. Fuqarolik tarbiyasi jarayonining muvaffaqiyati o'quvchilar va o'qituvchilar jamiyatining saviyasiga bog'liq.

3. Tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo'lishiga erishish katta ahamiyat kasb etadi.

4. Oila, maktab va mahallalarda o'zaro hamkorlik va hamjihatlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. 5. O'quvchilarni axloqiy va huquqiy me'yorlarga hamda umumiy tartibga rioya qilishga o'rgatish va hokazo.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat-munozara, ma'ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollariga javob olish kabilar yuksak natijalarga olib keladi. Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda bolaning tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadda diagnostika (tashxis qo'yish), statistik, qiyosiy tahlilni o'tkazish lozim. Fuqarolik tarbiyasining tashkil etilishi natijasida tamol topgan fuqaro o'zida quyidagi sifatlarni namoyon eta olishi lozim:

- fuqarolik burchini bajara olishi (o'z vatani, xalqi, otanasini oldidagi qarzni his eta olishi) qobiliyatiga egalik;
- milliy g'urur va ma'rifatparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish;
- davlat Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti hamda davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya)ga nisbatan hurmatda bo'lish;
- mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mas'ullik;
- ijtimoiy-huquqiy hamda axloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo'lish;
- mamlakat milliy boyliklariga hurmat bilan qarash;
- milliy davlat tili, madaniyati va an'alariga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo'lish, ularni asrash;
- ijtimoiy faollik;

— demokratik tamoyillarga amal qilish;
— tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyatli munosabatda bo'lish; — fuqarolarning huquq va burchlarini hurmat qilish;

— huquqiy ong va fuqarolik madaniyatiga ega bo'lish;
— to'g'riso'z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo'lish;
— o'z faoliyati va xatti-harakatiga nisbatan mas'ulligi;
— baynalmilallik, o'zga mamlakatlar xalqlariga nisbatan hurmatda bo'lish va boshqalar. Milliy istiqlol mafkurasini mazmuni va mohiyati, demokratik huquqiy davlat qurishda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil borayotgan mustaqil O'zbekistonda fuqarolarning huquqiy bilimlari va huquqiy madaniyatlarini yuksaltirish g'oyat muhim va dolzarb ekanligi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Milliy istiqlol mafkurasida Vatanimizning rivojlanishi va istiqboli, mamlakatimizda keng ko'lamda o'tkazilayotgan iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizimini ma'naviy o'zgartirish sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning huquqiy ongi, bilimi va madaniyati darajasiga bog'liqligi alohida ta'kidlanadi.

11-Mavzu Maktabgacha ta'limda milliy tarbiya.

Mavzu rejasi:

1. Maktabgacha ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati va mazmuni.

2. MTM tarbiyalanuvchilarini milliy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ta'lim jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish, barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, uning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlarini kengaytirish, ularni zamonaviy pedagog tarbiyachilarning yangi avlodi bilan ta'minlash, zamonaviy ta'lim dasturlarini va texnologiyalarini tatbiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori qirrasini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasining uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Qarorni qabul qilishdan ko'zlangan maqsad yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat. O'zbekiston «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham

o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'yimoqda. Ushbu talablar doirasida ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Ushbu Konsepsiyaning V bobida Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish vazifalari ko'rsatib berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi:

1) Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining ushbu bosqichi o'z ichiga maktabgacha 3 — 6 (7) yoshli bolalarni qamrab oladi.

2) Ushbu bosqichda 3 — 7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan: - o'z tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishi; - o'z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko'nikmalarining yuzaga kelishi; - shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo'lishi; - ijtimoiy motivlar va milliy an'analarga qiziqishning paydo bo'lishi, o'zini namoyon qilishga intilish; - muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug'ilishi; - o'ziga o'zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma'naviy-axloqiy munosabatning paydo bo'lishi, - bola faoliyatining yetakchi turlari — muloqot, o'yinlar

madhiy ulotlar; - nutq va uning asosida ma'naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

3) Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga: - asosiy faoliyat turlari jarayonida o'zini o'zi anglashga o'rgatish; - muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasini o'zlashtirish; - o'zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o'rgatish; - faoliyat va syujetli-rolli o'yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash; - ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish; - kundalik turmushda zavqsizlik qoidalarini o'rgatish; - kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to'g'risida tushunchalar berish; - o'yin, o'zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish ehtiyojining paydo bo'lishi orqali karakter sifatlarini shakllantirib borish; - bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rgatiladi.

4) «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» asosida 3 — 6 (7) yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o'z tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg'otish, milliy an'analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan «Baxtli bola ma'naviyati» kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

5) Ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan hududiy o'quv treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

6) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtiruvchi «Ma'naviy tarbiya» respublika jamoatchilik kengashi tavsiyalari asosida O'zbekiston milliy tele- va radiokompaniyasi tizimidagi «Oilaviy», «Bolajon» telekanallari,

bolalar nashriyotlari va ommaviy axborot vositalarining faoliyatini «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» asosida takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

7) Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun tayyorlanadigan spektakllar, kuy-qo'shiq va raqslar, turli teatrlashtirilgan tomoshalar, sahna ko'rinishlari, milliy o'yinlar ssenariylarini ishlab chiqish.

8) Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar barcha maktabgacha ta'lim muassasalarini o'zbek milliy ertaklari, afsonaviy qahramonlar, buyuk bobolarimiz, qadimiy milliy me'morchilik obidalari, O'zbekiston tabiati, milliy Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash tartibi va ko'rgazmali namunalarini ishlab chiqish.

9) Bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo'yicha «Bola aziz, odobi undan aziz» mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida multimedia mahsulotlarini tayyorlash.

10) Barcha turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida «O'zbekiston — mening Vatanim!» tuyg'usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish. 11) O'g'il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g'urur, qat'iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan seriallar, milliy qo'g'irchoq va multiplikatsion filmlar yaratish, ularni telekanallarda praym-taym vaqtlarida namoyish etishni ta'minlash. 12) Tarbiyalanuvchilarda mainaviy tarbiyani yanada kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.

13) Bolalarda atrof muhit ozodaligi, shaxsiy gigiena, tabiatni asrabavaylashga qaratilgan ekologik tarbiya mazmunidagi «Ona tabiatni asraylik!» ruknida tarbiyaviy roliklar yaratish.

14) Bolalarda orzuga intilish, ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik, ichki qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan aqliy va harakatli o'yinlar, konstruktorlik o'yinlari va o'yinchoqlarning «Bolalar dunyosi» variativ o'yinlar majmuasini ishlab chiqish.

va hujjat qo'yish.

15) Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hududida bolalarni madfiik, shijoat, qat'iyat, zukkolik, jasorat, go'zallik, olijanoblik, matal, shalqat, kitobxonlik namunalarini o'zida aks ettirgan milliy o'yinlar, milliy ertaklar va multfilm qahramonlari ko'rinishlari va lavhalariffo dalangan tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi haykalchalar majmuasini o'rnatish. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari o'zining dolzarbligi, ya'ni sohadaqi muammolarning yechimiga qaratilganligi, uni amalga oshirishda aniq chora-tadbirlar belgilanganligi, belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaffoflikni ta'minlashga intuvorlik berilganligi, maktabgacha ta'lim tizimiga qamrovnifampiaytirishning turli shakllarini qo'llab-quvvatlanilayotganligi, belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli va to'laqonli amalga oshirish bo'yicha vakolatli organlar faoliyatini baholash indikatorlari asosida olib borilishi Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijaga erishishimizga asos bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish nima uchun zarur deb hisoblaysiz?

2. Maktabgacha ta'lim tizimida milliy tarbiya mazmuni qanday aks etganligini bayon eting.

3. MTM tarbiyalanuvchilarini milliy tarbiyalashning qanday o'ziga xos xususiyatlarini bilasiz.

12-Mavzu

Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya.

Mavzu rejasi:

1. Boshlang'ich ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati va mazmuni.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tarbiyalashning metodik jihatlar.

XXI asrda o'zbek xalqi milliy an'analarini o'rganish borasida tarix sahifasiga yangi zarvaraqlar muhrladi. Ayniqsa mamlakatimiz istiqloлга erishgandan so'ng xalqimizning etnomilliy o'zligini anglash hissini kuchayishi, milliy-ma'naviy meros, tarixiy an'analarга bo'lgan e'tiborning ortishi natijasida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammolari dolzarb ilmiy amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirishga, ilmiy intellektual salohiyatga o'ta muhim vazifa sifatida qaralmoqda. O'zlikni anglash va ma'naviy tarbiya ishlarini sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish ijtimoiy ehtiyojga aylandi. O'zbekiston Respublikasi hukumati milliy ma'naviyatimizning mushtarakligiga erishishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etdi. Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida ulug' ajdodlarimizning jahon fani, madaniyati, ma'naviyati ravnaqiga qo'shgan ulkan hissalar, yosh avlodni ana shu ilmiy meros bilan tanishtirish zarurati alohida ta'kidlanganligi bejiz emas.

Prezidentimizning mazkur asarida ta'kidlangan ta'lim va tarbiya birligi tamoyili asosida yoshlarimizda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni ajdodlarimizning boy ilmiy merosidan bahramand etish, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, fanlarni o'qitishda ustoz murabbiylarga yordam tariqasida tayyorlangan buyuk me'rosidagi Shuma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda milliy

ma'naviy merosdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya jarayonida tizimli ravishda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Milliy ilmiy merosimizning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ta'lim va tarbiyadagi hikmatlardadir. Al-Xorazmiy, Al-Farg'aniy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari buyuk daholar bundan tashqari jadidchilik namoyondalaridan D. Q. Do'stmatov, Avloniy, Fitrat kabi allomalarimiz ham ilm-fan, adabiyot va san'at, umuman, madaniyatni rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shganlar. Xalqimizning mard va qahramon farzandlaridan talabiddin Manguberdi, Amir Temurlarning hayoti, ularning bosib o'tgan yo'li, butun faoliyati bugungi va kelgusi avlod uchun ibrat manbai hamisha yodda tutish lozim. Buyuk allomalarimiz va xalq qahramonlarining faoliyati har tomonlama tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan va xalqimizning milliy-ma'naviy merosi ekanligini anglashimiz zarur.

Xronologik tamoyil asosida yozilgan o'zbek xalqining milliy qadriyatlar sifatida "O'zbek milliy ta'lim-tarbiyasi qadriyatlari tarixidan", "O'zbek xalq pedagogikasi", "O'zbek xalq pedagogikasidan namunalar" kabi ilmiy bayon qilingan materiallar boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy, ma'naviy tarbiyalashda, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini o'rganishda qo'l keladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarning o'qish, odobnoma, atrof muhitni muhofaza qilish, konstitutsiyani o'rganimiz kabi darsliklarida o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini o'rganish xususidagi ta'limlardan foydalanish imkoniyati mavjud.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida ta'lim mazmunini milliy lashtirish va shu asosda ma'naviy intellektual ta'lim-tarbiya natijalarini uyg'unlashtirish, o'quvchilarda faollikni o'rnatishning pedagogik imkoniyatlarini qo'llash o'quvchilarning o'zbek xalqi milliy qadriyatlarini anglashga yordam beradi. Demak, pedagogik ta'lim mazmunidagi milliy, ilmiy ta'lim-tarbiya yo'nalishi tamoyili yana bir bor o'z isbotini topadi.

Tamoyilning mazmun-mohiyati o'quv jarayonida u yoki boshqa yo'nalishni yoritish uchun qo'llaniladigan tushunchalar orasidan

milliy-ma'naviy va ilmiy, ta'lim tarbiya nuqtai nazaridan eng ahamiyatlilarini ajratib, ularga ilmiy tus berish va izohlashdan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda milliy-ma'naviy merosdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ushbu tamoyil asosida mavzularning ma'naviy tarbiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha kerakli ko'nikma va malakalarga asta-sekin ega bo'la boradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek xalqi milliy qadriyatlarining ma'naviy ta'lim va tarbiya berish maqsadi, vazifalaridan kelib chiqib tavsiyalar berish zarur. Boshlang'ich sinf o'quv dasturlari mavzularining ma'naviy tarbiyaviy imkoniyatlarini pedagogik tahlil qilish usuli ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llanishi kerak. Bu borada avvalo, o'zbekistonlik fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, butun jahonga ma'lum va mashhur movarounnahrlik allomalarning intellektual salohiyati, fikrlari, g'oyalari, ta'limotlari hamda maktab hayotiga va ta'lim tizimida erishilgan ijobiy natijalar namunalari yordamida amalga oshirilib kelinmoqda.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov qayd qilganidek, bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlikdan iboratdir.

Mazkur ma'naviy-axloqiy negizlar zaminida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligi, respublikamizning barcha fuqarolarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish, intellektuallikni anglash yotadi. Chunki, shaxs tafakkurini o'stirmasdan, uning ma'naviy dunyosini boyitmasdan turib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jabhalaridagi vazifalarni bajarish, milliy istiqlol mafkurasini to'la-to'kis yaratish mumkin emas.

XXI asr tarix sahifasiga nafaqat fan-tehnika taraqqiyoti aso

hali tashkulan majorolar va milliy-etnik nizolar davri sifatida ham kirdi keldi. Shu sababga ko'ra hozirgi davrda boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda milliy-ma'naviy merosdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ta'lim tarbiya jarayoniga samarali tadbiiq etish zamon talabidir. Mamlakatimizda hozirgi iqtisodiyoti davrida jamiyat va davlat o'zligini anglagan, vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlari, ijtimoiy, qonuniy, madaniy ravnaqi uchun mas'uliyatli, ilmiy bilim, mehnat va tafakkor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallagan, ruhiy sog'lom, jismonan yetuk, umuminsoniy va milliy xulq-atvor namunalari o'z ongi va faoliyatida mujassam etgan ma'naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan manfaatdor. Shundan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilganidek, "Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi", bu g'amxo'rlikka javoban fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar".

Har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarining, intellektual salohiyatning birligidan tashkil topadi. Ma'naviy va intellektual meros o'tmishning yutug'i. Uni to'la odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir. O'z madaniy ilmiy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko'tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyondir. Ma'naviyati va intellektual salohiyati yuksak darajada rivojlangan insongina mustaqillik ravnaqi uchun kurashda o'zida kuch va qudrat topa oladi.

Azlar davomida xalqning ilmiy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlarida olg'a surilgan ilg'or g'oyalarni o'z ongida yashit shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oilaning, xalqning, jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan shaxs ma'naviy madaniyatli hisoblanadi. Milliy va ma'naviy me'rosdan to'la bahramand bo'lmagan, ona

tilini bilmagan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ongli ravishda hissa qo'shmagan inson ma'naviy qashshoqdir. Ma'naviy qashshoqlik esa xalqni, millatni, umuman jamiyatni tanazzulga olib boradi.

Demak, ma'naviy ilmiy intellektual meros manbaalarini o'rganish ularda olg'a surilgan g'oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyatning har bir a'zosining vijdoni oldidagi, o'z vatani oldidagi burchidir. Mustaqil respublikamiz istiqbolini belgilovchi har bir fuqaroning o'z burchi va majburiyati mohiyatida ilmiylik va axloqiylikni qayta tiklash; o'zbek xalqi asrlar mobaynida yaratgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarini avaylab saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish tadbirlarini ko'rish, qadimiy va zamonaviy xalq qadriyatlarini, adabiyot va san'atni bilish va rivojlantirish, o'zbek tilini taraqqiy ettirish, respublikada yashovchi boshqa xalqlar madaniyatiga, tiliga hurmat bilan munosabatda bo'lish, hurfifkrilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish; ma'naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish; oilani milliy qadriyatlar asosida mustahkamlash; maorif tizimining barcha bo'g'inlarida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini chuqur o'rganishga erishish kabi shartlarni amalga oshirish yotadi. Mazkur shartlarni amalga oshirishda umumiy ta'lim maktablari asosiy bo'g'in hisoblanadi. Umumiy ta'lim oldiga qo'yilgan muhim maqsad – umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida qayd qilinganidek, "...ta'limda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustivorligi" ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biridir.

O'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini o'rganish bizningcha, quyidagicha izohlanadi:

- ilmiy meroslar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida

ingil zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi avlodlarga o'tiqodi, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, boshlang'ich shifokorlar tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi;

- intellektual meroslar tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega, hayotda amalga oshirilgan, ijtimoiy taraqqiyotda ahamiyatli, avloddan-avlodga o'tuvchi ijtimoiy hodisadir;

- intellektual meroslar jamiyat rivojining negizi, xalqning tarbiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuqlarini ifodalovchi va anglovchi qudratli omildir.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy-ma'naviy meroslar ustivorligiga erishish umumiy ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishda, ularning faolligini oshirishda muhim o'rin tutish bilan birga o'zbek xalqining o'zligini anglashning muhim omilidir.

O'zbek xalqi milliy-ma'naviy merosini o'rganish sohasidagi talab bo'shliqni to'ldirish, o'quvchi yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar talablariga javob beradigan, ma'naviy madaniyatli insonlar qilib tarbiyalash uchun I.A. Karimov aytganidek, "Yangi demokratik ta'lim kontseptsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda o'zbek xalqining va respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy, tarbiy va madaniy an'analari, ma'naviy tajribasi ta'lim-tarbiya tizimimizga uzviy ravishda kiritilishi zarur"¹.

Yangi demokratik ta'lim tizimida:

- o'quvchi shaxsining ilmiy salohiyati hozirgi davrda talablariga erishgan barcha yutuqlarga suyanishi asosida qurilmog'i;

- intellektual merosni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustivor bo'lishi;

- intellektual merosni shakllantirishda milliylikdan yiroq va unga zid unsurlardan voz kechmoq zarur;

- milliy-ma'naviy merosdan unumli foydalanish orqali yosh avlodlarga ma'noda faollashtirishga va milliy-ma'naviy merosni davlatimiz talab avlodlarga yetkazmoq lozim;

- intellektual meros yangi moddiy ehtiyoj va talablar, yangi texnika va texnologiya, yangi qulayliklar, farovonlikka mos holda shakllanishi zarur;

- ilmiy intellektual mohiyati o'quvchi shaxsida tashabbuskorlik, faollik, ishbilarmonlik, ijodkorlik, tadbirkorlik hislatlarini shakllantirishga davlat qonunlari asosida qaratilgan bo'lishi kerak;

- ma'naviy madaniyatlikning ushbu mezonlarini shakllantirishning birdan-bir to'g'ri yo'li milliy maktablarni mustaqillik g'oyalari bilan amaliyotga joriy etishdan iboratdir. Demokratik ta'lim kontsepsiyasi asosida tashkil etiladigan milliy maktablar ta'lim-tarbiya mazmunini milliy asosda qaytadan ishlab chiqishni, milliy qadriyatlar, an'analar zahirida ona tilining o'rni beqiyos ekanligini inobatga olib, uning qonun-qoidalarini tarixini, undan san'atkorona foydalanish usullarini chuqur bilishga e'tiborni kuchaytirishni, ta'lim-tarbiya shakllari, usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirishni, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yangi texnika va texnologiya asosida maktabni zamonaviy jihozlashni, ona tili bilan bir qatorda, jahon madaniyati bilan aloqa qilish vositasi hisoblangan chet tillarini o'rganishga e'tiborni kuchaytirishni; o'tmishdagi maktab, madrasalarimizning tajribalarini qiyosiy o'rganishni va ularni amaliyotga joriy qilishni; xalq maorifini partiyalar siyosatidan holi qilishni; shuningdek, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda o'qituvchi shaxsining kasb tayyorgarligini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mazkur talablarni ijobiy hal etish asosida yaratilgan milliy maktab o'quvchilarining o'zligini anglagan, ma'naviy barkamol kishilar bo'lib shakllanishlarida muhim markaz hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida milliy maktab yaratish negizida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish yuzasidan dastlabki ishlar qilinmoqda. Umumiy ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflariga intellektual meros va ma'naviy qadriyatlarni o'rganish imkoniyatlari tug'ildi. Maktab

shaxslariga "Odobnoma", "Tevarak atrof bilan tanishtirish", "O'qish" kabi o'quv fanlari dars sifatida rasman kiritildi.

Umuman olganda, O'zbekistonda mustaqillikka erishish sharoitida bilan intellektual meros asosida yoshlarni tarbiyalash masalasiga e'tibor kuchaytirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini umumiy aqliy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, badiiy, shuningdek, bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan intellektual salohiyatligi kabi ko'p qirrali tarkibiy qismlarini yashit jarayon sifatida amalga oshirishni taqozo etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida intellektual merosning tarkibiy qismlari o'quvchi ongiga ta'lim-tarbiya va butun faoliyati davomida o'zaro ta'lim va aloqadorlikda singdiriladi. Ayni vaqtda shuni ham nazarda tutish kerakki, intellektual meros tarkibiy qismlarining o'quvchi ongiga va faoliyatiga ta'sir darajasi, ularning mazmuni, mohiyati va xarakterli xususiyatlariga bog'liqdir. Shuningdek, ayrim shaxsning intellektual salohiyati darajasi, avvalo, uning aqliy kamoloti bilan belgilanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, aqliy salohiyat ko'p jihatdan o'quvchining faollik darajasini namoyon qilish bilan belgilanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida faolligi oshirish, bu borada milliy-ma'naviy merosdan keng foydalanish va uning pedagogik imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga to'g'ri qo'llash murabbiylardan doimo izlanishni talab etadi. O'quvchining aqliy madaniyati jamiyat va tabiat qonun-qoidalari, hodisalar, bu hodisalarning bir-birlari bilan bog'liqligi, ma'naviyat hayoti, turmush tarzi, jamiyat taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, yaxlit idrok etish, takrorlash, tasavvur va tashkilot etish ruhiy holatlar jarayonida shakllanadi. Ilmiy bilimlar asosida kishilarning kundalik turmushida namoyon bo'ladigan ma'naviy fazilatlarining mohiyati chuqur anglab yetiladi va ongli ravishda ularga amal qilinadi. Chuqur bilim, malaka va ko'nikma ma'naviy madaniyatning barcha qirralarini o'quvchi ma'naviy ong va faoliyatida shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy ma'naviy bilim asosida o'quvchida insonparvarlik, sadoqat,

qanoat, mehr-muhabbat, adolatparvarlik, nafosat, dunyoqarash, e'tiqod, mehnatga ijobiy munosabat, din va bid'atni bir-biridan farqlash, tabiatga muhabbat, burch va huquqni anglash kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar shakllanib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ilmiy bilimlar zahirida umuminsoniy va milliy madaniy merosining mohiyatini chuqur anglab yetadi, uni idrok etish, tafakkur qilish, xulosalar chiqarish asosida tabiat va jamiyat qonuniyatlariga haqqoniy munosabati paydo bo'ladi. O'quvchidagi bu munosabat ongli ravishda amalga oshiriladi. Faoliyatni ongli va ilmiy asosda tashkil etish aqliy madaniyatning yuqori ko'rsatkichidir.

O'quvchining, o'zbek xalqining, intellektual milliy-ma'naviy merosdan bahramand bo'lmog'i, o'z tarixi, adabiyoti, san'ati, ma'naviy-ruhiy qadriyatlari, dinini puxta bilish asosida o'zligini anglashi, vatan, xalq, millat manfaatlarini uchun mas'ullik, milliy g'ururining shakllanishi aqliy madaniyatining sifat o'lchovlari hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy-ma'naviy madaniyati asosan o'quv fanlarini o'rganish jarayonida shakllanadi. Milliy-ma'naviy madaniyat ma'naviy madaniyatning boshqa tarkibiy qismlarini shakllanishida tayanch bo'lim hisoblanadi.

O'quvchining kamolotida axloqiy milliy-ma'naviy madaniyatning ahamiyati benihoya katta. Milliy-ma'naviy-madaniyat, axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalarini yordamida o'quvchining xulq-atvori, hatti-harakatlarini boshqarish tizimidir. Milliy-ma'naviy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi.

O'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosining ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xil. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatgo'ylik, mas'uliyatlilik, saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bundan tashqari ota boblarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan asorati atiqalar, noyob kitoblar shular jumlasidan. Yuqoridagi xislatlar

faoliyat jarayonida ma'naviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda o'quvchi ongi va xulqiga ta'sir etadi. Milliy-ma'naviy merosning negizini axloqiy madaniyat tashkil etadi. Axloqiy ong o'quvchi ijodiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Uning mezonini axloqiy bilim, axloq normalari, axloqiy tafakkur hisoblanadi. O'quvchining axloqiy ongi uning xulq-atvorida mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, adolatparvarlik va boshqa yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni namoyon etadi. Shuning uchun milliy-ma'naviy merosni muhim vazifalaridan biri axloqiy ongni yuqori pog'onaga ko'tarishdir. Shu boisdan axloqiy ongni yetukligiga erishish uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo'lib, u insoniyat qo'lga kiritgan barcha axloqiy-ma'naviy yutuqlarni o'zlashtirish va shu bilan bir qatorda, muayyan sharoit taqozo etgan muammolarni bartaraf etish jarayonida amalga oshadi.

Ma'naviyat so'ziga to'xtalsak, arab tilidan olingan bo'lib "ma'nolar majmui" ma'nosini anglatadi. Kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir. Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zaruriy shartlaridan biri — boy, ilg'or ma'naviyatga ega bo'lishdir. Faqat moddiy jihatdan boy hamda ilg'or bo'lish jamiyat norasoligining muhim ko'rsatkichidir. Prezident I.Karimov ma'naviyat va ma'rifatni ko'tarish, targ'ib qilish, boyitish, aholining keng doirasiga yoyib, har bir fuqaroning yuksak ma'naviy darajasini ta'min etishni eng dolzarb masalalardan biri deb qayd etib qayta-qayta uqtirmoqda. Milliy so'zi millat so'zini negizi hisoblanib, millat xalq degan ma'noni anglatadi. Milliy meros keng qamrovli tushuncha bo'lib, ko'p hollarda milliy ongni mahsuli hisoblanadi. Milliy ong esa bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati boshqa xalqlarning bevosita ta'siri ostida shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va

madaniy–ma'naviy sohalarda faollik darajasi. Millat–kishilarning barqaror tarixiy birligi, umum iqtisodiy turmush hamda til birligi, madaniyati, ongi va ruhiyatining o'ziga hosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir.

Milliy madaniy merosga milliy ruhiyat, milliy til, milliy o'z-o'zini anglash, milliy qadriyatlar, milliy g'urur, milliy madaniy markazlar milliy an'analar millatparvarlik kabilar kiradi.

Milliy an'analar-millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va hislatlarning avloddan-avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishi tushuniladi. Milliy an'analar umuminsoniy an'analarning bir millat darajasida namoyon bo'lishidir.

Milliy istiqlol mafkurasi-xalqning o'zgalarga tobe bo'lmay erkin va ozod yashash, o'zini-o'zi idora etishga qaratilgan, uning istiqbolini belgilaydigan orzu-umidlari, qarashlari, g'oyalari majmui, jamiyat taraqqiyotining muhim ommillaridan biri. Milliy istiqlol mafkurasi-insoniyat tarixidagi eng ezgu va qadimiy g'oyalaridandir.

Milliy ong – millatning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, mehnati, boshqa millatlar bilan muloqat va muhoasasi jarayonida paydo bo'ladi va til bilan uzviy bog'liqdir.

Milliy ruhiyat – millatning ichki holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y fikrlari, maqsad va maslaklari hamda kayfiyatlari bilan bog'liq mulohazalar majmui.

Milliy til – kishilarning tarixiy tashkil topgan barqaror birligi millat yoki elatning umumiy tili, ularning fikr almashish va muloqot vositasi, muhim rivojlanish omili.

Milliy o'zlikni anglash – har bir millatning o'zini xaqiqiy mavjud subyekt muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarini ifodolovchi ekanligini yagona til urf-odatlar an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushinib yetishga milliy o'z-o'zini anglash deyiladi.

Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va millat qadriyatining sohibidir.

Milliy g'urur – har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida qadrlanib bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Bu tuyg'u o'z ona zomini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan fahrlanish hissiyotidir.

Milliy ong vijdon, burch, mas'uliyat, hayo, g'urur kabi insonning ichki ruhiy hissiyotiga asoslanadi. Axloqiy madaniyatning mazmuni tashkil qiluvchi insonparvarlik, halol mehnat, o'zaro yordam, do'stlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, baynalminalchilik, rahovat, vatanparvarlik, burch hissi hamda kamtarlik kabi yuksak insoniy qadriyatlar axloqiy odat asosida o'quvchi ongi va faoliyatida tarkib topadi.

Milliy-ma'naviy merosga hurmat o'quvchining aniq maqsadini ko'zlab, doimiy, izchil uyushtirilgan faoliyati, jamiyat a'zolarining o'zaro madaniy munosabatlari, o'zaro ishonchlari, aloqalari zahirida maydonga keladigan holatdir. Axloqiy madaniyatning ma'naviy poydevori bo'lib, uning asosiy mezonini axloqiy bilimdir. **Bilimlar** ishonchga aylangan taqdirdagina xalqni tartibga solib turadi. Haqiqiy axloqiy ishonch o'quvchining axloq normulari, xulq-atvorini shakllantirishga olib keladi. **Faoliyatga ishonch** esa ongning uzoq muddatli faoliyati natijasida uning yuksak mahsuloti sifatida yuzaga keladi. Axloqiy madaniyatning shakllanishi axloqiy bilimning axloqiy ishonchiga, uning amaliyotiga o'tishi jarayonidan iborat bo'lib, bu jarayon uzluksiz xarakterga ega.

Milliy-ma'naviy meros faoliyatdan tashqarida munosabatlarsiz bo'lishi mumkin emas. Demak, milliy-ma'naviy madaniyatlilik o'quvchining xulqi va hatti-harakati orqali namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda:

- axloqiy ong, axloqiy sifat, axloqiy odat, axloqiy faoliyat boshlang'ich sinf o'quvchisi milliy-ma'naviy madaniyatini shakllantirishning muhim belgilarini tashkil etadi;

- milliy madaniy meros o'quvchining butun hayoti va faoliyati

jarayonida rivojlanadi va mazmunan boyib, shakllanib boradi;

- milliy madaniy meros boshlang'ich sinf o'quvchisi faoliyatiga doimiy izchil, sekin-asta singdirib borilgandagina u ijobiy natija beradi.

O'quvchining axloqiy ong va tafakkuri estetik his-tuyg'ulari bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Estetik did, kundalik hayotdagi go'zallikni his etish, undan zavqlanish, tabiatdagi nafosatni tushunish va uni idrok qilish ma'naviy madaniyatlilikning mezonlaridan hisoblanadi. O'quvchining estetik madaniyati voqea-hodisalarni nafis va nozik idrok etishdan boshlanadi. Estetik idrok etish jamiyat va tabiatdagi voqea-hodisalarni tanlab idrok etishdan iboratdir. Turli-tuman axborotlarni tanlash asosida o'quvchi ongida uning his-tuyg'ularini qo'zg'aydigan, unda huzur, quvonch, g'amginlik yoki boshqa holatlarni vujudga keltiradigan narsa va hodisalarning timsollari yaratiladi. O'quvchining estetik madaniyati yuqori bosqichga ko'tarilishidan estetik his muhim o'rinni egallaydi. Estetik his insonni o'rab turgan muhitga munosabatining asosiy shakli bo'lib, hayot haqiqatini o'zlashtirishning, ijodiy fikrlash qobiliyatini ta'minlashning asosiy bosqichidir. Estetik his o'quvchining aqliy rivojlanishiga, bilim doirasining shakllanishiga, ijodiy qobiliyatining rivojlanishiga ta'sir etadi. Estetik his orqali o'quvchida ijobiy maqsadlar paydo bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari voqea-hodisalar, san'at va adabiyot asarlaridan estetik zavq olishi uchun u go'zallikni his eta bilishi, undan ta'sirlanishi, hayot go'zalligi, ijodiy badiiy yutuqlardan ilhomlanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun o'quvchi, avvalo, adabiyotni, san'atni bilishning ikkita eng muhim – adabiyot, san'at asarini bevosita idrok etish va uni baholash kabi tomonlariga alohida e'tibor berishi zarur.

Ma'naviy manbaalarni estetik bilish jarayonida o'quvchida estetik did, estetik g'oya, go'zallikdan estetik zavqlanish qobiliyati shakllanadi. Estetik his o'quvchida estetik didni paydo qiladi. Psixologik nuqtai nazardan estetik did hissiy va aqliy turmush tarzini uzviy bog'lab turuvchi shaxsning qobiliyatidir. O'quvchining

estetik didi uning o'rtoqlari, jamoasi, oila a'zolari, jamoatchilikning solq-atvori, hatti-harakatlari, muloqot madaniyati, milliy, umuminsoniy qadriyatlarga munosabatlarida namoyon bo'ladi. Estetik madaniyatning asosini tashkil qiladigan estetik idrok, estetik hissiyot, estetik did, qarashlar, ishonch, talab kabi belgilari estetik g'oya uchun manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Estetik g'oyada go'zallik, hayotning rivoji, estetik hissiyot, qiziqish, ehtiyoj, munosabat hissiy shaklda ifodalanadi. Estetik g'oya ma'lum tarixiy sharoit, madaniy manbaa turi va janr xususiyatlaridan kelib chiqib, go'zallikni qaror toptirish, hayotni takomillashtirish orqali ifoda etiladi. Estetik g'oyani qaror toptirishda tarixiy shaxslar, badiiy asar qahramonlarining fikrlari, hissiyotlari, didlari orqali hayot haqiqati estetik baholanadi. Ashyoviy qadriyatlar esa hayot haqiqati estetik tasvirini to'ldiradilar, o'quvchi ko'z o'ngida yaxlit estetik g'oyani vujudga keltirishga xizmat qiladi.

Estetik g'oya o'zgaruvchan bo'lib, jamiyatdagi munosabatlar bilan boyib, o'zgarib boradi. Masalan, har qanday adib yoki hunarmand o'z ishi natijasi bilan hech qachon qoniqmaydi, ma'lum bir asarni, timsollarni, mehnat mahsulini yaratgach, yana unda yangi-yangi orzular, fikr-o'ylar, rejalar paydo bo'ladi. Estetik g'oya bo'lganligi uchun yozuvchi yoki hunarmandning maqsadi, vazifalari uzluksiz o'zgarib turadi. Shuningdek, o'quvchidagi yangi-yangi orzular, nuqtai nazarlar, rejalar, orzu-o'ylarning paydo bo'lishi bilan, undagi estetik g'oya to'lishib, rivojlanib boradi.

Demak, o'quvchining estetik madaniyati va intellekti uning chuqur estetik bilim va qiziqishi, yuksak estetik didi, estetik ehtiyoji, badiiy-estetik voqea-hodisalarni tahlil etish qobiliyati, estetik hissiyoti, o'z bilimini estetik jihatdan boyitishga talabining kuchlilik bilan izohlanadi.

O'quvchi jamiyatning badiiy-estetik hayotida, uning rivojlanishida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. U bu jarayonda insoniyat tomonidan yaratilgan badiiy-estetik manbaalarni, qadriyatlarni o'rganadi, ularning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Shu asnoda o'quvchi jamiyatning badiiy-estetik

munosabatlari tizimida ma'lum o'rinni egallaydi. Shuning uchun jamiyatning badiiy-estetik rivojlanish jarayonida ishtirok etmagan, uni targ'ib qilmagan, undan ta'sirlanmagan, ilhomlanmagan, amaliy faoliyatida foydalanmagan o'quvchi shu jamiyatning yaxli shakllangan a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Badiiy ilmiy meros ma'naviy asosga ega bo'lib, uning moddiy asosini nashriyotlar, kinoteatrlar, kutubxonalar, kontsert zallari, teleko'rsatuv, radio va boshqalar tashkil qiladi. O'quvchining intellektual madaniyatini shakllantirishda yetakchi o'rinni egallaydigan adabiyot va san'at asarlari, badiiy-estetik an'analar, bayramlar ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda intellektual merosning o'ziga xos bo'lgan bir qator qonuniyatlari aniqlab va asoslab berilgan. Shular jumlasiga badiiy madaniyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzum xarakteriga bog'liq ravishda rivojlanishi, milliy xarakteri, mustaqilligi, jamiyat taraqqiyoti jarayonida mavqeining oshib borishi, shaxsning ma'naviy dunyosiga ma'naviy madaniyatlarning boshqa qirralari bilan kompleks ravishda ta'sir etishi kabilar kiradi. Badiiy madaniyatning mazmuni – uning milliyligi va umuminsoniyliigi, badiiy boyliklarning hammabopligi, badiiy san'at asarlarining insonparvarligi, istiqbolliligi, g'oyaviy pishiqligi, hayotiy mushtarakligi bilan baholanadi. Badiiy madaniyat ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos estetik, aqliy, axloqiy, mafkuraviy aloqa vazifalarini bajaradi.

Jamiyat, tabiat, inson hayotidagi voqea-hodisalarning badiiy tasviri vositasida o'quvchi hayotini bilish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, xalqning turmush tarzi, uning ijodiy merosi bilan tanishish, bilim doirasini kengaytirish, o'z dunyoqarashini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan siyosiy madaniyatsiz ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini o'quvchi to'liq anglab yetishi mumkin emas. Siyosiy madaniyat o'quvchida siyosiy tafakkurni, ijtimoiy faollikni, jamiyat oldidagi mas'uliyat, ijtimoiy va ma'naviy javobgarlikni his etishni, haqiqat uchun kurashishni

har bir adolatlarga sadoqatni, millatlar, elatlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni, so'z va faoliyat birligini ta'minlash, erkparvarlikni, o'zlikni, tenglikni, ozodlikni va o'zligini anglashni belgilab beruvchi mezondir.

Siyosiy bilim faqat erkinlik, ozodlik, mustaqillik sharoitidagina o'zini to'la namoyon qila oladi. O'quvchining hozirgi zamon siyosiy madaniyati umuminsoniy qadriyatlarga suyanadi, shu jumladan, insonparvarlik, demokratiya, huquqiy davlat va oshkoralik, bu madaniyatning to'rt ustunidir. Har bir o'quvchi bu faoliyatida insonparvarlik qoidalariga rioya qilishi, ya'ni bu faoliyat insonni himoya qilishga, uni ulug'lashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Insonparvarlik hozirgi zamon intellektual o'quvchisi uchun kundalik ma'naviy fazilat bo'lib qolishi, ikkinchidan, o'quvchiniigi ongi va faoliyati demokratik jamiyat yaratishga qaratilgan bo'lishi, uchinchidan, huquqiy davlat yaratishga o'z hissasini qo'shishga tayyor bo'lishini taqozo etadi. To'rtinchidan esa, har bir ma'naviy-ilmiy dunyoqarashni o'quvchi o'z faoliyatida oshkoralik uchun kurash olib borishi zarur. Bunday xususiyatlarni o'z xulq-atvorida mujassam eta olgan o'quvchi o'z faoliyatida har qanday og'ir vaziyatda ham paydo bo'lgan muammolarni muzokara, munozara, muahhoda yo'li bilan hal qilishga intiladi.

O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda uning aqliy, axloqiy, estetik, badiiy va boshqa qirralari yaxlit, bir-biri bilan o'zaro aloqada ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirning samaradorligi esa ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi ilmiy qiziqishi, talab va ehtiyojini hisobga olish, bu xususiyatlarning jamiyat ma'naviy taraqqiyoti talablari bilan mosligi, ma'naviy-madaniy manbaalardan o'quvchi yosh va ruhiy xususiyatlariga mos ravishda samarali foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali shakl, usul va vositalar asosida tashkil etish, ta'lim-tarbiya mazmunini umuminsoniy va milliy qadriyatlar negiziga qurish kabi muhim pedagogik talablarga rioya etishga bog'liq.

Shuningdek, aqliy madaniyatning – milliy bilimlarni puxta o'zlashtirish, yaxlit idrok etish, takrorlash, tasavvur va tafakkur etish,

axloqiy madaniyatning – axloqiy bilimlar, axloqiy ong, axloqiy odob, axloqiy ishonch, axloqiy faoliyat; estetik madaniyatning – estetik his, estetik did, estetik idrok, estetik qarashlar, ishonch, talab, g'oya.

Xalq pedagogikasi (xalq og'zaki ijodi, amaliy tajribadagi an'analar, urf-odatlar, xalq amaliy san'ati, xalq tasviriy san'ati, xalq musiqasi va b.) jamoa ijodkorligining tarkibiy qismi sifatida kishilarning ma'naviy birlashuvi timsoli, tub manfaatlar, orzu-armonlari umumiyligini ifodalovchi tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Xalq pedagogikasining tarkibiy qirralari kishilarning oliy maqsadlari, tasavvurlari, his-tuyg'ularining ifodasi sifatida pedagogik madaniyatning amaliyotda sinovdan o'tgan muhim belgilari, ya'ni xalqni ezgulikka, adolatga, ilmga, mehnatsevarlikka, insonparvarlikka da'vat etishdan iboratdir.

Tarixiy zarurat tufayli dinning paydo bo'lishi bilan u targ'ib etgan axloqiy-ma'naviy qonun-qoidalar asta-sekin kishilarning hayotga, turmush tarziga, ongiga, dunyoqarashiga, jamiyatdagi o'zaro munosabatlarga va boshqa qirralarga chuqur ta'sir ko'rsatib, jamiyat madaniy hayotining tarkibiy qismiga aylandi. Islom ta'limoti negizida ilg'or fikrlar sifatida insonparvarlik, axloq-odob, ilmiylik, mehr-shafqat, sadoqat, mehr-oqibat, sabr-qanoat, halollik va boshqa umuminsoniy fazilatlar imon-e'tiqod doirasida targ'ib etildi va muqaddas diniy manbaalarda (Qur'on, Hadis) bunday yuksak insoniy fazilatlar axloqiy qoida tarzida belgilab berilgan. Islom g'oyalarini targ'ib etuvchi tasavvuf ilmining namoyandalari ijodida "Ruh" va "Ishq", "Nafs" va "Axloq" tayanch nuqtalar hisoblanadi. Ollohning borligiga va yagonaligiga ishonch, unga bo'lgan botiniy muhabbat, u dunyodagi hayot nashidasi, har qanday qabihliklardan nafsni tiyish, shuningdek dil pokligi va ruh komilligiga da'vat tasavvuf mohiyatini tashkil etadi. Tasavvuf ilmida xudoga faqat toat-ibodat bilan emas, balki ma'naviy poklik, beg'uborlik, samimiylik bilan erishish mumkin degan fikr ilgari suriladi (Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Shayx Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, So'fi Olloyor, Xo'ja

Ahror).

Sharq ma'naviy madaniyatining xilma-xil jihatlari uyg'onish davrida juda rivojlangan bo'lib, bu davrda yashab ijod etgan al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Sa'diy, Tusiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida insonning ma'naviy-axloqiy kamolotida, umumbashariy ma'naviy qadriyatlar yuksalishida muhim bosqich bo'ldi. Ular sharqona axloq-odob talablari asosida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma'naviy asosini yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Shuningdek, ijtimoiy tengsizlikni jamiyat a'zolarining o'zaro kelishuvi, bir-birlariga insoniy munosabati, aql va ilm olish, xudoga sidqidildan toat-ibodat qilish, davlatni adolat bilan boshqarish bilan bartaraf qilish mumkin degan mushohadani ilgari surdilar.

Bu davr ma'naviy ilmiy dunyoqarash mazmunida insonning ichki va tashqi holati, hissiyoti, mehnatga, turmushga munosabati, mehr-oqibati, muhabbati, sadoqati, bilimga (diniy va dunyoviy) intilishi, ma'naviy kayfiyati, aql-idroki, erki, asosan insonni tabiatning eng buyuk mahsuli sifatida kuylash, tasvirlash, ulug'lashdan iborat bo'lib, muhim oliy axloq, ma'rifatli va adolatli jamoa g'oyasi olg'a surildi.

Muhammad al-Xorazmiy o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida insonning oliy maqsadga erishishi, adolatli jamoa qurishi uchun ilmiy meros vositasida tafakkurini shakllantirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish lozim degan g'oyani olg'a surdi. Uning fikricha, inson faoliyatida aql-idrokka, tafakkur quvvatiga tayanib ish ko'rmog'i lozim.

Abu Nasr Farobiyning ma'rifiy qarashlari o'rta asrlarda mavjud bo'lgan ma'naviy-falsafiy muammolar – tana va ruh, borliq, harakat, fazo va vaqt, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, diniy jarayonlar to'g'risidagi tasavvurlar bilan omuxta holda

maydonga keldi. Uning fikricha, barcha muammolarni yechish kaliti oliy maqsadli jamoa, barcha ilmiy ma'naviy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan inson adolatli jamiyat, farovon turmushning garovidir.

Uyg'onish davrining yetuk mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik va didaktik g'oyalari negizini tashqi muhit va insonning jismoniy sog'lomligi orqali ma'naviy kamolotga erishishi muammosi tashkil etadi. U o'zining bir qator asarlarida fozil jamoaning har bir a'zosi ma'naviy madaniyati uning jismoniy va ruhiy intellekti orqali shakllantirilishi lozim degan fikrni ilgari surdi.

Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tiqod, muhabbat asosida shaxsni ma'naviy kamolga yetkazish g'oyasi nihoyatda muhimdir. Alloma barcha insoniy qadriyatlar ichida eng yuksagi insonparvarlik deb biladi.

Yusuf Xos Hojib Farobiy bilan Ibn Sinoning falsafasiga monand ravishda moddiy dunyoning yaratilishini ruhiy kuchga bog'liq ekanligini e'tirof etib, bu dunyoning taraqqiyoti ma'naviy takomilning oliy mezonini bilimlilik, aql-zakovatli insonlarga bog'liq deb, "Qayerda zakovat bo'lsa, o'sha joyda ulug'lik, farovonlik, kim bilimdon bo'lsa, o'sha inson buyuk, har qanday ezgu ishlarga moyil bo'ladi" degan g'oyani olg'a surib, barcha bilimlardan (diniy va dunyoviy) voqif bo'lgan, yuksak insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan barkamol insongina jamoaga rahnamo bo'lishi mumkin, bunday jamiyatda adolat, ma'naviy yetuklik, farovonlik, ma'rifat, hukmron bo'ladi degan xulosaga keladi.

Alisher Navoiyning pedagogika falsafasida kishilarning ma'naviy dunyosini belgilovchi fazilat – insonparvarlikdir. Alloma tasnifida ma'rifatli, adolatli, har qanday noaxloqiy sifatlardan xoli, yuksak tafakkurli inson ma'naviy yetukdir.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining eng katta xizmatlari shundan iborat bo'ldiki, islom dini, uning qonun-qoidalari hukmronlik qilgan bir davrda, dinning axloqiy-ma'naviy

qoidalarni inkor etmagan holda, tarbiyaning insonparvarlik g'oyasini yaratishga, milliy madaniyatni shakllantirishning milliy asoslarini ishlab chiqishga muvassar bo'ldilar. Shu nuqtai nazardan ham biz hozirgi kunda maorif tizimini ilmiy va milliy lashtirish bosqichida ta'lim-tarbiyaning mazmunini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish asosida o'quvchi shaxsining o'zligini anglashga o'rnatilgan amalga oshirish maqsadini hal etishda xalq pedagogikasi va o'quvchi mutafakkirlarimiz ishlab chiqqan insonparvarlik qarashlari tizimini metodologik asos sifatida qabul qilishni lozim topdik va shu asosda o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda quyidagi metodologik yo'nalishlarga tayanish zarur deb bildik.

1. Ilmiy merosni, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zbek xalqining kelib chiqishi, millat sifatida shakllanishi va rivojlanishi, uning etnik yadrosining o'ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan o'rganish, ayni vaqtda tarixiy bosqichlarda bu zaminda yaratilgan ijtimoiy-madaniy qadriyatlar boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining ham madaniy boyligi ekanligini, ular yaratgan madaniy manbaalarning ajralmas bo'lagi ekanligini unutmaslik zarur.

2. Hamma tarixiy davrlarda jamiyatning gullab-yashnashi, uning ilmiy-texnik taraqqiyoti, kelajakdagi o'rni shu jamiyat ma'naviy boylik darajasi bilan baholanib keladi. Shu boisdan ham ma'naviy madaniyatning barcha manbaalari, uning tarkibiy qismlari o'zining tarixiyli, insonparvarlik va xalqchilik yo'nalishlari bilan ajralib turadi. Milliy qadriyatlarimizning tabiat va jamiyat qonunlaridek, o'zining yuksalishi, turg'unlikka uchrashi, ziddiyatli jarayonlari, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashlari mavjud bo'lib, doimo ularning negizida sinovdan o'tgan yuksak insoniy fazilatlar targ'ib etilganligini nazarda tutmoq zarur.

3. Har qanday jamiyat shaxsning ma'naviy barkamol bo'lishidan manfaatdor. Shu boisdan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishda moddiy va ma'naviy talablari, ajdodlar tajribasi, hayot taqozo etgan

umuminsoniy va milliy insonparvarlik xususiyatlariga bo'lgan ehtiyojni yetakchi o'ringa qo'yib munosabatda bo'lmoq lozim. Buning uchun har bir davrni o'sha davr tuzumiga chuqur kirib borgan holda jamiyat madaniyati, shaxs madaniyati, madaniyat va shaxslar, fikrlar va g'oyalarning yuksalishi jarayoni nuqtai nazaridan chuqur tahlil etib o'rganish, "Tayanch nuqta"ga asoslanish talab etiladi.

4. Markaziy Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining boy madaniy ilmiy merosida muhim o'rinni egallagan tarixan tarkib topgan ma'naviy-ruhiy qadriyatlarni, an'analarni, urf-odatlarini pedagogik g'oyalar rivoji nuqtai nazaridan o'rganish o'quvchining ma'naviy madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir etadi. Shu boisdan Markaziy Osiyo xalqlari yaratgan boy madaniy merosning ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali ularning umuminsoniy madaniyati xazinasidagi ahamiyati va qimmatini ochib beriladi.

5. Ilmiy meros rivoji madaniy manbaalarning o'zaro aloqasi va ta'sirisiz kechmaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda barcha xalqlar, millatlar ma'naviy manbaalarining o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siriga e'tibor berish talab etiladi. Ularning bir-birini boyitishi natijasida umuminsoniy qadriyatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiy etishiga asos bo'lishini nazarda tutmoq lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zbek xalqi milliy qadriyatlarini shakllantirishning bu ilmiy asosi to'rtta muhim ijtimoiy-ruhiy omilni hal etishga xizmat qilmog'i lozim:

- o'quvchida o'zbek xalqining ilmiy merosini o'rganishga ehtiyojni oshirishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy muammolarni to'g'ri anglashga yordam berish;
- o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish zamirida, uning jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishini ta'minlash va o'quvchilarni faollashtirish;
- intellektual merosni shakllantirishning muhim manba

bo'lgan o'rinli madaniy merosi, ma'naviy qadriyatlarni hozirgi zamon madaniy hayot bilan o'zaro aloqada, uyg'unlikda o'rganish, amaliy faoliyatda ularda olg'a surilgan ilg'or g'oyalarga rioya etib, ularning umrboqiyiligini ta'minlash, rivojlantirish zarurligini to'liq ma'noda anglab yetish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda o'zbek milliy ma'naviy merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari o'qituvchi uchun ham, ota-ona uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida keng imkoniyatlar eshigini ochib beradiki, bu o'zaro munosabatlarning samarali tizimini hosil qiladi.

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur. Intellektual salohiyatli barkamol yoshlarni tarbiyalashda esa yurtimiz har bir pedagogining o'z kasbiga bo'lgan ma'duriyati va bilimlari zarur bo'ladi.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'qituvchilarning o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga ta'limni yuqori baholab shunday degan edi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu hamqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan barcha merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun o'g'ituvchi bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi murabbiylarning mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizda yaxshi tasavvur qilamiz".

Bugun ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo'yilgan. Bu o'quvchilarga ijodiy jihatdan o'z-o'zlarini namayon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta'lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim tarbiya amaliyotida samarali va tejimli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi.

Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi? «Pedagogik texnologiya» nimani anglatadi?

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi.

ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik qonunlariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, qo'llaniladigan va tashabbuskorlikka tayanadi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Bular o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini qo'shib etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'ziga aylantirdi.

Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qat'iy o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish maqsadida pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-

qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rish tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanadi. Binobarin har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayotganligi va o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelayotganligi, o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajratilma-

qilinishi aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizuall vositalar mavjudligi ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Uchinchidan, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyaga uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv ob'ektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metodika doirasidan chiqib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo'llashga ehtiyojni tug'dirmoqda.

Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yotak, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta'lim sifati, samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini muvaffaqiyatli lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati nimalardan iborat?

2. Boshlang'ich ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mazmunini bayon eting.

13-Mavzu Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya.

Mavzu rejasi:

1. Boshlang'ich ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati va mazmuni.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tarbiyalashning metodik jihatlari.

XXI asrda o'zbek xalqi milliy an'analarini o'rganish borasida tarix sahifasiga yangi zarvarlar muhrladi. Ayniqsa mamlakatimiz istiqbolga erishgandan so'ng xalqimizning etnomilliy o'zligini anglash hissini kuchayishi, milliy-ma'naviy meros, tarixiy an'analariga bo'lgan e'tiborning ortishi natijasida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammolari dolzarb ilmiy amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirishga, ilmiy intellektual salohiyatga o'ta muhim vazifa sifatida qaralmoqda. O'zlikni anglash va ma'naviy tarbiya ishlarini sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish ijtimoiy ehtiyojga aylandi. O'zbekiston Respublikasi hukumati milliy ma'naviyatimizning mustarakligiga erishishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etdi. Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida ulug' ajdodlarimizning jahon fani, madaniyati, ma'naviyati ravnaqiga qo'shgan ulkan hissalar, yosh avlodni ana shu ilmiy meros bilan tanishtirish zarurati alohida ta'kidlanganligi bejiz emas.

Prezidentimizning mazkur asarida ta'kidlangan ta'lim va tarbiya birligi tamoyili asosida yoshlarimizda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni ajdodlarimizning boy ilmiy merosidan bahramand etish, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, fanlarni o'qitishda ustoz-murabbiylarga yordam tariqasida tayyorlangan buyuk me'rosidiki Shuma'nodaboshlang'ichsinfo'quvchilarini faollashtirishdamilliy

ma'naviy merosdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya jarayonida tizimli ravishda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Milliy ilmiy merosimizning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ta'lim va tarbiyadagi hikmatlardadir. Al-Xorazmiy, Al-Farg'oni, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari ko'plab daholar bundan tashqari jadidchilik namoyondalaridan Habbodiy, Avloniy, Fitrat kabi allomalarimiz ham ilm-fan, adabiyot va san'at, unuman, madaniyatni rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shganlar. Xalqimizning mard va qahramon farzandlaridan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurlarning hayoti, ularning bosib o'tgan yo'li, butun faoliyati bugungi va kelgusi avlod uchun ibrat olamini hamisha yodda tutish lozim. Buyuk allomalarimiz va xalq qahramonlarining faoliyati har tomonlama tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan va xalqimizning milliy-ma'naviy merosi ekanligini anglashimiz zarur.

Xronologik tamoyil asosida yozilgan o'zbek xalqining milliy qadriyatlar sifatida "O'zbek milliy ta'lim-tarbiyasi an'analari tarixidan", "O'zbek xalq pedagogikasi", "O'zbek xalq pedagogikasidan namunalar" kabi ilmiy bayon qilingan materiallar boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy, ma'naviy tarbiyalashda, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini o'rganishda qo'l keladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarning o'qish, odo-noma, atrof muhitni muhofaza qilish, konstitutsiyani o'rganimiz kabi darsliklarida o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini o'rganish xususidagi bilimlardan foydalanish imkoniyati mavjud.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida ta'lim-mazmunini milliy lashtirish va shu asosda ma'naviy intellektual ta'lim-tarbiya natijalarini uyg'unlashtirish, o'quvchilarda faollikni oshirishning pedagogik imkoniyatlarini qo'llash o'quvchilarning o'zbek xalqi milliy qadriyatlarini anglashga yordam beradi. Demak, pedagogik ta'lim mazmunidagi milliy, ilmiy ta'lim-tarbiya yo'nalishi tamoyili yana bir bor o'z isbotini topadi.

Tamoyilning mazmun-mohiyati o'quv jarayonida u yoki bu mavzuni yoritish uchun qo'llaniladigan tushunchalar orasidan

milliy-ma'naviy va ilmiy, ta'lim tarbiya nuqtai nazaridan eng ahamiyatlilarini ajratib, ularga ilmiy tus berish va izohlashdan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda milliy-ma'naviy merosdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ushbu tamoyil asosida mavzularning ma'naviy tarbiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha kerakli ko'nikma va malakalarga asta-sekin ega bo'la boradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek xalqi milliy qadriyatlarining ma'naviy ta'lim va tarbiya berish maqsadi, vazifalaridan kelib chiqib tavsiyalar berish zarur. Boshlang'ich sinf o'quv dasturlari mavzularining ma'naviy tarbiyaviy imkoniyatlarini pedagogik tahlil qilish usuli ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llanishi kerak. Bu borada avvalo, o'zbekistonlik fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, butun jahonga ma'lum va mashhur movarounnahrlik allomalarning intellektual salohiyati, fikrlari, g'oyalari, ta'limotlari hamda maktab hayotiga va ta'lim tizimida erishilgan ijobiy natijalar namunalari yordamida amalga oshirilib kelinmoqda.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov qayd qilganidek, bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlikdan iboratdir.

Mazkur ma'naviy-axloqiy negizlar zaminida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligi, respublikamizning barcha fuqarolarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish, intellektuallikni anglash yotadi. Chunki, shaxs tafakkurini o'stirmasdan, uning ma'naviy dunyosini boyitmasdan turib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jabhalaridagi vazifalarni bajarish, milliy istiqbol mafkurasini to'la-to'kis yaratish mumkin emas.

XXI asr tarix sahifasiga nafaqat fan-tehnika taraqqiyoti asu

lari turli-tuman majorolar va milliy-etnik nizolar davri sifatida ham tushib keldi. Shu sababga ko'ra hozirgi davrda boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda milliy-ma'naviy merosdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ta'lim tarbiya jamiyatiga samarali tadbiq etish zamon talabidir. Mamlakatimizda hozir iqtisodiyoti davrida jamiyat va davlat o'zligini anglagan, vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun mas'uliyatli, ilmiy bilim, mehnat va kamb'kor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallagan, ruhiy sog'lom, jismonan yetuk, umuminsoniy va milliy xulq-atvor qadriyatlarini o'z ongi va faoliyatida mujassam etgan ma'naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan manfaatdor. Hamdan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilganidek, "Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi", bu g'amxo'rlikka javoban "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburlirlar".

Har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarining, intellektual salohiyatning birligidan tashkil topadi. Ma'naviy va intellektual meros o'tmishning yutug'i. Uni to'la odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir. O'z madaniy ilmiy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko'tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyondir. Ma'naviyati va intellektual salohiyati yuksak darajada rivojlangan insongina mustaqillik ravnaqi uchun kurashda o'zida kuch va qudrat topa oladi.

Asrlar davomida xalqning ilmiy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlarida olg'a surilgan ilg'or g'oyalarni o'z ongida saqlab shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oilaning, xalqning, jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan shaxs ma'naviy madaniyatli hisoblanadi. Milliy va ma'naviy merosdan ma'naviyat va qadriyatlardan to'la bahramand bo'lmagan, ona

tilini bilmagan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ongli ravishda hissa qo'shmagan inson ma'naviy qashshoqdir. Ma'naviy qashshoqlik esa xalqni, millatni, umuman jamiyatni tanazzulga olib boradi.

Demak, ma'naviy ilmiy intellektual meros manbaalarini o'rganish ularda olg'a surilgan g'oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyatning har bir a'zosining vijdoni oldidagi, o'z vatani oldidagi burchidir. Mustaqil respublikamiz istiqbolini belgilovchi har bir fuqaroning o'z burchi va majburiyati mohiyatida ilmiylik va axloqiylilikni qayta tiklash; o'zbek xalqi asrlar mobaynida yaratgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarini avaylab saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish tadbirlarini ko'rish, qadimiy va zamonaviy xalq qadriyatlarini, adabiyot va san'atni bilish va rivojlantirish, o'zbek tilini taraqqiy ettirish, respublikada yashovchi boshqa xalqlar madaniyatiga, tiliga hurmat bilan munosabatda bo'lish, hurfiylik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish; ma'naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish; oilani milliy qadriyatlar asosida mustahkamlash; maorif tizimining barcha bo'g'inlarida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini chuqur o'rganishga erishish kabi shartlarni amalga oshirish yotadi. Mazkur shartlarni amalga oshirishda umumiy ta'lim maktablari asosiy bo'g'in hisoblanadi. Umumiy ta'lim oldiga qo'yilgan muhim maqsad – umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida qayd qilinganidek, "...ta'limda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustivorligi" ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biridir.

O'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini o'rganish bizningcha, quyidagicha izohlanadi:

- ilmiy meroslar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida

aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu-istagi, e'tiqodi, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, boshlang'ich sinflarga tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi;

- intellektual meroslar tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega, hayotda sinalgan, ijtimoiy taraqqiyotda ahamiyatli, avloddan-avlodga o'tuvchi ijtimoiy hodisadir;

- intellektual meroslar jamiyat rivojining negizi, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuqlarini ifodalovchi va saqlovchi qudratli omildir.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy-ma'naviy meroslar ustivorligiga erishish umumiy ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishda, ularning faolligini oshirishda muhim o'rin tutish bilan birga o'zbek xalqining o'zligini anglashning muhim omilidir.

O'zbek xalqi milliy-ma'naviy merosini o'rganish sohasidagi o'sha bo'shliqni to'ldirish, o'quvchi yoshlarni umumjahon fan-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan, ma'naviy madaniyatli insonlar qilib tarbiyalash uchun I.A. Karimov aytganidek, "Yangi demokratik ta'lim kontseptsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda o'zbek xalqining va respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an'analari, ma'naviy tajribasi ta'lim-tarbiya tizimimizga uzviy ravishda kiritilishi zarur"¹.

Yangi demokratik ta'lim tizimida:

- o'quvchi shaxsining ilmiy salohiyati hozirgi davrda insoniyat erishgan barcha yutuqlarga suyanishi asosida qurilmog'i;

- intellektual merosni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustivor bo'lishi;

- intellektual merosni shakllantirishda milliylikdan yiroq va unga zid unsurlardan voz kechmoq zarur;

- milliy-ma'naviy merosdan unumli foydalanish orqali yosh avlodni keng ma'noda faollashtirishga va milliy-ma'naviy merosni ushlab avaylab avlodlarga yetkazmoq lozim;

- intellektual meros yangi moddiy ehtiyoj va talablar, yangi texnika va texnologiya, yangi qulayliklar, farovonlikka mos holda shakllanishi zarur;

- ilmiy intellektual mohiyati o'quvchi shaxsida tashabbuskorlik, faollik, ishbilarmonlik, ijodkorlik, tadbirkorlik hislatlarini shakllantirishga davlat qonunlari asosida qaratilgan bo'lishi kerak;

- ma'naviy madaniyatlikning ushbu mezonlarini shakllantirishning birdan-bir to'g'ri yo'li milliy maktablarni mustaqillik g'oyalari bilan amaliyotga joriy etishdan iboratdir. Demokratik ta'lim kontseptsiyasi asosida tashkil etiladigan milliy maktablar ta'lim-tarbiya mazmunini milliy asosda qaytadan ishlab chiqishni, milliy qadriyatlar, an'analar zaminida ona tilining o'rni beqiyos ekanligini inobatga olib, uning qonun-qoidolari tarixini, undan san'atkorona foydalanish usullarini chuqur bilishga e'tiborni kuchaytirishni, ta'lim-tarbiya shakllari, usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirishni, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yangi texnika va texnologiya asosida maktabni zamonaviy jihozlashni, ona tili bilan bir qatorda, jahon madaniyati bilan aloqa qilish vositasi hisoblangan chet tillarini o'rganishga e'tiborni kuchaytirishni; o'tmishdagi maktab, madrasalarimizning tajribalarini qiyosiy o'rganishni va ularni amaliyotga joriy qilishni; xalq maorifini partiyalar siyosatidan holi qilishni; shuningdek, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda o'qituvchi shaxsining kasb tayyorgarligini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mazkur talablarni ijobiy hal etish asosida yaratilgan milliy maktab o'quvchilarining o'zligini anglagan, ma'naviy barkamol kishilar bo'lib shakllanishlarida muhim markaz hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida milliy maktab yaratish negizida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish yuzasidan dastlabki ishlar qilinmoqda. Umumiy ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflariga intellektual meros va ma'naviy qadriyatlarni o'rganish imkoniyatlari tug'ildi. Maktab

dasturlariga "Odobnoma", "Tevarak atrof bilan tanishtirish", "O'qish" kabi o'quv fanlari dars sifatida rasman kiritildi.

Umuman olganda, O'zbekistonda mustaqillikka erishish sharoitida bilan intellektual meros asosida yoshlarni tarbiyalash masalasiga e'tibor kuchaytirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini uning aqliy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, badiiy, shuningdek, bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan intellektual salohiyatligi kabi ko'p qirrali tarkibiy qismlarini yaxlit jarayon sifatida amalga oshirishni taqozo etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida intellektual merosning tarkibiy qismlari o'quvchi ongiga ta'lim-tarbiya va butun faoliyati davomida o'zaro birlik va aloqadorlikda singdiriladi. Ayni vaqtda shuni ham nazarda tutish kerakki, intellektual meros tarkibiy qismlarining o'quvchi ongi va faoliyatiga ta'sir darajasi, ularning mazmuni, mohiyati va xarakterli xususiyatlariga bog'liqdir. Shuningdek, ayrim shaxsning intellektual salohiyati darajasi, avvalo, uning aqliy kamoloti bilan belgilanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, aqliy salohiyat ko'p jihatdan o'quvchining faollik darajasini namoyon qilish bilan belgilanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida faollikni oshirish, bu borada milliy-ma'naviy merosdan keng ko'lamda foydalanish va uning pedagogik imkoniyatlarini ta'lim tarbiya jarayoniga to'g'ri qo'llash murabbiylardan doimo izlanishni talab etadi. O'quvchining aqliy madaniyati jamiyat va tabiat qonun-qoidolari, hodisalar, bu hodisalarning bir-birlari bilan bog'liqligi, insoniyat hayoti, turmush tarzi, jamiyat taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, yaxlit idrok etish, takrorlash, tasavvur va tafakkur etish ruhiy holatlar jarayonida shakllanadi. Ilmiy bilimlar asosida kishilarning kundalik turmushida namoyon bo'ladigan ma'naviy fazilatlarining mohiyati chuqur anglab yetiladi va ongli ravishda ularga amal qilinadi. Chuqur bilim, malaka va ko'nikma ma'naviy madaniyatning barcha qirralarini o'quvchi ma'naviy ongi va faoliyatida shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy-nazariy bilim asosida o'quvchida insonparvarlik, sadoqat,

qanoat, mehr-muhabbat, adolatparvarlik, nafosat, dunyoqarash, e'tiqod, mehnatga ijobiy munosabat, din va bid'atni bir-biridan farqlash, tabiatga muhabbat, burch va huquqni anglash kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar shakllanib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ilmiy bilimlar zahirida umuminsoniy va milliy madaniy merosining mohiyatini chuqur anglab yetadi, uni idrok etish, tafakkur qilish, xulosalar chiqarish asosida tabiat va jamiyat qonuniyatlariga haqqoniy munosabati paydo bo'ladi. O'quvchidagi bu munosabat ongli ravishda amalga oshiriladi. Faoliyatni ongli va ilmiy asosda tashkil etish aqliy madaniyatning yuqori ko'rsatkichidir.

O'quvchining, o'zbek xalqining, intellektual milliy-ma'naviy merosdan bahramand bo'lmog'i, o'z tarixi, adabiyoti, san'ati, ma'naviy-ruhiy qadriyatlari, dinini puxta bilish asosida o'zligini anglashi, vatan, xalq, millat manfaatlarini uchun mas'ullik, milliy g'ururining shakllanishi aqliy madaniyatining sifat o'lchovlari hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy-ma'naviy madaniyati asosan o'quv fanlarini o'rganish jarayonida shakllanadi. Milliy-ma'naviy madaniyat ma'naviy madaniyatning boshqa tarkibiy qismlarini shakllanishida tayanch bo'lim hisoblanadi.

O'quvchining kamolotida axloqiy milliy-ma'naviy madaniyatning ahamiyati benihoya katta. Milliy-ma'naviy-madaniyat, axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, hatti-harakatlarini boshqarish tizimidir. Milliy-ma'naviy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi.

O'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosining ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xil. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatgo'ylik, mas'uliyatlilik, saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bundan tashqari ota boblarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan asor-u atiqalar, noyob kitoblar shular jumlasidan. Yuqoridagi xislatlar

faoliyat jarayonida ma'naviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda o'quvchi ongi va xulqiga ta'sir etadi. Milliy-ma'naviy merosning negizini axloqiy madaniyat tashkil etadi. Axloqiy ong o'quvchi ijodiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Uning mezonini axloqiy bilim, axloq normalari, axloqiy tafakkur hisoblanadi. O'quvchining axloqiy ongi uning xulq-atvorida mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, adolatparvarlik va boshqa yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni namoyon etadi. Shuning uchun milliy-ma'naviy merosni muhim vazifalaridan biri axloqiy ongni yuqori pog'onaga ko'tarishdir. Shu boisdan axloqiy ongning yetukligiga erishish uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo'lib, u insoniyat qo'lga kiritgan barcha axloqiy-ma'naviy yutuqlarni o'zlashtirish va shu bilan bir qatorda, muayyan sharoit taqozo etgan muammolarni bartaraf etish jarayonida amalga oshadi.

Ma'naviyat so'ziga to'xtalsak, arab tilidan olingan bo'lib "ma'nolar majmui" ma'nosini anglatadi. Kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir. Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zaruriy shartlaridan biri – boy, ilg'or ma'naviyatga ega bo'lishdir. Faqat moddiy jihatdan boy hamda ilg'or bo'lish jamiyat norasoligining muhim ko'rsatkichidir. Prezident I.Karimov ma'naviyat va ma'rifatni ko'tarish, targ'ib qilish, boyitish, aholining keng doirasiga yoyib, har bir fuqaroning yuksak ma'naviy darajasini ta'min etishni eng dolzarb masalalardan biri deb qayd etib qayta-qayta uqtirmoqda. Milliy so'zi millat so'zini negizi hisoblanib, millat xalq degan ma'noni anglatadi. Milliy meros keng qamrovli tushuncha bo'lib, ko'p hollarda milliy ongning mahsuli hisoblanadi. Milliy ong esa bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati boshqa xalqlarning bevosita ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va

madaniy–ma'naviy sohalarda faollik darajasi. Millat–kishilarning barqaror tarixiy birligi, umum iqtisodiy turmush hamda til birligi, madaniyati, ongi va ruhiyatining o'ziga hosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir.

Milliy madaniy merosga milliy ruhiyat, milliy til, milliy o'z-o'zini anglash, milliy qadriyatlar, milliy g'urur, milliy madaniy markazlar milliy an'analar millatparvarlik kabilar kiradi.

Milliy an'analar-millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va hislatlarning avloddan–avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishi tushuniladi. Milliy an'analar umuminsoniy an'analarning bir millat darajasida namoyon bo'lishidir.

Milliy istiqloq mafkurasi-xalqning o'zgalarga tobe bo'lmay erkin va ozod yashash, o'zini-o'zi idora etishga qaratilgan, uning istiqbolini belgilaydigan orzu-umidlari, qarashlari, g'oyalari majmui, jamiyat taraqqiyotining muhim ommillaridan biri. Milliy istiqloq mafkurasi-insoniyat tarixidagi eng ezgu va qadimiy g'oyalari dandir.

Milliy ong – millatning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, mehnati, boshqa millatlar bilan muloqat va mubohasasi jarayonida paydo bo'ladi va til bilan uzviy bog'liqdir.

Milliy ruhiyat – millatning ichki holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y fikrlari, maqsad va maslakhlari hamda kayfiyatlari bilan bog'liq mulohazalar majmui.

Milliy til – kishilarning tarixiy tashkil topgan barqaror birligi millat yoki elatning umumiy tili, ularning fikr almashish va muloqot vositasi, muhim rivojlanish omili.

Milliy o'zlikni anglash – har bir millatning o'zini xaqiqiy mavjud subyekt muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarini ifodolovchi ekanligini yagona til urf-odatlar an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyiligini tushinib yetishga milliy o'z-o'zini anglash deyiladi.

Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va millat qadriyatining sohibidir.

Milliy g'urur – har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida qadrlanib bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Bu tuyg'u o'z ona zaminini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan fahrlanish hissiyotidir.

Milliy ong vijdon, burch, mas'uliyat, hayo, g'urur kabi insonning ichki ruhiy hissiyotiga asoslanadi. Axloqiy madaniyatning maz'ini tashkil qiluvchi insonparvarlik, halol mehnat, o'zaro yordam, do'stlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, baynalminalchilik, rahovat, vatanparvarlik, burch hissi hamda kamtarlik kabi yuksak insoniy qadriyatlar axloqiy odat asosida o'quvchi ongi va faoliyatida tashkil topadi.

Milliy-ma'naviy merosga hurmat o'quvchining aniq maqsadini ko'zlab, doimiy, izchil uyushtirilgan faoliyati, jamiyat a'zolarining o'zaro madaniy munosabatlari, o'zaro ishonchlari, aloqalari zaminida maydonga keladigan holatdir. Axloqiy madaniyatning ma'naviy poydevori bo'lib, uning asosiy mezonini axloqiy bilimdir. **Bilimlar** ishonchga aylangan taqdiridagina xulqni tartibga solib turadi. Haqiqiy axloqiy ishonch o'quvchining axloq normalari, xulq-atvorini shakllantirishga olib keladi. **Faoliyatga ishonch** esa ongning uzoq muddatli faoliyati natijasida uning yuksak mahsuloti sifatida yuzaga keladi. Axloqiy madaniyatning shakllanishi axloqiy bilimning axloqiy ishonchiga, uning amaliyotiga o'tishi jarayonidan iborat bo'lib, bu jarayon uzluksiz xarakterga ega.

Milliy-ma'naviy meros faoliyatdan tashqarida munosabatlarsiz bo'lishi mumkin emas. Demak, milliy-ma'naviy madaniyatlilik o'quvchining xulqi va hatti-harakati orqali namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda:

- axloqiy ong, axloqiy sifat, axloqiy odat, axloqiy faoliyat boshlang'ich sinf o'quvchisi milliy-ma'naviy madaniyatini shakllantirishning muhim belgilarini tashkil etadi;

- milliy madaniy meros o'quvchining butun hayoti va faoliyati

jarayonida rivojlanadi va mazmunan boyib, shakllanib boradi;

- milliy madaniy meros boshlang'ich sinf o'quvchisi faoliyatiga doimiy izchil, sekin-asta singdirib borilgandagina u ijobiy natija beradi.

O'quvchining axloqiy ong va tafakkuri estetik his-tuyg'ulari bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Estetik did, kundalik hayotdagi go'zallikni his etish, undan zavqlanish, tabiatdagi nafosatni tushunish va uni idrok qilish ma'naviy madaniyatlikning mezonlaridan hisoblanadi. O'quvchining estetik madaniyati voqea-hodisalarni nafis va nozik idrok etishdan boshlanadi. Estetik idrok etish jamiyat va tabiatdagi voqea-hodisalarni tanlab idrok etishdan iboratdir. Turli-tuman axborotlarni tanlash asosida o'quvchi ongida uning his-tuyg'ularini qo'zg'aydigan, unda huzur, quvonch, g'amginlik yoki boshqa holatlarni vujudga keltiradigan narsa va hodisalarning timsollari yaratiladi. O'quvchining estetik madaniyati yuqori bosqichga ko'tarilishidan estetik his muhim o'rinni egallaydi. Estetik his insonni o'rab turgan muhitga munosabatining asosiy shakli bo'lib, hayot haqiqatini o'zlashtirishning, ijodiy fikrlash qobiliyatini ta'minlashning asosiy bosqichidir. Estetik his o'quvchining aqliy rivojlanishiga, bilim doirasining shakllanishiga, ijodiy qobiliyatining rivojlanishiga ta'sir etadi. Estetik his orqali o'quvchida ijobiy maqsadlar paydo bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari voqea-hodisalar, san'at va adabiyot asarlaridan estetik zavq olishi uchun u go'zallikni his eta bilishi, undan ta'sirlanishi, hayot go'zalligi, ijodiy badiiy yutuqlardan ilhomlanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun o'quvchi, avvalo, adabiyotni, san'atni bilishning ikkita eng muhim – adabiyot, san'at asarini bevosita idrok etish va uni baholash kabi tomonlariga alohida e'tibor berishi zarur.

Ma'naviy manbaalarni estetik bilish jarayonida o'quvchida estetik did, estetik g'oya, go'zallikdan estetik zavqlanish qobiliyati shakllanadi. Estetik his o'quvchida estetik didni paydo qiladi. Psixologik nuqtai nazardan estetik did hissiy va aqliy turmush tarzini uzviy bog'lab turuvchi shaxsning qobiliyatidir. O'quvchining

estetik didi uning o'rtoqlari, jamoasi, oila a'zolari, jamoatchilikning xulq-atvori, hatti-harakatlari, muloqot madaniyati, milliy, umuminsoniy qadriyatlarga munosabatlarida namoyon bo'ladi. Estetik madaniyatning asosini tashkil qiladigan estetik idrok, estetik hissiyot, estetik did, qarashlar, ishonch, talab kabi belgilari estetik g'oya uchun manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Estetik g'oyada go'zallik, hayotning rivoji, estetik hissiyot, qiziqish, ehtiyoj, munosabat hissiy shaklda ifodalanadi. Estetik g'oya ma'lum tarixiy sharoit, madaniy manbaa turi va janr xususiyatlaridan kelib chiqib, go'zallikni qaror toptirish, hayotni takomillashtirish orqali ifoda etiladi. Estetik g'oyani qaror toptirishda tarixiy shaxslar, badiiy asar qahramonlarining fikrlari, hissiyotlari, didlari orqali hayot haqiqati estetik baholanadi. Ashyoviy qadriyatlar esa hayot haqiqati estetik tasvirini to'ldiradilar, o'quvchi ko'z o'ngida yaxlit estetik g'oyani vujudga keltirishga xizmat qiladi.

Estetik g'oya o'zgaruvchan bo'lib, jamiyatdagi munosabatlar bilan boyib, o'zgarib boradi. Masalan, har qanday adib yoki hunarmand o'z ishi natijasi bilan hech qachon qoniqmaydi, ma'lum bir asarni, timsollarni, mehnat mahsulini yaratgach, yana unda yangi-yangi orzular, fikr-o'ylar, rejalar paydo bo'ladi. Estetik g'oya bo'lganligi uchun yozuvchi yoki hunarmandning maqsadi, vazifalari uzluksiz o'zgarib turadi. Shuningdek, o'quvchidagi yangi-yangi orzular, nuqtai nazarlar, rejalar, orzu-o'ylarning paydo bo'lishi bilan, undagi estetik g'oya to'lishib, rivojlanib boradi.

Demak, o'quvchining estetik madaniyati va intellekti uning chuqur estetik bilim va qiziqishi, yuksak estetik didi, estetik ehtiyoji, badiiy-estetik voqea-hodisalarni tahlil etish qobiliyati, estetik hissiyoti, o'z bilimini estetik jihatdan boyitishga talabining kuchliligi bilan izohlanadi.

O'quvchi jamiyatning badiiy-estetik hayotida, uning rivojlanishida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. U bu jarayonda insoniyat tomonidan yaratilgan badiiy-estetik manbaalarni, qadriyatlarni o'rganadi, ularning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Shu asnda o'quvchi jamiyatning badiiy-estetik

munosabatlari tizimida ma'lum o'rinni egallaydi. Shuning uchun jamiyatning badiiy-estetik rivojlanish jarayonida ishtirok etmagan, uni targ'ib qilmagan, undan ta'sirlanmagan, ilhomlanmagan, amaliy faoliyatida foydalanmagan o'quvchi shu jamiyatning yaxlit shakllangan a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Badiiy ilmiy meros ma'naviy asosga ega bo'lib, uning moddiy asosini nashriyotlar, kinoteatrlar, kutubxonalar, kontsert zallari, teleko'rsatuv, radio va boshqalar tashkil qiladi. O'quvchining intellektual madaniyatini shakllantirishda yetakchi o'rinni egallaydigan adabiyot va san'at asarlari, badiiy-estetik an'analar, bayramlar ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda intellektual merosning o'ziga xos bo'lgan bir qator qonuniyatlari aniqlab va asoslab berilgan. Shular jumlasiga badiiy madaniyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzum xarakteriga bog'liq ravishda rivojlanishi, milliy xarakteri, mustaqilligi, jamiyat taraqqiyoti jarayonida mavqeining oshib borishi, shaxsning ma'naviy dunyosiga ma'naviy madaniyatlarning boshqa qirralari bilan kompleks ravishda ta'sir etishi kabilar kiradi. Badiiy madaniyatning mazmuni – uning milliyligi va umuminsoniyliigi, badiiy boyliklarning hammabopligi, badiiy san'at asarlarining insonparvarligi, istiqbolliligi, g'oyaviy pishiqligi, hayotiy mushtarakligi bilan baholanadi. Badiiy madaniyat ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos estetik, aqliy, axloqiy, mafkuraviy aloqa vazifalarini bajaradi.

Jamiyat, tabiat, inson hayotidagi voqea-hodisalarning badiiy tasviri vositasida o'quvchi hayotini bilish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, xalqning turmush tarzi, uning ijodiy merosi bilan tanishish, bilim doirasini kengaytirish, o'z dunyoqarashini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan siyosiy madaniyatsiz ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini o'quvchi to'liq anglab yetishi mumkin emas. Siyosiy madaniyat o'quvchida siyosiy tafakkurni, ijtimoiy faollikni, jamiyat oldidagi mas'uliyat, ijtimoiy va ma'naviy javobgarlikni his etishni, haqiqat uchun kurashishni,

barchaga sadoqatni, millatlar, elatlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni, so'z va faoliyat birligini ta'minlash, erkparvarlikni, tinchlikni, tenglikni, ozodlikni va o'zligini anglashni belgilab beruvchi mezonidir.

Siyosiy bilim faqat erkinlik, ozodlik, mustaqillik sharoitidagina o'zini to'la namoyon qila oladi. O'quvchining hozirgi zamon siyosiy madaniyati umuminsoniy qadriyatlarga suyanadi, shu jumladan, insonparvarlik, demokratiya, huquqiy davlat va oshkoralik, bu madaniyatning to'rt ustunidir. Har bir o'quvchi bu faoliyatida insonparvarlik qoidalariga rioya qilishi, ya'ni bu faoliyat insonni himoya qilishga, uni ulug'lashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Insonparvarlik hozirgi zamon intellektual o'quvchisi uchun kundalik ma'naviy fazilat bo'lib qolishi, ikkinchidan, o'quvchini og'ir va faoliyati demokratik jamiyat yaratishga qaratilgan bo'lishi, uchinchidan, huquqiy davlat yaratishga o'z hissasini qo'shishga tayyor bo'lishini taqozo etadi. To'rtinchidan esa, har bir ma'naviy-ilmiy dunyoqarashni o'quvchi o'z faoliyatida oshkoralik uchun kurash olib borishi zarur. Bunday xususiyatlarni o'z xulq-atvorida mujassam eta olgan o'quvchi o'z faoliyatida har qanday og'ir vaziyatda ham paydo bo'lgan muammolarni muzokara, munozara, muhojirada yo'li bilan hal qilishga intiladi.

O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda uning aqliy, axloqiy, estetik, badiiy va boshqa qirralari yaxlit, bir-biri bilan o'zaro aloqada ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirning samaradorligi esa ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi ilmiy qiziqishi, talab va ehtiyojini hisobga olish, bu xususiyatlarning jamiyat ma'naviy taraqqiyoti talablari bilan mosligi, ma'naviy-madaniy manbaalardan o'quvchi yosh va ruhiy xususiyatlariga mos ravishda samarali foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali shakl, usul va vositalar asosida tashkil etish, ta'lim-tarbiya mazmunini umuminsoniy va milliy qadriyatlar negiziga qurish kabi muhim pedagogik talablarga rioya etishga bog'liq.

Shuningdek, aqliy madaniyatning – milliy bilimlarni puxta o'zlashtirish, yaxlit idrok etish, takrorlash, tasavvur va tafakkur etish,

axloqiy madaniyatning – axloqiy bilimlar, axloqiy ong, axloqiy odob, axloqiy ishonch, axloqiy faoliyat; estetik madaniyatning – estetik his, estetik did, estetik idrok, estetik qarashlar, ishonch, talab, g'oya.

Xalq pedagogikasi (xalq og'zaki ijodi, amaliy tajribadagi an'analar, urf-odatlar, xalq amaliy san'ati, xalq tasviriy san'ati, xalq musiqasi va b.) jamoa ijodkorligining tarkibiy qismi sifatida kishilarning ma'naviy birlashuvi timsoli, tub manfaatlari, orzu-armonlari umumiylikni ifodalovchi tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Xalq pedagogikasining tarkibiy qirralari kishilarning oliy maqsadlari, tasavvurlari, his-tuyg'ularining ifodasi sifatida pedagogik madaniyatning amaliyotda sinovdan o'tgan muhim belgilari, ya'ni xalqni ezgulikka, adolatga, ilmga, mehnatsevarlikka, insonparvarlikka da'vat etishdan iboratdir.

Tarixiy zarurat tufayli dinning paydo bo'lishi bilan u targ'ib etgan axloqiy-ma'naviy qonun-qoidalar asta-sekin kishilarning hayotga, turmush tarziga, ongiga, dunyoqarashiga, jamiyatdagi o'zaro munosabatlarga va boshqa qirralarga chuqur ta'sir ko'rsatib, jamiyat madaniy hayotining tarkibiy qismiga aylandi. Islom ta'limoti negizida ilg'or fikrlar sifatida insonparvarlik, axloq-odob, ilmiylik, mehr-shafqat, sadoqat, mehr-oqibat, sabr-qanoat, halollik va boshqa umuminsoniy fazilatlar imon-e'tiqod doirasida targ'ib etildi va muqaddas diniy manbaalarda (Qur'on, Hadis) bunday yuksak insoniy fazilatlar axloqiy qoida tarzida belgilab berilgan. Islom g'oyalarini targ'ib etuvchi tasavvuf ilmining namoyandalari ijodida "Ruh" va "Ishq", "Nafs" va "Axloq" tayanch nuqtalar hisoblanadi. Ollohning borligiga va yagonaligiga ishonch, unga bo'lgan botiniy muhabbat, u dunyodagi hayot nashidasi, har qanday qabihliklardan nafsni tiyish, shuningdek dil pokligi va ruh komilligiga da'vat tasavvuf mohiyatini tashkil etadi. Tasavvuf ilmida xudoga faqat toat-ibodat bilan emas, balki ma'naviy poklik, beg'uborlik, samimiylilik bilan erishish mumkin degan fikr ilgari suriladi (Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Shayx Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, So'fi Olloyor, Xo'ja

Ahror).

Sharq ma'naviy madaniyatining xilma-xil jihatlari uyg'onish davrida juda rivojlangan bo'lib, bu davrda yashab ijod etgan al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Sa'diy, Tusiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida insonning ma'naviy-axloqiy kamolotida, umumbashariy ma'naviy qadriyatlar yuksalishida muhim bosqich bo'ldi. Ular sharqona axloq-odob talablari asosida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma'naviy asosini yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Shuningdek, ijtimoiy tengsizlikni jamiyat a'zolarining o'zaro kelishuvi, bir-birlariga insoniy munosabati, aql va ilm olish, xudoga sidqidildan toat-ibodat qilish, davlatni adolat bilan boshqarish bilan bartaraf qilish mumkin degan mushohadani ilgari surdilar.

Bu davr ma'naviy ilmiy dunyoqarash mazmunida insonning ichki va tashqi holati, hissiyoti, mehnatga, turmushga munosabati, mehr-oqibati, muhabbati, sadoqati, bilimga (diniy va dunyoviy) intilishi, ma'naviy kayfiyati, aql-idroki, erki, asosan insonni tabiatning eng buyuk mahsuli sifatida kuylash, tasvirlash, ulug'lashdan iborat bo'lib, muhim oliy axloq, ma'rifatli va adolatli jamoa g'oyasi olg'a surildi.

Muhammad al-Xorazmiy o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida insonning oliy maqsadga erishishi, adolatli jamoa qurishi uchun ilmiy meros vositasida tafakkurini shakllantirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish lozim degan g'oyani olg'a surdi. Uning fikricha, inson faoliyatida aql-idrokka, tafakkur quvvatiga tayanib ish ko'rmog'i lozim.

Abu Nasr Farobiyning ma'rifiy qarashlari o'rta asrlarda mavjud bo'lgan ma'naviy-falsafiy muammolar – tana va ruh, borliq, harakat, fazo va vaqt, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, oliy jarayonlar to'g'risidagi tasavvurlar bilan omuxta holda

maydonga keldi. Uning fikricha, barcha muammolarni yechish kaliti oliy maqsadli jamoa, barcha ilmiy ma'naviy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan inson adolatli jamiyat, farovon turmushning garovidir.

Uyg'onish davrining yetuk mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik va didaktik g'oyalari negizini tashqi muhit va insonning jismoniy sog'lomligi orqali ma'naviy kamolotga erishishi muammosi tashkil etadi. U o'zining bir qator asarlarida fozil jamoaning har bir a'zosi ma'naviy madaniyati uning jismoniy va ruhiy intellekti orqali shakllantirilishi lozim degan fikrni ilgari surdi.

Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tiqod, muhabbat asosida shaxsni ma'naviy kamolga yetkazish g'oyasi nihoyatda muhimdir. Alloma barcha insoniy qadriyatlar ichida eng yuksagi insonparvarlik deb biladi.

Yusuf Xos Hojib Farobiy bilan Ibn Sinoning falsafasiga monand ravishda moddiy dunyoning yaratilishini ruhiy kuchga bog'liq ekanligini e'tirof etib, bu dunyoning taraqqiyoti ma'naviy takomilning oliy mezonini bilimlilik, aql-zakovatli insonlarga bog'liq deb, "Qayerda zakovat bo'lsa, o'sha joyda ulug'lik, farovonlik, kim bilimdon bo'lsa, o'sha inson buyuk, har qanday ezgu ishlarga moyil bo'ladi" degan g'oyani olg'a surib, barcha bilimlardan (diniy va dunyoviy) voqif bo'lgan, yuksak insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan barkamol insonning jamoaga rahnamo bo'lishi mumkin, bunday jamiyatda adolat, ma'naviy yetuklik, farovonlik, ma'rifat, hukmron bo'ladi degan xulosaga keladi.

Alisher Navoiyning pedagogika falsafasida kishilarning ma'naviy dunyosini belgilovchi fazilat – insonparvarlikdir. Alloma tasnifida ma'rifatli, adolatli, har qanday noxloqiy sifatlardan xoli, yuksak tafakkurli inson ma'naviy yetukdir.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining eng katta xizmatlari shundan iborat bo'ldiki, islom dini, uning qonun-qoidalarini hukmronlik qilgan bir davrda, dinning axloqiy-ma'naviy

qoidalarini inkor etmagan holda, tarbiyaning insonparvarlik g'oyasini yaratishga, milliy madaniyatni shakllantirishning milliy asoslarini ishlab chiqishga moyassar bo'ldilar. Shu nuqtai nazardan ham biz hozirgi kunda maorif tizimini ilmiy va milliyalashtirish bosqichida ta'lim-tarbiyaning mazmunini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish asosida o'quvchi shaxsining o'zligini anglashga erishishini amalga oshirish maqsadini hal etishda xalq pedagogikasi va o'tmish mutafakkirlarimiz ishlab chiqqan insonparvarlik qarashlari tizimini metodologik asos sifatida qabul qilishni lozim topdik va shu asosda o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda quyidagi metodologik yo'nalishlarga tayanish zarur deb bildik.

1. Ilmiy merosni, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zbek xalqining kelib chiqishi, millat sifatida shakllanishi va rivojlanishi, uning etnik yadrosining o'ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan o'rganish, ayni vaqtda tarixiy bosqichlarda bu zaminda yaratilgan ijtimoiy-madaniy qadriyatlar boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining ham madaniy boyligi ekanligini, ular yaratgan madaniy manbaalarning ajralmas bo'lagi ekanligini unutmaslik zarur.

2. Hamma tarixiy davrlarda jamiyatning gullab-yashnashi, uning ilmiy-texnik taraqqiyoti, kelajakdagi o'rni shu jamiyat ma'naviy boylik darajasi bilan baholanib keladi. Shu boisdan ham ma'naviy madaniyatning barcha manbaalari, uning tarkibiy qismlari o'zining tarixiyligi, insonparvarlik va xalqchilik yo'nalishlari bilan ajralib turadi. Milliy qadriyatlarimizning tabiat va jamiyat qonunlaridek, o'zining yuksalishi, turg'unlikka uchrashi, ziddiyatli jarayonlari, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashlari mavjud bo'lib, doimo ularning negizida sinovdan o'tgan yuksak insoniy fazilatlarga targ'ib etilganligini nazarda tutmoq zarur.

3. Har qanday jamiyat shaxsning ma'naviy barkamol bo'lishidan manfaatdor. Shu boisdan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishda moddiy va ma'naviy talablari, ajdodlar tajribasi, hayot taqozo etgan

umuminsoniy va milliy insonparvarlik xususiyatlariga bo'lgan ehtiyojni yetakchi o'ringa qo'yib munosabatda bo'lmoq lozim. Buning uchun har bir davrni o'sha davr tuzumiga chuqur kirib borgan holda jamiyat madaniyati, shaxs madaniyati, madaniyat va shaxslar, fikrlar va g'oyalarning yuksalishi jarayoni nuqtai nazaridan chuqur tahlil etib o'rganish, "Tayanch nuqta"ga asoslanish talab etiladi.

4. Markaziy Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining boy madaniy ilmiy merosida muhim o'rinni egallagan tarixan tarkib topgan ma'naviy-ruhiy qadriyatlarni, an'analarni, urf-odatlarini pedagogik g'oyalar rivoji nuqtai nazaridan o'rganish o'quvchining ma'naviy madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir etadi. Shu boisdan Markaziy Osiyo xalqlari yaratgan boy madaniy merosning ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali ularning umumjahon madaniyati xazinasidagi ahamiyati va qimmatini ochib beriladi.

5. Ilmiy meros rivoji madaniy manbaalarning o'zaro aloqasi va ta'sirisiz kechmaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda barcha xalqlar, millatlar ma'naviy manbaalarining o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siriga e'tibor berish talab etiladi. Ularning bir-birini boyitishi natijasida umuminsoniy qadriyatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiy etishiga asos bo'lishini nazarda tutmoq lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zbek xalqi milliy qadriyatlarini shakllantirishning bu ilmiy asosi to'rtta muhim ijtimoiy-ruhiy omilni hal etishga xizmat qilmog'i lozim:

- o'quvchida o'zbek xalqining ilmiy merosini o'rganishga ehtiyojni oshirishi;

- ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy muammolarni to'g'ri anglashga yordam berish;

- o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish zahirida, uning jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishini ta'minlash va o'quvchilarni faollashtirish;

- intellektual merosni shakllantirishning muhim manbai

bo'lgan o'tmish madaniy merosi, ma'naviy qadriyatlarni hozirgi zamon madaniy hayot bilan o'zaro aloqada, uyg'unlikda o'rganish, amaliy faoliyatda ularni o'zaro surilgan ilg'or g'oyalarga rioya etish, ularning umrboqiyiligini ta'minlash, rivojlantirish zarurligini tub ma'noda anglab yetish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda o'zbek milliy-ma'naviy merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari o'qituvchi uchun ham, ota-ona uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida keng imkoniyatlar eishigini ochib beradiki, bu o'zaro munosabatlarning samarali tizimini hosil qiladi.

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur. Intellektual salohiyatli barkamol yoshlarni tarbiyalashda esa yurtimiz har bir pedagogining o'z kasbiga bo'lgan ma'uliyati va bilimlari zarur bo'ladi.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'qituvchilarning o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga ta'sirini yuqori baholab shunday degan edi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan beboho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi tarbiyalarining olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizda yaxshi tasavvur qilamiz".

Bugun ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo'yilgan. Bu o'quvchilarga ijodiy jihatdan o'z-o'zlarini namayon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta'lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim tarbiya amaliyotida samarali va tejimli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi.

Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi? «Pedagogik texnologiya» nimani anglatadi?

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy

qilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyaning yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Ta'lim o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi.

Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalaridagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish maqsadidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-

qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilinga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rish tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanadi. Binobarin har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayotganligi va o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelayotganligi, o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas

qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizuall vositalar mavjudki ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Uchinchidan, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyaga uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv ob'ektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metodika doirasidan chiqib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo'llashga ehtiyojni tug'dirmoqda.

Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta'lim sifati, samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mazmunini bayon eting.

14-Mavzu

Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiya

Mavzu rejası:

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati va mazmuni.

2. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni milliy tarbiyalashning shakli va yo'llari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Prezidentimiz maktab ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritir ekan, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir" degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to'xtalib o'tdi. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu - maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir. Ma'lumki, murakkab o'tish yillarida maktablardagi ma'naviy ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan

takomillashtirish bo'yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xalq ta'limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohada islohotlarning huquqiy-me'yoriy asoslari mustahkamlandi. Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta'limi tizimi tiklandi. So'nggi uch yilda yurtimizda 157 ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi. Ulug' allomalarimiz - Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Is'hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Tarbiya san'atida o'zining pedagogik mahorati, o'zining «bir qolipdagi» mehnat madaniyati borki, ularni bilib olish zarur. Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish butun tizimi ana shuni bilib olishga qaratilishi kerak. Biroq, hali hech kim oliy o'quv yurtida o'qib yoki o'qituvchilar malakasini oshirish kursini tamomlagandan keyin usta pedagog bo'lib qolmagan. Pedagogik mehnat ustalari ta'lim muassasalarida vujudga keladi, o'quvchilar bilan muomalada shakllanadi. Demak, tarbiyaviy tadbirlar jarayonida pedagog pedagogik mahoratga ega bo'lish bilan birga, u o'quvchi qalbini tushunishi, uning qiziqish va moyilliklarini his qilishi kerak. Shunga ko'ra tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishi va o'tkazishi lozim. Albatta, rejalashtirish o'quvchilarning maslahatisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Tarbiyaviy tadbirlarni shunday tashkil qilish kerakki, unda o'quvchilar faol bo'lishsin, o'qituvchi esa nazoratchi sifatida namoyon bo'lsin. Shundagina ko'zlangan maqsadga aniq va tez erishish mumkin. O'quvchilar bilan tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda o'qituvchining muomala odobi ham juda katta ahamiyatga egadir.

O'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita yoki bilvosita

muomalasi o'tkazilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik jarayonida sodir bo'ladi. Mazkur jarayonni o'quvchilarning muomalasiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos vositasi deb qarash mumkin. Muomala - bu ma'lumotlar, axborotlar jarayonidir. Ushbu jarayon ikki yo'nalishda, ya'ni boshqarish subyektidan (o'qituvchidan) boshqarish obyektiga (o'quvchiga) borishi yoki aksincha - obyektidan subyektga borishi mumkin. O'qituvchi bevosita shaxslararo muomaladan o'z tarbiyalanuvchilari, umuman jamoa haqida, undagi ichki jarayonlar haqida g'oyat hilma-xil ma'lumotlarga ega bo'ladi va hokazo. O'z navbatida o'qituvchi muomala jarayonida o'z o'quvchilariga ham ustoz va shogird odobi an'analari mavzusiga qaratilgan ma'lumotlarni ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi o'tkazilishi kerak bo'lgan tarbiyaviy tadbirlar mazmuni, shakli, vositalari haqida o'z tarbiyalanuvchilariga ma'lumot berish bilan birga, ularning ishlash jarayonlari haqida ham tushuncha beradi.

O'zbek xalq pedagogikasida bolalarni insonga mehrlil, rahm-shafqatli, insonparvar, kindek qoni to'kilgan zaminiga mehr qo'yish va h.k. kabi tuyg'ularni singdirishga katta e'tibor berib kelingan. O'quvchilar ma'naviy-ahloqiy tarbiyasining muhim qismlari bo'lmish vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Maktabda o'quvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy hislardan vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishi, asosan bolalarning katta kishilar bilan qiladigan o'zaro muomala, muloqot va munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Insonda eng yuqori ma'naviy hislardan vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ulari bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Bularni bir-biridan ajratib qarash qiyin. Bular bir-birining zaminida paydo bo'luvchi, shakllanuvchi va shaxs ma'naviyatini belgilovchi histuyg'ulardir. Mehr-muruvvat his-tuyg'ulari vatanparvarlik, insonparvarlik histuyg'ulari zaminida va aksincha mehr-muruvvat his-tuyg'ulari zaminida vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg'ulari paydo bo'ladi.

Insonparvarlik tushunchasi - o'zbek millatida o'ziga xos alohida xususiyatga ega. Bu fikrlar zaminida Ona-Vatan va o'z xalqiga cheksiz muhabbat va mehr his-tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan avlodni kamol toptirish, uning ongida vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr - muruvvat histuyg'ularini shakllantirish vazifasi turganligini anglash qiyin emas. O'zbeklarning urf-odatlari bo'yicha, o'zi yashab turgan joy muqaddas hisoblanadi. Bu muqaddas tuproqqa nisbatan yovuz niyat, yomon so'z aytilmaydi. Vatan, yurt, millat tushunchalari ulug'vor tushunchalar bo'lib, hamisha mehr-muhabbatdan quvvat oladi. Shu jihatdan qaraganda, bu tuyg'ular egizak qondoshu- jondoshdurlar. Bu histuyg'ularni yosh murg'ak yuragida uyg'atish, uni rivojlantirish va takomillashtirib borish, barcha maktab o'qituvchilari faoliyatlarida, ota-ona, mahalla fuqarolarining muqaddas burchlari hisoblanadi. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ko'p jihatdan, barkamol avlod tarbiyasiga bog'liq. Buning uchun dono xalqimizning va mutafakkirlarimizning durdona fikrlariga rioya qilib, yoshlarimizga bolalikdan boshlab ajdodlarimiz tomonidan qo'llab kelingan eng xalqchil odob namunalari va histuyg'ularni o'rgatib borishimiz zarur.

Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehrmuruvvat his-tuyg'ulari - bu qo'shaloq tuyg'ular bo'lib, ularni bolalarimiz ma'naviyaxloqiy tarbiyasi tizimida birgalikda singdiriladi. Bolalarimizning ilk yoshlik paytlaridan boshlab, bu yuqori his-tuyg'ularini shakllantirib, o'stirib borish - ularni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirib beruvchi kelajakdagi barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi. Vatan tuyg'usi to'g'risidagi fikrlar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan yurtdosh mutafakkirlarimiz al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Mansur as-Samarqandiy, Ibn Sino asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulariga sodiq bo'lib, o'z asarlarida bu tushunchalarning muqaddas ekanligini XX asrning 30-

50 va nihoyat 80-yillarida xalqimizga qarshi uyushtirilgan ishlarda - qatag'onlik va surgun azoblarini o'z boshlaridan kechirib, halok bo'lgan yurtdoshlarimiz, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi yozuvchi, shoirlarimiz o'z asarlarida kuylaganlar. Hadislarimizda «Vatanni sevmoq iymondandir» deyiladi. Vatan ostonadan boshlanadi, deydi donishmandlar. Bu dono so'zlar har bir kishining o'z vatanini sevish va qadrlashga da'vad etadi. Demak, Vatan inson uchun o'zi tug'ilib o'sgan joy, go'shadan boshlanib butun bir mamlakatni qamrab oladi. Vatanni sevish - o'z ona qishlog'i, shahri, o'zi balog'atga yetayotgan joyini sevish va ardoqlashdir. Musiqani sevuvchi insonning ko'ngli ezgulikka moyil bo'ladi, ya'ni u jaholatga qarshi samarali vosita, o'tkir quroldir. U bor yerdan hajolat qochadi. U millat tanlamaydi, lekin milliy ruh uyg'otad. Ta'lim tizimida ham musiqiy ta'limni ushbu tizimni eng quyi pog'onasi bo'lgan maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatidan boshlab kuchaytirmoq, bu yo'lda uchrayotgan to'siq va muammolarni bartaraf qilmoq kerak. Chunki, biz ham farzandlarimizning kelajakda jaholatdan yiroq, ma'rifatli, fozil va komil insonlar bo'lib yetilishini istaymiz. Shuning uchun ularni bolalikdan musiqasevar, adabiyot va san'atning barcha jabhalariga ixlosmand, keng fikr, axloq-odobli, mehr-oqibatli, badiiy-estetik dunyovarashi yuksak qilib tarbiyalashimiz va shu ishni bolalar bog'chalaridan boshlamog'imiz lozim.

Jahonda madaniyatlararo integratsiyalashuv jarayoni kechayotgan hozirgi vaqtda yoshlarning ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlantirishning kreativ mexanizmlari ta'lim jarayoniga tadbiiq etilgan. YUNESKO² materiallarida ta'lim natijasi: bilishni o'rganish, bajarishni o'rganish, birga yashashni o'rganish, yashashni o'rganish asosiy global kompetensiyalar sifatida ta'kidlanib, yoshlarning ijtimoiy-xuquqiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish yoshlarni qo'llab-quvvatlashni samarali amalga oshirish, xuquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir

² MOO VPP YuNESKO «Informatsiya dlya vsekh» v 2007 godu.

salmogli loyihalarni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikmalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish qobiliyatlarini rivojlantirish ijtimoiy kompetensiyalar tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning psixo-fiziologik, antropologik, autopsixologik xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur masalalar bo'yicha Yevropa Kengashi 1996 yilda "Evropa uchun tayanch kompetensiyalar" mavzusidagi Simpoziumda³ Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarga uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan tayanch kompetensiyalarni⁴ tavsiya etilgan. Masalani yechimi sifatida o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni psixologik imkoniyatlarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonlarini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini modernizatsiyalash sharoitida o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga doir bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda jamiyat ehtiyojlari ta'lim paradigmasini o'zgarishi o'quvchilarni nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini hamda tayanch ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratildi. "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish"⁵ ustuvor masala sifatida belgilangan. Natijada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini pedagogik-psixologik xususiyatlarini, didaktik imkoniyatlarini takomillashtirishga

³ OECD Reviews of Evaluation and Assessment in Education «Synergies for Better Learning». OECD publishing, PARISCEDEC. 2013. 148-p.

⁴ Sovet Yevropi: Simpozium po teme «Klyuchevie kompetensii dlya Yevropi»: Dok. DECS / SC / Sec. (96) 43.Bern, 1996.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi PF-4947-soli Farmoni».

qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni imzolandi. Mazkur Farmon bilan "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida ishlab chiqilgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Farmon loyihasi bo'yicha 16,7 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan. Ularni har tomonlama ko'rib chiqish yakuniga ko'ra, hujjatga qariyb 100 ta konseptual hamda 200 dan ortiq aniqlashtiruvchi tahririy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Farmonda O'zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 100 ta maqsadlarga erishishga qaratilgan va 2022-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan 398 ta chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Rejalashtirilayotgan chora-tadbirlarni moliyalashtirishga 2022-yilda umumiy qiymati 55 trillion so'm va 11,7 milliard dollar miqdoridagi mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan. Taraqqiyot strategiyasi 7 ta asosiy yo'nalishdan iborat.

Birinchidan, Taraqqiyot strategiyasi loyihasi xalqimizning yuksak ishonch va e'tirofiga sazovor bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni saylov oldi dasturi, ya'ni "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asari hamda Prezident lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida bayon qilingan maqsad va vazifalar asosida ishlab chiqilgan.

Ikkinchidan, Taraqqiyot strategiyasida yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini eng oliy qadriyat etib belgilanmoqda va u milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi. Bunga yaqqol

miqdor Taraqqiyot strategiyasi "inson – jamiyat – davlat" degan yangi tamoyil asosida ishlab chiqilgan.

Uchinchidan, Taraqqiyot strategiyasi 94 ta milliy maqsadlarni qamrab olgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat: birinchi, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; ikkinchi, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; uchinchi, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash; to'rtinchi, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; beshinchi, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish; oltinchi, umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish; yettinchi, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

To'rtinchidan, Taraqqiyot strategiyasini har bir ustuvor yo'nalishi nomlanishidan boshlab, mazmun-mohiyatigacha inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan.

Beshinchidan, Taraqqiyot strategiyasi besh bosqichda, yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo'yicha "yo'l xaritalari" qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi. "Yo'l xaritasi" tuzilishi jihatidan mukammallashtirilgan va unda milliy maqsadlar, asosiy ko'rsatkichlar va chora-tadbirlar, uni amalga oshirish mexanizmlari va shakli, muddati, nazorat qiluvchilar, mas'ul ijrochilar aniq ko'rsatilgan.

Oltinchidan, Taraqqiyot strategiyasini alohida ustuvor yo'nalishi sifatida "ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish" belgilanmoqda. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish orqali milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish, madaniyat va san'atni yuksaltirish, "jaholatga qarshi – ma'rifat" tamoyili asosida unib-o'sib kelayotgan

yoshlarimizni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalashga alohida ahamiyat berish nazarda tutilmoqda. Bunday bebaho boylikni avaylab-asrash hamda davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini, mamlakatimizdagi do'stlik va ahillik muhitini yanada mustahkamlashga yo'naltirish maqsadida Taraqqiyot strategiyasida millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash belgilanmoqda.

Yettinchidan, Taraqqiyot strategiyasining yana bir yangi ustuvor yo'nalishi sifatida "umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda y'Yechim topish" belgilanmoqda. Bugungi kunda insoniyat ko'plab umumbashariy muammolarga duch kelmoqda va ularga y'Yechim topish nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda. Bunday muammolarni hal etishda kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, bu boradagi barcha sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish lozim. Bu esa, o'z navbatida, kelajagimiz qiyofasini belgilaydigan global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi y'Yechimlarini topish zarurligini anglatadi. Shuning uchun ham **Taraqqiyot strategiyasida** aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, **"Yashil makon"** umummilliy loyihasini amalga oshirish, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish, **"Vatandoshlar"** jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o'rnatish kabi maqsadlar belgilandi.

1. Metodika – bu xususiy didaktika, ya'ni biror bir fanni o'qitish nazariyasi. O'zaro ta'sir etishning turli shakllarini o'rganish asosida biror fanni o'qitish va o'rganish yo'llarini o'quv fani metodikasi ishlab chiqadi va ta'lim oluvchilarga ta'sir etishning aniq tizimini o'qituvchilarga taklif etadi. Bu tizimlar DTS, o'quv dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta'lim mazmunida o'z

alohidini topadi hamda ta'lim metodlari, shakllari va vositalari orqali amalga oshadi. O'quv fani metodikasi didaktika bilan mustahkam bog'langan va uning umumiy qoidalariga tayanadi. Tarbiya tamoyillariga asoslanib esa, metodika o'quv fani maqsadi, uning ta'lim oluvchi shaxsini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi.

Pedagog olim T.A.Ilinaning fikricha, didaktika turli ta'lim muassalarida xilma-xil o'quv fanlarini amalga oshiriladigan o'quv jarayonining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Tabiiyki, har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlariga ega, o'zining alohida metodlari va ta'limni tashkil etish shakllarini talab etadi. Mazkur masalalar bilan xususiy metodika, yoki alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi (tarix, matematika, pedagogika, psixologiya va boshqalar) shug'ullanadi.⁶

Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi – bu "Tarbiya" fanini o'qitishda nazariya va amaliyotning umumlashgan ko'rinishidir. U o'qituvchi va ta'lim oluvchilar bog'likdagi faoliyati, ta'lim mazmuni, shakl va metodlari birligi sifatida "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonini tadqiq etadi. "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi bo'lajak o'qituvchilarni yuqori kasbiy tayyorgarligini ta'minlash uchun butun e'tiborini ta'limning qonuniyatlari va tamoyillari, uning shakl va metodlarini asoslashga qaratadi. Bundan tashqari pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi doimiy ravishda pedagogika fanlarni o'qitishning qonuniyatlarini ochish va asoslab berishga hamda uning asosida ta'lim jarayonini boshqarish yo'llarini izlab topadi. "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi predmetini bunday tushunishdan kelib chiqib aytish mumkinki, u boshqa fanlarni o'qitish metodikasidan farqli ravishda ikki – umumiy va xususiy qismdan tashkil topadi.

Umumiy qismda "Tarbiya" fanini o'qitishning metodologik va umumnazariy masalalariga e'tibor qaratiladi. Ular pedagogika kollejlari pedagogik fanlarni o'qitishda bir xil darajadagi ahamiyatga ega. Ikkinchi bo'limda ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini o'qitish jarayoni, mazmuni, shakl va metodlariga alohida

⁶ Илина Т.А. Педагогика - М.: Просвещение, 1984, стр.202.

urg'u beriladi.

Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi o'quv fani sifatida «Ta'lim to'g'risidagi»gi Qonun asosida tubdan yangilandi. Ana shu asosdan kelib chiqib, pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanining *vazifalariga* quyidagilarni kiritish mumkin:

O'qitish jarayonini samarali tashkil etish natijasida har tomonla-ma rivojlangan, yuqori intellektual salohiyatga ega shaxsni shakllantirish.

Har tomonlama rivojlangan, yuqori intellektual salohiyatga ega shaxsni shakllantirishning markazida o'qituvchi turadi. SHuning uchun bo'la-jak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish – metodika-ning muhim vazifasidir.

Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi fani bo'lajak o'qituvchi-larga o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilimlarini yangi sifat daraja-siga, kasbga yo'naltira olishlariga, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyani yuksak darajasiga erishish yo'llarini ko'rsatib berishi zarur.

Talabalarni ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish uchun pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fani pedagogni ta'limning shakl, metod va vositalarini tanlab olish va tizimlashtirishga o'rgatadi.

Pedagogik ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik yo'nalganlikni shakllantirish uchun katta ijobiy tajribaga ega. Bunda pedagogik fanlarni o'ziga xos o'rni bor. To'plangan tajribalarni jamlash, tizimlashtirish, kelajakda qo'llash uchun tavsiyalar berish ham pedagogik fanlarni o'qitishning vazifalaridan biridir.

Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi pedagogik ta'sir etishning samarali tizimini ishlab chiqish uchun pedagogik psixologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, mantiq, kibernetika(ayniqsa, dasturlashgan ta'lim

elementlarini ishlab chiqishda) ma'lumotlariga tayanadi.

Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi fani oldiga o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o'quv faoliyatida o'quvchilarning o'quv faoliyati mustaqilligi va ijodiy faolligini shakllantirish yo'llarini aniqlash, tajriba-sinov ishlarining rolini oshirish kabi masalalarni ko'ndalang qo'ydi. Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi fanini oldida turgan dolzarb muammolardan biri ma'lumotlarni o'quvchilarning ushbu «yuk» bo'lib tushishini bartaraf etish. Ta'limning yangi texnologiyalari-ning rivojlanishi, ta'limni kompyuterlashtirishni amalga oshirish EHM qo'llash bilan bog'liq o'quv dasturlari, dasturlash tillarini ishlab chiqish-ni, pedagogik fanlarni o'qitishda kompyuterning o'rni va o'qituvchining rolini aniqlashni shart qilib qo'ydi.

Savol va topshiriqlar

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati nimalardan iborat va mazmuni.

2. Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiya mazmunidagi asosiy g'oyani tavsiflang.

15-Mavzu

Ekologik tarbiya. Jismoniy tarbiya

Reja:

1. Ekologik ta'lim-tarbiyannig mohiyati.
2. Ekologik tarbiyaning maqsadi va vazifalari.
3. Ekologik ta'lim-tarbiyaning yunalishlari.
4. Ekologik ta'lim-tarbiyani o'quv muaassalarida olib borish.
5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga jismoniy tarbiya berish vositalari.
6. Jismoniy mashqlarning tavsifnomasi.
7. Jismoniy mashqlarning turlari.

1. Ekologik ta'lim-tarbiyannig mohiyati. O'zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan chiqarilgan ko'p qarorlarda tabiat muhofazasiga oid ishlarni kengaytirish va takomillashtirish hamda bu soha bo'yicha mutaxassislarni fan-texnika taraqqiyoti talabiga javob beradigan darajada tayyorlash ko'zda tutiladi. Bu muammolarning hal bo'lish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yangi bosqichga ko'tarishda koinotning bir qismi bo'lmish ona tabiatimizni saqlash, uning tabiiy boyliklaridan rejali va tejamkorlik bilan foydalanish, tirik jonzorlar; shu jumladan, inson uchun toza havo, suv va tuproq, o'simlik va hayvonlarning yashash muhitini saqlashda kerak.

Mamlakatimizda fan-texnika, ishlab chiqarishda moddiy va ma'naviy kuchlarning rivojlanishi uchun ma'lumotli ekolog tarbiyachilar, ekolog-pedagoglar, ekolog-texnologlar, ekolog-injener, ekolog-instruktorlarning bo'lishi hozirgi zamon talabi bo'lib qoldi.

Xalq xo'jaligining turli sohalari o'yicha ma'lumotli, tajribali ekolog-agroximik, ekolog-entomolog, ekolog-agrobiologlar kerak bo'lib, ular ish jarayonida kelib chiqadigan har xil muammolarni echish borasida ekologik chora-tadbirlarni qo'llab, atrof muhit muhofazasiga oid ekologik ta'lim-tarbiya oila, bog'chalar,

maktablar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, turli korxonalar, tashkilotlarda uzluksiz olib borilishi kerak. Natijada o'rta va oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan hamjihatlikda qishloq xo'jalik, turli yo'nalishdagi og'ir va engil sanoat korxonalari, transport so'jaliklarida ekologik tozalikka rioya qilgan holda ish olib boradilar.

Kelajakda etishib chiqadigan turli sohadagi ekologlar zamonaviy fanlardan ma'lumot oladilar, fan-texnika yutuqlari bilan tanishadilar. Bog'cha, maktab, korxonalarda ishlab chiqarish tajribasini o'tib, o'zlarining amaliy qobiliyatlarini oshiradilar. Yuqori darajali yosh mutaxassislar bo'lib, tabiat va jamiyat qonunlarini mukammal o'rganib, atrof muhit muhofazasini ijobiy hal etadilar.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning nazariy asosi – atrof muhit muhofazasiga oid ta'limni bog'cha, maktab, katta-kichik o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlarida ma'lum o'quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Yig'ilgan tajribalar umumlashtirilib, bir pedagogik shaklda keltirilib, o'quv dasturi, darsliklar tuziladi.

2. Ekologik tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifa va maqsadlari insonni tabiat bilan va unda sodir bo'layotgan voqealiklar bilan qiziqtirish, inson, tabiat o'rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, echish yo'llari, chora-tadbirlarini topish yetarli ekologik bilimlarga ega bo'lgan holda atrof muhit muhofazasini amalga oshirishdir. Ekologik ta'lim tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlari; ular o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rgatish va zamonaviy fikrlay oladigan shaxsni tayyorlash;

2. ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini yo'naltirishda turli tabiiy hududlarning ekologik holatini biladigan va kelajakning ekologik rejasini tuzadigan avlodni tayyorlash;

3. har bir inson, jamiyat va jamiyat ichidagi turli guruhlar,

toifalar, sinflarning o'zlari yashab turgan tabiat, uning boyliklarni saqlashga xizmat qiladigan yoshlarni etishtirish;

4. jamiyat a'zolariga o'zlarining ijtimoiy, madaniy, diniy qarashlari va urf-odatlarini rivojlantirishda yashab turgan joy, vodiy, adirlar, tog'larning go'zalligi, ularning inson xayoti va saloamatligidagi ahamiyatini tushuntirish ishlarini olib borish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda bog'cha tarbiyachilari, maktab va o'quv yutlari o'quvchilari, turli o'yinlar, kinofilmalar orqali tabiiy va ijtimoiy fanlarni o'tishda o'zlari yashab turgan joydagi tabiiy voqelik va ekologik holatlarga bog'lab, ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi xamda darslar o'tishi kerak.

Shunday ishlar amalga oshirilganda har bog'cha bolasi, maktab o'quvchisi va talabalar o'simlikning qurishi, qushning uchmasligi, adir yoki to'qayning yonishi, suvning befoyda oqishiga befarq bo'lmaydi. Tabiat, uning jonzotlariga, o'zi ichadigan suvga nisbatan joni achiydi, ahvolni yaxshilash uchun ichki intilish tuyg'usi vujudga keladi. Bu esa insondagi yangi biologik kuchdir. Uning yangi aql-zakovatining inqilobi, ekologik ta'lim-tarbiyaning g'alabasi bo'ladi.

Ekologik ta'lim asosida inson, jamiyat a'zolarini tabiat va uning boyliklarini saqlash, tejamkorlik bilan foydalanishda to'g'ri va oqilona yo'l tutishi, amaliy ishlarni muhit muammolarini echishga bag'ishlashi, shaxsning ekologik ta'limoti, tarbiyasi va madaniyatiga befarqdir.

3. Ekologik ta'lim-tarbiyaning yunalishlari. Ekologiyani ta'lim-tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri jumhuriyatimizda tabiatni saqlash, uning turli boyliklaridan tejamkorlik bilan foydalanish borasida uzluksiz ekologik ta'limni tashkil qilish va shu sohaga oid umumiy ta'limni bog'chadan tortib turli korxonalarning xizmatchilari, rahbarlari orasida olib borishdan iborat.

Бунинг учун қуйидаги ишларни амалга ошириш шарт:

1. Tabiat muhofazasiga oid ekologik ta'lim-tarbiyani kuchaytirish va to'g'ri yo'lga qo'yish uchun pedagogik tajribalar, kuzatishlar olib borish bilan bir qatorda o'quv darsliklarini yaratish,

qat'iy darajadagi yuqori ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash shart;

2. Ekologik ta'lim-tarbiyani hamma joyda aholining turli guruhlari o'rtasida uzluksiz olib borish, o'quvchilarga tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish, ularning malakalarini oshirish, tabiiy boyliklarni saqlash, tejash borasida yoshlarni ekologik iqtisodchi qilib yetishtirish kerak;

3. Voqelikni o'rganish, muhitni muhofaza qilish borasida bog'cha, maktab bolalaridan tortib, yuqori yoshdagi rahbarlarda ekologik ta'lim-tarbiyaga nisbatan chidam, bartosh, toqat ko'nikmalar hosil qilib, ularga atrof-muhitga oid ta'lim beradigan qisqa va ko'p yillik kurslarni tashkil qilish shart;

4. Ekologik ta'lim-tarbiya olgan kishilar o'zlari yashab turgan joylarning ekologik holatidan xabardor bo'lishlari, yoshlarga o'qatishlari, tabiatda biror-bir ekologik o'zgarish sodir bo'lsa, kerakli tashkilotlarga xabar berish yo'llarini bilishlari kerak.

4. Ekologik ta'lim-tarbiyani o'quv muaassalarida olib borish. Ekologik ta'lim-tarbiyani bog'chalar va maktablarda olib borish yo'llari. Tabiat, uning go'zalligi va tabiiy boyliklarni saqlash borasidagi ishlarni oila, bog'cha bolalari va maktab o'quvchilari orasida olib borishdan boshlab, yosh va o'sib kelayotgan avlodni atrof muhit, undagi o'simlik, hayvon, suv va tuproqqa mehr-shafqatli, ularni asraydigan, boyitadigan jonkuyar qilib tarbiyalash kerak.

1. Shu maqsadlarga erishish uchun bog'cha bolalarini maxsus «Ekologik ta'lim-tarbiya metodikasi», «Tabiat bilan tanishish» kabi dasturlar asosida tarbiyalash hamda turli o'yinlar vositasi bilan tabiatga oid ekologik ta'lim elementlarini bolalar ongiga singdirish kerak;

2. Bolalarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish borasida olib boriladigan ishlar maxsus metodik qo'llanmalar, tavsiyalar, «Atrofimizdagi olam», «Atrofimizdagi tabiat», «Tabiatshunoslik» kabi o'quv-o'yin materiallari asosida oddiy, sodda va tushunarli formalarda olib borilishi kerak;

3. Bolalarga atrof muhit borasida ekologik ta'lim-tarbiya

beradigan tarbiyachi va metodistlarning o'zlari maxsus kurslarni tamomlagan, tajribali mutaxassislar bo'lishlari shart;

4. «Ekologik ta'lim va tabiya uslubi» dasturi asosida tarbiyachilarni qayta tayyorlash kurslari, leksiyalar, tajriba almashish seminarlari tashkil qilib, xizmatchilarning bilim va saviyalari, ishlash qobiliyatlarini oshirish kerak;

5. Maktablarda «Atrofimizdagi olam», «Tabiatshunoslik» o'quv kitoblari asosida «atrof muhit», «tabiat», «atrof muhit muhofazasi», «ekologiya», «ekologiya ziddiyatlari» kabi tushunchalar botanika, zoologiya, adabiyot, kimyo, fizika va ayniqsa, «Umumiy biologiya» fanlarini o'tishda alohida o'rin olishi kerak;

6. Maktab o'quvchilarini tabiat, agrotsenozlarga, ekskursionlarga olib chiqishda atrof muhit holati, uning muxofazasi alohida o'rin olishi, o'quvchilar shu ekskursion davomida o'zlari yashayotgan joyning tabiati, uning ekologik holati, unga ta'sir qilayotgan salbiy va ijobiy omillar, tabiat boyliklarini saqlash va boyitish borasida chora-tadbirlar ko'ra bilish bo'yicha bilim, ko'nikmalar va fikrlash qobiliyatiga ega bo'lib, ekskursiondan qaytishlari kerak;

7. Maktab va litsey o'quvchilari «yosh tabiatshunoslar», «Yashil patrullar» «Jonivorlarni asrovchi jonkuyarlar», «Ona-er patrullari», «Toza havo», «Moviy suv» patrullari, sog'lomlashtirish lanerida tuzilgan «Tabiat va fantaziya», «Yosh fenologlar», «Tabiatni muhofaza qilish» kabi to'garaklarda maxsus tayyorlagan «Yosh ekologlar», «Tabiatni muxofaza qilish» kabi to'garaklarni maxsus tayyorlagan «Yosh ekologlar» o'quv dasturi asosida atrof muhit muammolarini har tomonlama o'rganib borishlari kerak;

XXI - asr ekologiya asri bo'lishi shubhasizdir. Har bir inson ona sayyoramiz tabiatiga ziyon etkazmasdan o'zgartirish, tabiiy boyliklaridan okilona foydalanish va yashash muhitini saqlashdek muqaddas ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozimdir.

Texnika taraqqiyoti davrida jismoniy tarbiya va sportga katta ahamiyat qaratilmoqda. Chunki, texnik taraqqiyot davrida insoniyat

jismoniy mehnatdan ozod bo'lib, eng havfli «kam harakat qilish» kasalligiga uchramoqda, bu esa qon-tomir tizimining kasalligiga olib keladi.

Shuning uchun, oxirgi yillarda davlatimiz tomonidan chiqarilgan «Jismoniy tarbiya va sport» bo'yicha qonun va «Sog'lom avlod uchun» farmoni va dasturi bolalarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi, ularning sog'lom, mehnatsevar, baxtli bo'lishlari to'g'risidagi g'amxo'rlikdan dalolatdir. Shunday ekan, bolalarni jismoniy va har tomonlama rivojlanishi uchun jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanmog'imiz muhimdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda gigienik omillar, tabiatning tabiiy kuchlari, jismoniy mashqlar kabi vositalardan foydalaniladi. Har xil faoliyat turlariga kiruvchi (qo'l mehnati, musiqa asboblari chalish, loy va plastilindan narsa yasash, qurish-yasash, rasm chizish, kiyinish, yuvinish...) xilma-xil harakatlar bolalarning jismoniy rivojlanishiga ta'sir etadi. To'laqonli jismoniy tarbiyaga barcha vositalardan mujassam holda foydalanilganda erishiladi, chunki ularning har biri kishi organizmiga turlicha ta'sir etadi.

Jismoniy tarbiya vositalari.

1. Gigienik omillar.
2. Tabiatning tabiiy kuchlari.
(quyosh, havo, suv)
3. Jismoniy mashqlar.
4. Xilma-xil faoliyat turlari.
5. Massaj

Gigienik omillarga:

- a) mashg'ulotlar rejimi;
- b) dam olish;
- v) Ovqatlanish;
- g) uyqu;
- d) kiyim bosh, poyabzal;
- ye) jismoniy jihozlar, xonalar, maydonchalar... kiradi.

Ular jismoniy mashqlarning shuqullanuvchilar organizmiga

ta'siri samaradorligini oshiradi.

Gigiena omillari barcha organ va tizimlarning yaxshi ishlashiga yordam beradi. Masalan, muntazam sifatli ovqatlanish ovqat hazm qilish organining faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi va boshqa organlarga zaruriy oziq moddalarning o'z vaqtida yetib borishini ta'minlaydi, bolaning rivojlanishi va o'sishiga yordam beradi. To'laqonli uyqu nerv tizimiga dam beradi va uning ish qobiliyatini oshiradi. Xonalar, jismoniy jihozlar, atribut, o'yinchoqlar, bolalar kiyimlari va poyabzalining tozaligi kasalliklarning oldini oladi. Xonalarni to'g'ri yoritish ko'z kasalliklari (shabko'rlik va boshqalar) ning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Kun tartibiga qat'iy rioya qilish uyushqoqlikka, intizomlilikka o'rgatadi.

Tabiatning tabiiy kuchlariga quyosh, havo, suv kiradi, ular jismoniy mashqlarning organizmga ta'sirini kuchaytiradi va kishi ish qobiliyatini oshiradi.

Quyoshli, ochiq havoda yoki suvda (suzish) bajariladigan mashqlar jarayonida ijobiy emotsiyalar paydo bo'ladi (ko'proq kislorod yutiladi, modda almashuvi kuchayadi...)

Quyosh, havo, suv organizmni chiniqtirishga, uni yuqori va past temperaturaga moslashuv qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Bular natijasida issiqlikni idora qiluvchi apparat harakatga keladi, ya'ni kishi organizmi turli xil meteorologik omillarning o'zgarishiga o'z vaqtida javob bera oladigan darajaga keladi.

Suv terini kirdan tozalaydi, o'rmon bog'lardagi shifobaxsh moddalar (fitontsidlar) ga boy havo mikroblarni yo'qotishga yordam beradi, qonni kislorodga to'yintiradi. quyosh nuri teri ostida D vitaminining saqlanishiga xizmat qiladi, turli mikroblarni o'ldiradi va bolalarni kasalliklardan (raxit...) saqlaydi.

Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning kishiga har tomonlama ta'sir etuvchi asosiy o'ziga xos shaklidir. Ulardan jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini hal etishda foydalaniladi: aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Raqs mashqlari – organizmning barcha tizimlariga ta'sir qiladi, jismoniy fazilatlarini rivojlantiradi, harakatlar nafis, erkin ifodali bo'la boradi, ijobiy xislar paydo qiladi, to'g'ri qad-qomatni shakllanishiga yordam beradi. Shuning uchun raqs va o'yin elementlari (galop, oyoqlarni yonma-yon qo'yish kabilar) jismoniy tarbiya vositalari sifatida foydalaniladi.

Xilma-xil faoliyat turlariga kiruvchi harakatlar.

Xilma-xil faoliyat turlari (mehnat, rasm, chizish, narsa yasash...) ga kiruvchi harakatlar agar qomatni to'g'ri tutishga rioya qilinsa, shuningdek jismoniy yuklamalar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, sog'lig'ining ahvoli, jismoniy rivojlanishi va tayyorlanganligini hisobga olgan holda berilsagina bola organizmiga ijobiy ta'sir etish mumkin.

Massaj (silash, surtish, uqalash, shapatilash, titratish) teriga ta'sir qilib, bolaning butun organizmiga ta'sir etadi.

Massaj qon tomiri tizimiga ham ta'sir qiladi. Terida nerv uchlari ta'sirlariga javob tariqasida tomir reflekslari yuzaga keladi, kapilyarlar kengayadi qon aylanishi kuchayadi, issiqlik chiqarish ortadi. Massaj organizmni issiq havodan qizib ketishidan saqlaydi. Massaj ta'sirida yog' va ter bezlarining sektor funksiyasi yaxshilanadi, mushaklarda oksidlanish-saytarilish jarayoni va ularning qisqarish qobiliyati ortadi.

Massaj limfa tizimiga ta'sir qilib, suyuqlik oqimini tezlashtiradi.

Turli yosh bosqichlarida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirishning samaradorligi asosiy va qo'shimcha vositalarni to'g'ri o'shib olib borgan taqdirdagina oshadi. Chunonchi, bolaning dastlabki 3 oyligida gigiena omillari, tabiatning tabiiy kuchlari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Yosh orta borgan sari gigienik omillar, tabiatning tabiiy kuchlarining roli kamaymaydi, biroq uyqu, ovqatlanish va boshqalarga kamroq vaqt sarflanadi va birmuncha murakkab jismoniy mashqlardan foydalanish uchun zamin yaratiladi.

Mashqlar jismoniy tarbiya vositasi bo'lib chiqishi qadim zamonlarga bog'liq. Qazilmalar natijasida topilgan har-xil uy-ro'zg'or buyumlari, turli yodgorliklar, qoyalardagi rasmlar va tasvirlar avloddan-avlodga o'tgan, avlodning madaniyati, jismoniy madaniyatni yuzaga keltirgan.

Jismoniy mashqlar mehnat orqali vujudga kelgan. Jismoniy mashqlarni rivojlanishiga san'at, harbiy ish, din va milliy qadriyatlar o'zining salmoqli ta'sirini ko'rsatadi. Lekin jismoniy mashqlarning rivojlanishida moddiy talabchanlik va hayot sharoiti hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy mashqlar kelib chiqishdan boshlab, ijobiy bilim va malaka bilan bog'liq bo'lgan.

Jamiyatni va jismoniy tarbiyani rivojlanishi, jismoniy mashqlarni mehnat va harbiy ish bilan o'zaro bog'liqligi yuqolib bordi. Bu murakkab harakat faoliyatidan ayrim mashqlar (turli masofalarga yugurish, uzoqqa uloqtirish, uzunlikka sakrash...) ni ajratib olish va ulardan jismoniy tarbiya maqsadlarida foydalanish imkonini berdi. Shunga o'xshash nishonga otadigan bo'ldilar...

Mashqlarni alohida bo'linib, ajralib chiqishi endi kishilarni mehnatga, jismoniy tarbiya va sportga hamda harbiy ishga tayyorlay boshladi va bu ularni jismoniy va ruhiy rivojlanishlarini ta'minlaydi.

Jismoniy harakatlar bu erkin harakatlardir. Ularni bajarish, to'xtatish, o'zgartirish kishi ixtiyori bilan amalga oshiriladi.

Jismoniy mashqlarni shakli va mazmuni.

Jismoniy mashqlar bir-biridan ham mazmun, ham shakl jihatidan farqlanadi.

Jismoniy mashqlar mazmuniga qator jarayonlar fiziologik, biologik, bioximik, psixolik bog'liqligi kiradi. Jismoniy mashqlarni bajarish (ixtiyoriy harakatlar) harakat tasavvuri, diqqat, tafakkur, irodaviy zo'r berish, hissiyotlar kabi psixik jarayonlar bilan bog'liqdir. Turli jismoniy mashqlarni bajarishda organizmning yurak-tomir, nafas olish tizimida o'zgarishlar yuzaga keladi.

1. Jismoniy mashqlar mazmuniga pedagogik nuqtai

nazardan qaraganda ularning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal etish (harakat, ko'nikma va malakalarining shakllanishi, jismoniy fazilatlarni rivojlantirish) Tayyorlov fazasi – asosiy fazani bajarish uchun juda qulay sharoit yaratadi. Masalan, irg'itishda qo'lni va tanani orqaga tebratish.

2. Asosiy faza – muhim harakat vazifasini hal etishga yo'naltirilgandir. Masalan, uloqtirishda to'pni otishga xizmat qiladi. Asosiy faza mashqlarni bajarish usulining mohiyatini tashkil etadi.

3. Yakunlovchi fazaning vazifasi harakatni to'xtatish va muvozanatni saqlash, uzoqqa uloqtirgandan so'ng chiziqli kesib o'tmaslik, yugurib kelib uzunlikka sakragandan so'ng yiqilmaslikdan iboratdir.

Uchchala faza chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini davom ettirib bir butunlikda bajariladi. Barcha jismoniy mashqlar fazoda bajariladi. Fazoviy tavsif o'z ichiga dastlabki holat, mashqlarni bajarish paytida gavda va uning qismlarini holatini, traektoriyasini oladi.

Dastlabki holat (DH) – bu gavda qismlarining mashqlarni bajarish arafasida nisbatan harakatsiz holatidir, u harakatga tayyorgarlikni ifodalaydi.

Dastlabki holatni o'zgartirib, tana holati qismlarini ketma-ketligini o'zgartirib organizmga ta'sir etuvchi jismoniy yuklanishlarni to'g'ri boshqarib olib borishga ham imkoniyat yaratadi.

Harakat traektoriyasi – ya'ni tana holati harakatlanayotgan gavda qismining yo'nalishi traektoriya deyiladi. Traektoriyada shakl, yo'nalish va amplituda aniqlanadi.

Tana qismi yoki buyumni o'tish yo'lini traektoriya (yo'nalish) deb ataladi. Shakl jihatidan hamma harakatlar to'g'ri chiziqli va egri chiziqli yo'nalishda bo'ladi. Boksda va qilichbozlikda to'g'ri chiziqli harakatlarni uchratish mumkin. Qolgan hamma mashg'ulotlarda, sport turlarida faqat egri chiziqli harakatlarni ko'rish mumkin.

Harakat yoʻnalishi. Jismoniy mashqlarning ayrim muskullar rivojlanishi va harakat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarilishiga (nishonga tekkizish) harakatlanayotgan gavda, uning qismlari (yoki buyumga) beriladigan yoʻnalishga bogʻliq. Kishi gavdasining asosiy yunalishlarini quyidagicha atash qabul qilingan: yuqoriga-pastga, oldinga-orqaga, oʻngga-chapga.

Harakatlar amplitudasi – bu gavda qismlari oʻzgarishi yoʻlining kattaligidir. Ular burchak kattaliklari (graduslar) chiziqli oʻlchovlar (qadam uzunligi), shartli belgilar (yarim choʻqqayishlar) yoki tashqi chamalasi (polga tekkuncha engashishlarda) bilan belgilanishi mumkin.

Harakatlar amplitudasi suyak, boʻgʻin, pay va mushaklarning elastik tuzilishiga bogʻliq.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi (maʼruzalar matni) Mahkamjonov K.M, Tulenova X.B. T.,2002
2. D.J.Sharipova, L.M.Semenova... Kichkintoylarni gigienik tarbiyalash. T.,1997
3. A.V.Keneman, D.V.Xuxlaeva
4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi. T.,1988
5. Bolalar bogʻchasida jismoniy tarbiya. T.I.Osokina. T.,1978
6. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. -T.: Oʻqituvchi, 1991.
7. Novikov Yu.I. Oxrana okrujayuey sredi. –M.: Vishaya shkola, 19987.
8. Egamberdiev R. Ekologiya. –T.: Oʻzbekiston, 1993.
9. Tursunov X.T. Ekolojiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. –T.: Saodat RIA, 1997.
10. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. –T.: Yangi asr avlodi, 2005.
11. Toʻxtaev A., Xamidov A. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. –T.: Oʻqituvchi, 1995.
12. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera.-T.: Oʻqituvchi,

1995.

13. Tilovov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. –Qarshi:

Nasaf,

14. Toʻxtaev A. Ekologiya.-T.: Oʻqituvchi, 1998.

www.ziynet.uz

16-Mavzu: Axloqiy tarbiya. Estetik tarbiya

Reja:

1. Odob-axloq normalari
2. Talabalarning xulq madaniyatini shakllantirishda ijobiy ta'sir etadigan vositalar
3. Estetik tarbiyaning tarkibiy qisimlari
4. Kichik maktab o'quvchilarining estetik tarkiblari
5. Estetik tarbiyaning natijalari

1. Talaba-yoshlarni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo'lib qoldi. Chunki davlatning asosini ma'naviyat tashkil etadi, ma'naviyatiga e'tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo'lmaydi. Shuni aytish kerakki, insonning ma'naviyati uning axloqi, odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Axloq esa aqliy, huquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson axloqiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Demak, axloq insonning ijobiy sifatleri majmuidir. Odob va axloq bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Odob alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir. Odob – bu har bir insonning jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurishturishida o'zini tuta bilishini ko'rsatadi. Axloq – jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq odob normalari. Madaniyat – jamiyatning unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi. Ma'naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy intellektual fazilatlar majmuasidir. Mustaqil fikrlash – bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi. Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy-hayotiy bilimlar majmualarining keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash. Ijodkor pedagog talaba-yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirishda ma'naviy qadriyatlarning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Pedagog ijodkorligi

natijasida talaba-yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san'ati, an'analari va urf-odatleri haqida chuqur bilim oladi. Talabalarning ma'naviy merosga bo'lgan qiziqishi oshadi. Dars jarayonida samimiy, sog'lom ma'naviy muhit yaratiladi. Ma'naviy meros manbalaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning xulq madaniyati kamol topadi. Talaba-yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirish, birinchidan, dars jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga, ikkinchidan ta'lim mazmuniga va pedagog-talaba hamkorlik faoliyatiga bog'liq. Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas'uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunda har bir darsdan pedagog maqsadni aniq ko'ra bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to'g'ri belgilab olishi lozim. Dars jarayonidagi bilimlar mazmunining ilmiyligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, qiziqarliligi talabalarda ta'lim va tarbiyaviy tomondan o'rganiladigan bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ularning bilimni kengaytirish, yuksak xulqli bo'lish kabi ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Albatta, bunda dars shakllarini tanlashda mavzuning mohiyatiga alohida e'tibor beriladi. Masalan, kasb-hunar kollejlari adabiyot darsi an'anaviy dars yoki munozara tarzida uyushtirilsa, mutaxassislikka oid darslar seminar, yoki munozara tarzida, chet tili darslari o'yin yoki savol-javoblar, suhbat darslari tarzida uyushtirilishi mumkin. Barcha shakldagi dars jarayonlarida talabalar xulq madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirish uchun savol-javob qilish, munozarali vaziyat paydo qilish, mustaqil ishlash, turli o'yinlardan foydalanish kabi usullardan foydalanish muhimdir. Talabalarning ma'naviy sifatlerini shakllantirishda ularga o'tmish adabiyoti, tarix, milliy urf-odatlar, an'analar haqida bilim berish pedagogdan doimo faollik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Talabaning ma'naviy ehtiyojini qondirish, qiziqishini o'stirish mustaqil ishlar, har xil ijodiy ishlar (insho, referat va boshqa) orqali amalga oshiriladi. Mustaqil ishlar pedagog va talaba faoliyatining uzviy bog'langan tomonlaridir. Mustaqil va ijodiy ishlarda talaba o'z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi, o'z nuqtai nafari, qarashlarini shakllantirish bilan birga dunyoqarashi va manaviy saviyasini

namoyon etadi. Mustaqil ishlash ko'proq darslik ustida ishlash, manbalarning mazmunini tahlil etish, ma'ruza, referat, konspekt tayyorlash, ijodiy insho yozish (chet tilida ham) kartochkalarga yozma javob berish, turli jadvallar, diagrammalar, sxemalar tuzishni taqozo etadi. Bularning barchasi talabadan izlanuvchanlikni talab qiladi. Mustaqil ishlar, seminarlarni tashkil etishda 4 xil manbalarga asoslanadi. a) Darslik materiallariga; b) Ma'naviy meros hisoblangan xalq og'zaki ijodi, diniy manbalar, mumtoz adabiyot va boshqalar; v) Ommaviy axborot vositalari materiallariga (jurnal, gazetalar, radio eshittirishlar, oynai jahon ko'rsatuvlari); g) Hayotiy misollarga (oilaviy-maishiy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, ma'naviy qadriyatlar va h.k). Og'zaki mustaqil ish turlari va o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini talabalar amaliy faoliyatida mustahkamlashtirishga yo'naltirilgan ba'zi bir yozma shakldagi mustaqil ishlar (insho, savollarga yozma javob topish, jadval, diagramma, kartochkalarni to'ldirish)dan aralash dars shaklida keng foydalanish yaxshi samara beradi. Dars jarayonida pedagog ma'naviy meros manbalaridan ustalik bilan foydalanishi, ularning ta'lim va tarbiyaviy ta'sirini hisobga olishi, darsni "qanday tarzda tashkil etilishidan qat'iy nazar (o'yin darsi, munozara darsi, sinov darsi va h.k.) uni uyushtirishda faol, ijodkor, qat'iy bo'lishi, ma'naviy merosni yaxshi bilishi va uni amaliyotga tatbiq qila olishi zarur. Talabalarning og'zaki mustaqil tayyorgarligi asosida noan'anaviy dars shakllarini uyushtirish ham xulq madaniyatini shakllantirishning samarali usullaridan hisoblanadi. Bunda turli mavzulardagi bahsmunozara darslarini o'tkazish mumkin. Bunday darslarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talaba keng hajmdagi ma'naviy manbalarga, badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalariga, pandnomalar, diniy manbalar, sharq allomalari hayotiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop, avtobiografik asarlar, matbuot va ommaviy axborot materiallariga murojaat qiladi. Natijada muammoli savollarga javob topadi, ajdodlar ma'naviy merosi bilan tanishishga muyassar bo'ladi. Bunday darslar yetarli tayyorgarlik, mahorat va keng ko'lamli bilim, tajriba, mustaqillikka

asoslangan holda tashkil etilsa, talabaning xulq madaniyatini shakllantiruvchi quyidagi ijobiy natijalarni beradi: - dars davomida talabaning erkinligi, mustaqilligi, faolligiga erishiladi; - talabalar jamoa fikriga tayanishga, uni hurmat qilishga o'rganadilar, bu bilan ularda o'zaro hurmat, muloqot madaniyati tarbiyalana boradi; U talabalar o'z fikr mulohazalarini, qarashlarini himoya qilish, ularni boshqalarga yetkazish mahoratini egallaydilar; - talabalarda u yoki bu adibning qarashlarini, xalq pedagogikasi, hayot tajribasi asosida ko'tarib chiqilgan muammolar mohiyatini davr bilan bog'lash, atrof-muhit talabi, imkoniyati asoslarini haqqoniy baholash malakasi shakllanadi; - talabalarning o'zbek xalqining ma'naviy turmush tarzi haqidagi bilim darajasi ortadi, axloqiy - ma'naviy sifatlari shakllanadi; - har bir talabada o'z-o'ziga talabchanlik, o'z-o'zini nazorat qilish hissi ortadi, o'z ustida ishlashga, o'zini anglashga e'tibor kuchayadi. Bunday muvaffaqiyatli natija sinov darslari, yakuniy darslarda namoyon bo'ladi. Talaba xulq madaniyatini asosiy mezonlari: insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-muhabbat, iymon, ijodkorlik, faollik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholashni talab etadi. Bu talab talabaning Vatan, ota-ona, do'stlari, jamoa oldidagi burchi, vazifalariga, ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan faollik, ijodkorlik xususiyatlariga munosabati orqali amalga oshiriladi. O'z bilim, hatti-harakati, atrof-muhitga munosabatini nazorat qilish, o'z-o'zini baholashni tashkil etish talabaning yozma ijodiy faoliyati orqali samarali namoyon bo'ladi. Ta'limning samarali shakllari, an'anaviy va noan'anaviy dars turlari, vositalari va usullaridan, jumladan, ta'lim jarayonida talabalarning turli ijodiy yozma ishlari: insho, referat, konspekt, ma'ruza kabi turlaridan keng foydalanish zarur. Dars jarayonida talabalarning yozma ijodiy ishlaridan samarali foydalanish uchun qator pedagogik shartlarga amal qilish zarur. Bunda: - mustaqil ijodiy ishlarning turlari, mavzusi, xarakteri va unga qo'yiladigan talablar aniq belgilab berilishi; - chet tili, adabiyot va boshqa darslarda mustaqil yozma ishlarni uyushtirish va ularni amalga

oshirish uchun qisqa uslubiy tavsiyalar tayyorlash; - pedagog ma'naviy sifatlarini, ma'naviy tarixi, qadriyatlar mazmuni va xarakteri haqida yetarlicha bilimga ega bo'lishi, ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'llarini bilishi; - pedagog ham, talaba ham darslik va qo'shimcha manbalar bilan mustaqil ishlashi; - pedagog ta'limni tashkil etishning an'anaviy va noan'anaviy shakllari, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari, ish natijalari haqida to'liq pedagogik bilim bilan qurollangan bo'lishi; - pedagog har bir dars mavzusi, dars shakli, usul va vositalarini talaba xulq madaniyatining shakllariga ta'sirini oldindan ko'ra bilishi; - yozma ijodiy ishlar talabalarning ixtiyoriyligi, ijodkorligi, qiziqishi asosida amalga oshirilishi lozim. Dars jarayonida yaratilgan ma'naviy muhit talabalarda ijodkorlik, erkinlik, faollik, tasavvur boyligi va bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Dars jarayonida ma'naviy merosimiz: o'tmish allomalarining fikr-qarashlari, odob-axloq, to'g'risidagi turli hikoyalar, xalq og'zaki ijodidan turli rivoyatlar, maqollardan foydalanish talabaga ma'naviyatimiz xazinasi haqida puxta bilim olish, egallangan bilimni namunali namoyon etish, dastur va darslik materiallarini hayotiy tajribadan olingan misollar bilan mazmunan to'ldirish, ruhiy holatlar, tasavvur, idrok, hissini bayon etish, hozirjavoblik, ta'sirchanligi bilan farqlanadi.

2. Talabalarning xulq madaniyatini shakllantirishda ijobiy ta'sir etadigan vositalar:

a) inson hissiyoti bilan bog'liq, uning idroki, tafakkuri, tasavvuri mahsuli bo'lgan madaniy estetik manbalar (adabiyotlar, tasviriy san'at asarlari, musiqa, ilmfan, diniy manbalar va h.k.); b) illyustratsiya materiallari, madaniy meros sifatida qadrlanadigan geografik xaritalar, (Al-Xorazmiy yaratgan xarita), matematik-astronomiya jadvallari (Beruniy, Ulug'bek), miniatyuralar (Behzod), xalq amaliy san'ati namunalari, milliy kiyimlar va h.k.; v) tabiiy o'lkashunoslik materiallari: tarixiy me'morchilik obidalari, muqaddas qadamjolar, ma'rifiy maskanlar, uy-muzeylar

va h.k.; g) obrazli-ta'sirchan ifoda vositalari (ma'naviy meros haqida diafilm, kinofilm, sahna asarlari, radio eshittirishlari, oynai-jahon ko'rsatuvlari, matbuot materiallari); d) o'quv-tarbiyaviy, ijodiy ko'rgazmali vositalar, talabalar yoki pedagog tomonidan tayyorlanadigan jadvallar, har xil ijodiy ishlar, referat, ma'ruza, konspekt, kichik-kichik poetik asarlar, manzaralar tasviri va h.k. Bu vositalardan dars jarayonida unumli foydalanish, noan'anaviy dars shakllarining amaliyotga keng joriy etish imkoniyatini yaratadi, talabalarning darsga qiziqishini oshiradi, o'rganiladigan mavzularning mohiyatini chuqur anglab yetish imkonini beradi, mustaqil fikrlash, og'zaki va nutqni boyitish kabilarni shakllantiradi. Mustaqil ishda talaba o'z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi, o'z nuqtai nazarini, qarashlarini shakllantiradi, dunyoqarashi va ma'naviy saviyasini namoyon etadi. Dars jarayonida ma'naviy meros manbalaridan foydalanish natijasida talabalarda ma'naviy merosga muhabbat, sadoqat, milliy o'zligini anglash, milliy g'urur shakllanib boradi. Bu esa, o'z navbatida talabalarda xulq madaniyatini shakllantirishga zamin bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, dars talabalarning xulq madaniyatini shakllantirishning muhim shakli bo'lib, ma'naviy merosdan foydalanishda ta'lim-tarbiya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy meros manbalaridan foydalanish darsni samarali va qiziqarli tashkil etish, turli ko'rgazmali qurollardan, darsda noan'anaviy vositalardan foydalanish talabalarda xulq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi muhim omillar bo'lib hisoblanadi. Albatta bunda pedagogning darsni tashkil etishi ham muhim ahamiyatga egadir. Talabalar jamoalarini tashkil qilish pedagogdan turli-tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanishni talab qiladi: 1. Pedagog jamoa a'zolarini yangi sharoitga moslashtirish jarayonida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik, talablarni to'g'ri qo'ya bilish, shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bo'lishi kerak. 2. Talabalar jamoasidagi etakchi kuch-tayanch o'zagini tanlash. 3. Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish. 4. Jamoada

yangi an'ana, qonun-qoidalarining dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish. 5. Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'qib-uqqan, chuqur odob-axloqli, adolat va adolatsizlikning farqini tushungan inson qaysi yo'ldan borayotganligiga tushunib yetadi. Yurtiga nisbatan mehr, g'urur paydo bo'ladi. Natijada u ham Vatanning ravnaqiga munosib farzand sifatida o'z hissasini qo'shadi. Ajdodlarimiz yashab o'tgan, meni o'z bag'riga olib ulg'aytirayotgan Vatan uchun men nima qila oldim, meni go'dakligimdan yedirib-ichirgan ota-onam, ona zamin, qonlari tomirimda jo'sh urayotgan ajdodlarimiz sha'niga munosib ishlar qilayapmanmi, degan savollarini o'z vijdoni oldiga ko'ndalang qo'yadi. Demak, har bir talaba qaysi mutaxassis egasi bo'lishidan qat'i nazar Vatanga muhabbatli, iymonli, adolatparvar bo'lishi muhimdir. Bunday fazilatlarini o'zida kasb etgan yoshlar qanday vaziyatda bo'lmasin hamma vaqt o'ziga to'g'ri yo'l tanlay oladi. Mustaqil jamiyatimizning kamol topishida o'zlarining chuqur bilimlari va adolatli hatti-harakatlarini ko'nikmaga aylantirishi bunday nufuzli talaba yoshlarning asosiy vazifalaridir.

Antropologlarning ta'kidlashicha, go'zallik va totuvlikka ehtiyoj odamlarga xosdir. Ushbu komponentsiz dunyoning yaxlit rasmini, shuningdek, shaxsning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin emas. Qadim zamonlardan beri donishmandlar bolalarni mehr va go'zallik muhitida tarbiyalashni maslahat berishgan. Yigitlar uchun go'zallik va jismoniy rivojlanishni idrok etish ustuvor, yoshlar uchun - turli xil san'at turlarini o'rganish va ulardan zavqlanish sifatida qabul qilindi. Shunday qilib, shaxsning estetik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati doimo tan olingan.

"Estetika" atamasi yunon tiliga qaytadi *aisteticos* (hislar orqali seziladi). Go'zallikning turli shakllari ushbu falsafiy ta'limotning asosiy tadqiqot mavzusiga aylandi. Aqlli, ma'naviy jihatdan rivojlangan inson tabiatdagi, san'atdagi va kundalik hayotdagi go'zallikni qanday ko'rishni biladi, atrofdagi haqiqatni jalb qilishga intiladi.

Biroq, zamonaviy jamiyatda iste'molchilik, moddiy qadriyatlarga egalik qilish tendentsiyasi sezilarli bo'lib bormoqda. Shaxsning intellektual tarbiyasiga katta ahamiyat beriladi. Rasional-mantiqiy yondashuv hissiy, hissiy komponentni siqib chiqaradi. Bu nomoddiy madaniy merosning qadrsizlanishiga, insonning ichki dunyosining qashshoqlashishiga va uning ijodiy talohiyatining pasayishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan yosh avlodni estetik tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Uning maqsadi shaxsiyat madaniyatini shakllantirishdir, unga quyidagilar kiradi:

- Estetik hislar. San'at va hayotda go'zallikni ko'rish qobiliyati.

- Estetik tuyg'ular. Bu tabiat hodisalari, san'at va hokazolarga baholovchi munosabatda bo'lishga asoslangan insonning hissiy tajribalari.

- Estetik ideallar. Bu shaxsning mukammallik haqidagi g'oyalari.

- Estetik ehtiyojlar. Go'zallik bilan turli xil ko'rinishlarida muloqot qilishga intilish.

- Estetik did. Bu go'zal va chirkin narsalarni ajrata olish, ularni mavjud estetik bilim va shakllangan ideallarga muvofiq ravishda baholash qobiliyatidir.

Ta'lim ishida odatda quyidagi tarkibiy qismlar ajratiladi:

Estetik tarbiya. Jahon va milliy madaniyat bilan tanishishni, san'at tarixi bilimlarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

1. Badiiy va estetik tarbiya. U bolalarni ijodiy faoliyatga jalb qilishni, ularning didi va qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishni ta'minlaydi.

2. Estetik o'z-o'zini tarbiyalash. Uning jarayonida inson o'zini takomillashtirish bilan shug'ullanadi, mavjud bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtiradi.

3. Bolaning estetik ehtiyojlarini, shuningdek, uning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash. Insonda go'zallarga bo'lgan ishtiyoq, o'z-o'zini namoyon qilish orqali dunyoga yangi narsalarni olib

kirishni istash kerak.

Bolaning estetik madaniyati ikki yo'nalishda shakllanadi: umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishish va badiiy faoliyatga qo'shilish. Bunga muvofiq, o'qituvchilar oldida turgan ikkita vazifa guruhi mavjud.

Birinchisi, yosh avlodning estetik bilimlarini shakllantirish, ularni o'tmish madaniyati bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan. Bolalar hayotdagi, mehnatdagi, tabiatdagi go'zallikni ko'rishga, unga hissiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi. Estetik ideallar shakllanmoqda. Harakatlar, fikrlar, tashqi ko'rinishda mukammallikka intilish rag'batlantiriladi. O'qituvchi estetik didning hamma odamlar uchun har xil ekanligini unutmasligi kerak. Ba'zi bolalar klassik musiqani hayratda qoldiradilar, boshqalari hard rock bilan xursand bo'ladilar. Bolalarni boshqa odamlarning va davrlarning didini o'ziga xosligi bilan bog'lashga, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish kerak.

Ikkinchi guruh vazifalari bolalarning amaliy badiiy faoliyatida ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ularga rasm chizish, ertaklar tuzish, plastilindan haykaltaroshlik, raqsga tushish, cholg'u asboblari o'ynash, qo'shiq aytish, she'r aytishni o'rgatadilar. O'qituvchilar tomonidan teatrlashtirilgan tomoshalar, konsertlar, adabiy kechalar, ko'rgazma va festivallar tashkil etiladi. Natijada, bola faol ijodiy faoliyatga qo'shiladi, go'zallikni o'z qo'li bilan yaratishni o'rganadi.

Estetik tarbiyaning vazifalari bolalarning yoshiga qarab turlicha. Kichkintoylar atrofida go'zallikka hissiy munosabat bildirishga, erkin ijodkorlik orqali o'zlarini ifoda etishga o'rgatiladi. Chaqaloq beshiklarni va chiroyli musiqani yaxshi ko'radi. U yorqin shivirlashlardan, nafis qo'g'irchoqdan va bolalar bog'chasining yoqimli qofiyalaridan zavqlanmoqda.

O'qituvchilar quyidagi tavsiyalarni berishadi:

- Bolani go'zallik bilan o'rab oling. Bolalar bog'chasidagi tartib va uslubiy qat'iylilik, kvartirani bezatuvchi o'simliklar va rasmlar, chiroyli va odobli ota-onalar - bularning barchasi tezda

qabul qilinadi va keyinchalik ularni tuzatish juda qiyin.

- Farzandingizni yuqori san'at bilan tanishtiring. Bunga Motsart, Bax, Shubert, Xaydn kabi bastakorlarning asarlari mos keladi. Xalq va bolalar qo'shiqlari ham xush kelibsiz. 6 oylikdan boshlab bolalar musiqa ostida raqsga tushishga harakat qilishadi. Siz ularni klassik baletlarga qo'shishingiz mumkin. Ikki yoshdan boshlab bola ohang bilan o'z vaqtida harakatlana oladi: valsga aylanish, polkaga sakrash, marshlarga yurish.

- Tug'ilishdan boshlab bolalar bog'chalari va klassiklarning go'zal she'rlarini aytib bering. Chaqaloqlar ularning ovozi tinglashadi, hali ma'nosini tushunmaydilar. Yilga yaqinroq bo'lgan bolalar oddiy xalq ertaklari bilan tanishadilar. Ularni o'yinchoqlar bilan sahnalash tavsiya etiladi. 1,5 yoshida siz bolangizni qo'g'irchoq teatriga olib borishingiz mumkin.

- Bolangizga qalam, bo'yoq, loy yoki modellashtirish uchun xamirni iloji boricha erta bering. Doodllarni chizishga, elastik materiallarni burishimga ijozat bering. Bu erda jarayon muhim, natijasi emas.

- Chiroyli joylarda tez-tez yurib, tabiatga chiqing.

Odatda 3-7 yoshli bolalar bog'chaga borishadi. Har qanday maktabgacha tarbiya muassasasining dasturi bolalarning badiiy va estetik rivojlanishi uchun maxsus darslarni taqdim etadi. Bunga vizual tadbirlar, adabiy asarlar, musiqa, raqslar bilan tanishish kiradi. Bolalar teatrlashtirilgan tomoshalarda qatnashadilar, ertalabki sahnalarda chiqish qiladilar. San'atkorlar ularga tashrif buyurish uchun qo'g'irchoq va sirk tomoshalari bilan kelishadi. Bularning barchasi san'atga bo'lgan muhabbatni shakllantiradi.

Ota-onalar uchun yana bir yaxshi yordam bolalar markazlari va musiqa maktablarida ochilayotgan estetik rivojlanish guruhlarini bo'lishi mumkin. Ularda maktabgacha yoshdagi bolalar turli xil san'at turlari: musiqa, rasm, teatr, ashula, modellashtirish, ritm bilan tanishadilar. Bundan tashqari, matematik va nutqni rivojlantirish bo'yicha darslar o'tkaziladi, bu o'yin va ijodiy o'qitish usullaridan foydalaniladi.

Biroq, ko'p narsa oilaviy tarbiyaga ham bog'liq. Ota-onalar maktabgacha yoshdagi bolalarni multfilmlar, ertaklar va she'rlarning eng yaxshi namunalari bilan tanishtirishlari muhimdir. Ammo televizorni nazoratsiz ko'rishni rad etish yaxshiroqdir. Zamonaviy multfilmlar ko'pincha qo'pol va jargon so'zlarni o'z ichiga oladi, ular qo'rqinchli, yoqimsiz belgilarga ega. Bularning barchasi bolaning ruhiyatini aytmasa ham, badiiy didining shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Ushbu yoshda taniqli rassomlarning hayvonlar va sehrli belgilarni tasvirlaydigan reproduksiylarini ko'rish foydalidir. Eng yaxshisi, postkartalar to'plamini sotib oling. Tasvirni muhokama qiling, tovushlarni, hidlarni hidlashga harakat qiling, keyin nima bo'lishini taxmin qiling. Nima uchun personajlar xursand yoki qayg'uli? Tuvalda qaysi oila a'zosi batafsilroq ma'lumot topadi?

4-5 yoshdan boshlab siz bolangizni muzeyga olib borishingiz mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar haykallar va bezak buyumlarini (vazalar, kandelabra, mebel) afzal ko'rishadi. Rasmlarni idrok qilish qiyinroq. Farzandingizni eng qiziqarli narsalarni o'zi topishga taklif qiling. 5 yoshdan boshlab siz Filarmoniyadagi bolalar kontsertlarida, taniqli ertaklar asosida yaratilgan rang-barang baletlarda qatnashishingiz mumkin. Uyda, hurda materiallaridan asboblarni yaratib, orkestrda o'ynang.

Oilaviy shahar atrofida sayr qilish, tabiatga sayohat juda ko'p foyda keltiradi. Binolarning go'zalligiga e'tibor bering, gullab-yashnayotgan gullarga yoki quyosh botishiga birgalikda qoyil qoling. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayvonlar bilan aloqa qilishlari kerak. Agar oilada qarash kerak bo'lgan uy hayvonlari bo'lsa yaxshi bo'ladi. Hayvonot bog'i yoki tsirkga sayohat bolalarga katta quvonch baxsh etadi.

Maktabda estetik tarbiya

Birinchi sinf o'quvchilari allaqachon go'zallik to'g'risida o'zlarining g'oyalariga ega. Ular chuqur estetik tuyg'ularni boshdan kechirishga qodir. Maktabning vazifasi asta-sekin

murakkablashib boradigan sinflar tizimini tashkil etishdan iborat bo'lib, ularda bolalar badiiy asarlarni idrok etish va tahlil qilishni, janr va uslublarni farqlashni o'rganadilar. Talabalarning badiiy didini shakllantirish davom etmoqda.

Estetik tarbiyaning mazmuni ikkita maxsus fanni o'z ichiga oladi:

- Musiqa. 1-7 sinf o'quvchilariga o'rgatiladi. Darslarda bolalar bastakorlar va musiqiy janrlar bilan tanishadilar, xorda kuylash mahorati, kuyga ergashish qobiliyati faol rivojlanadi.

- Tasviriy san'at. Ushbu kurs 1-sinf dan 6-sinf gacha o'qitiladi va maktab o'quvchilarining badiiy-estetik tarbiyasiga qaratilgan. Bolalar turli xil ijodiy texnika va materiallar bilan tanishadilar, rasm orqali o'z his-tuyg'ularini va munosabatlarini ifoda etishni o'rganadilar.

Umumta'lim fanlari ham kam emas. Shunday qilib, adabiyot darslari maktab o'quvchilarining hissiy va hissiy sohasini rivojlantiradi, ularni qahramonlarga hamdard bo'lishga, og'zaki obrazlarning go'zalligini payqashga o'rgatadi. Geografiya va biologiya nafaqat bolalarni bilim bilan qurollantirish, balki tabiatga bo'lgan muhabbatni tarbiyalash uchun mo'ljallangan. To'liq fanlar formulalar, teoremlarning qat'iy go'zalligini namoyish etadi, tadqiqot muammolarini hal qilish zavqini boshdan kechirishga imkon beradi. Biroq, estetik tarbiya bo'yicha asosiy ishlar maktab soatlaridan keyin amalga oshiriladi.

Kichik maktab o'quvchilari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash uchta yo'nalishda olib borilishi kerak:

1. Badiiy asarlar bilan tanishish, estetik ma'lumot olish. Bolalar bilan taniqli rassomlarning rasmlarini tomosha qilish, mumtoz musiqani tinglash, tushunarli bo'lgan yuqori sifatli adabiyotlarni o'qish kerak. Muzeylarga, teatrlarga, filarmoniyalarga, kontsertlarga tashrif buyurish sizga yuksak san'at bilan shug'ullanishga yordam beradi.

2. Amaliy badiiy faoliyatda ko'nikmalarni egallash. Bola nafaqat tugatilgan durdona asarlari bilan tanishishi, balki o'z-o'zidan shunga o'xshash narsalarni yaratishga harakat qilishi kerak. Buning uchun maktabda spektakllar namoyish etiladi, musiqa, badiiy va she'riyat tanlovlari o'tkaziladi, bayramlarga konsertlar tayyorlanadi.

3. O'zingizning sevimli ijodiy faoliyatingiz orqali o'zini namoyon qilish. Ota-onalar bolaning manfaatlaridan kelib chiqqan holda klub tanlashni o'ylashlari kerak. Bu san'at maktabi, xor yoki raqs studiyasi bo'ladimi, farqi yo'q. Asosiysi, merosxo'r o'zining ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi mumkin.

Hamma oilalarda ham eng yaxshi kontsert va ko'rgazmalarda qatnashish, farzandlarini to'garaklarga olib borish imkoniyati mavjud emas. Ammo siz eng chekka qishloqda ham ifodali o'qish oqshomlarini tashkil qilishingiz, rasmlar, haykaltaroshlik rasmlari bo'lgan kitoblarga qarashingiz, musiqiy asarlarni tinglashingiz, yaxshi filmlarni tomosha qilishingiz va ularni muhokama qilishingiz mumkin. Qishloq klubida badiiy havaskorlik to'garaklari bo'lishi kerak. Qishloqlarda doimiy ravishda ommaviy festivallar o'tkazilib, mahalliy aholini xalq madaniyati bilan tanishtirishadi.

Ammo estetik tarbiya muvaffaqiyatining asosiy sharti g'ayratli kattalardir. Bolalar bilan ishlashda rasmiy yondashuv qabul qilinishi mumkin emas. Bolalarni kashshof nigohi bilan durdonalarga qarashga o'rgating, o'z fikrini bayon qilishdan qo'rqmang, ba'zan soddalik bilan. O'yinlarni ulang. Ajoyib bastakorlar bo'ling va she'rga ohang yarating. Suratlarning reproduksiylarini devorlarga osib, galereyani o'ynang. Farzandingiz ekskursiya ko'rsatuvchisi rolini bajarishiga ruxsat bering. Yengillik va ochiqlik muvaffaqiyat kaliti.

O'rta maktab o'quvchilari

5-9 sinf o'qituvchilari va maktab o'quvchilarining ota-onalari oldida estetik tarbiyaning quyidagi vazifalari turibdi:

- Ularni namoyish qilish, ijro etish yoki namoyish etish orqali

bolalarning turli xil san'at asarlari bilan bevosita aloqalarini tashkil qiling.

- Go'zallik hodisalariga nisbatan baholash tizimini ishlab chiqish.

- Jahon san'atining ekspresiv vositalari, tarixi va nazariyasi to'g'risida ma'lumot bering.

O'smir yoshi estetik rivojlanish uchun sezgir davrdir. Bolalar yuqori sezuvchanlik, mustaqillikka intilish, o'zini namoyon qilish bilan ajralib turadi. Ularni vaziyatlarni engib o'tishga qodir yorqin, kuchli irodali shaxslar jalb qiladi.

Shu bilan birga, ko'plab maktab o'quvchilari asl san'atni ommaviy madaniyatning ibtidoiy shakllaridan qanday ajratishni bilishmaydi. Axloqqa zid xatti-harakatlar qilgan qat'iyatli harakat qahramonlari ko'pincha namuna bo'ladilar. Ushbu yoshdagi bolalarning to'liq badiiy didini shakllantirish, ularni maktab o'quvchilari tajribasiga yaqin idrok etish uchun qulay bo'lgan narsalarni tanlab, eng yaxshi san'at asarlari bilan tanishtirish nihoyatda muhimdir. Qiziqishni odatda yorqin tarixiy voqealar, sarguzashtlar va fantastika jalb qiladi.

Nomoddiy madaniy meros bilan tanishish (an'analar, og'zaki ijod, mifologiya, hunarmandchilik) azaliy g'oyalar, xalqning jamoaviy tajribasi bilan aloqada bo'lishga imkon beradi. Ushbu yoshdagi muloqot madaniyati, tashqi qiyofasi va zamonaviy modasi haqida suhbatlar ahamiyatli emas. O'smirlarni suhbatga taklif qiling, munozaralar, rol o'ynash o'yinlari paytida o'z fikringizni bildiring, ularning "qo'polligini" kechiring.

O'rta maktab o'quvchilari

10-11-sinflarda maktab o'quvchilari san'atdagi go'zallikni nozik his qila olishadi, kattalar bilan hayotning mazmuni, uyg'unligi, baxt-saodati to'g'risida teng sharoitlarda gaplasha oladilar. Ular qiziquvchan. Ushbu yoshdagi ko'pchilik o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanadi.

Shu bilan birga, bolalar muvozanatsiz, tanqidiy bayonotlarga

moyil. O'g'il bolalar ko'pincha o'zlarini mustaqil holda bo'lish huquqini himoya qilib, tashqi ko'rinishiga beparvo munosabatda bo'lishadi. Qizlar esa o'zlariga yaxshi g'amxo'rlik qilishadi, kosmetik vositalardan foydalanadilar va sevgi haqidagi lirik asarlarga qiziqadilar.

O'qituvchilar uchun maktab o'quvchilarining qobiliyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhimdir. Musiqa va san'at maktablarida mashg'ulotlar, to'garaklar, qishloq klubidagi spektakllar ko'pincha kasb tanlashni oldindan belgilab beradi. Sinf soatlari suhbatlar, ekskursiyalar, bahs-munozaralar, teatrlashtirilgan tomoshalar, musiqiy kechalar, diskotekalar, madaniyat arboblari bilan uchrashuvlar uchun ishlatilishi mumkin.

Estetik tarbiya san'at bilan tanishtirish bilan cheklanib qolmaydi. Maktab o'quvchilari tabiat, ijtimoiy foydali ish yoki kundalik hayot bo'lsin, go'zallikni kundalik hayotda sezishlari kerak. Aloqa estetikasi faol shakllanmoqda, bu hissiyotlarni ifoda etish madaniyatini, suhbatdoshga hurmatni, nutqning ta'sirchanligini o'z ichiga oladi.

Estetik tarbiyaning natijalari

Ideal holda, o'qituvchilar va ota-onalar san'at va hayotdagi go'zallikni chuqur his etadigan madaniy shaxsni rivojlantirishlari kerak. Bunday odam yuksak ma'naviyat va faol ijodiy munosabat bilan ajralib turadi. Xulosa qilish mumkinki, estetik tarbiya vazifalari quyidagi mezonlarga muvofiq bajarilgan:

- Shaxs badiiy ideallarga ega.
- U muntazam ravishda muzeylarga, ko'rgazmalarga, konsertlarga va mahalliy diqqatga sazovor joylarga tashrif buyuradi.
- Inson san'at haqidagi ma'lumotlarni mustaqil ravishda o'rganadi, klassiklarning asarlarini o'qiydi, janr va uslublar bo'yicha boshqaradi.

• U kamida 4 turdagi san'at namoyandalarining nomlarini ayta oladi, ularning ishlarini biladi. Ko'rgan ishini baholay oladi,

unga munosabatini bildiradi.

Estetik tarbiya muammolarini hal qilishda bolada erkin fikrlash, uning atrofida go'zallik yaratishga intilishni shakllantirishga alohida e'tibor berilishi kerak. Shunda u zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslasha oladi va unga foyda keltiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Odob-axloq normalari
2. Talabalarning xulq madaniyatini shakllantirishda ijobiy ta'sir etadigan vositalar
3. Estetik tarbiyaning tarkibiy qismlari
4. Kichik maktab o'quvchilarining estetik tarkiblari
5. Estetik tarbiyaning natijalari

Adabiyotlar ro'yxati:

15. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi (ma'ruzalar matni) Mahkamjonov K.M, Tulenova X.B. T., 2002
16. D.J.Sharipova, L.M.Semenova... Kichikintoylarni gigienik tarbiyalash. T., 1997
17. A.V.Keneman, D.V.Xuxlaeva
18. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi. T., 1988
19. Bolalar bog'chasida jismoniy tarbiya. T.I.Osokina. T., 1978
20. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. -T.: O'qituvchi, 1991.
21. Novikov Yu.I. Oxrana okrujayuey sredi. -M.: Vishaya shkola, 19987.
22. Egamberdiev R. Ekologiya. -T.: O'zbekiston, 1993.
23. Tursunov X.T. Ekolojiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. -T.: Saodat RIA, 1997.
24. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. -T.: Yangi asr avlodi, 2005.
25. To'xtaev A., Xamidov A. Ekologiya, biosfera va tabiatni

muhofaza qilish. –T.: O'qituvchi, 1995.

26. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera.-T.: O'qituvchi, 1995.

27. Tilovov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. –Qarshi: Nasaf,

28. To'xtaev A. Ekologiya.-T.: O'qituvchi, 1998.

www.ziynet.uz

17-Mavzu

Mehnat tarbiyasi. Iqtisod tarbiya

Reja:

1. Barkamol avlodni tarbiyalashda mehnat va mehnat tarbiyasining o'rni va zaruriyati.
2. Mehnat tarbiyasining mazmuni va moxiyati.
3. Uzluksiz ta'limning kasbiy yo'nalishlari.
4. Iqtisodiy tarbiyaning mohiyati va vazifalari.
5. Iqtisodiy tarbiyaning mazmuni va shakllari.
6. Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.

Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining roli va o'rni beqiyos kattadir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bogliqdir. Shu sababli, mehnat butun moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy tarakkiyotning negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas kismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagina bola o'z aklini irodasini, hissiyotini, harakterini rivojlantirishi, shaxs sifatida shakllanishi mumkin. Farzandlarimiz mustakil O'zbekistonimizning bo'lgusi quruvchilaridir. Shunday ekan, mehnat farzandlarimiz uchun ham zarurat, ham burch bo'lishi, buning uchun uyda ham, o'quv yurtlarida ham mehnat qilish uchun sharoitlar yaratilishi lozim. Agar bola kichikligidan mehnat qilishga o'rgatilsa, o'yindan mehnat qilishga xech bir qiyinchiliklarsiz o'tadi. Bu jarayonda kattalarning ibрати muhim rol o'ynaydi.

Farzandlarimiz kichik yoshdan boshlab maishiy mehnat, aqliy mehnat, jismoniy mehnat va ijtimoiy mehnatda ishtirok etadi. Mehnat tarbiyasida yutuqlarga erishishda yoshlarni mehnatga ham ruhan, ham amaliy jihatdan tayyorlash lozim. Shuning uchun ularning yoshi va imkoniyatlariga mos mehnat turlarini bajarishga

jalb qilmok lozim.

Mehnatga psixologik, axlokiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatkorlik kabi axloqiy irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi, o'quvchilarda jamoatchilik bilan birga mehnat qilish ko'nikmalarini hosil qilish lozim. Chunki inson butun hayoti davomida ko'pchilik bilan mehnat qiladi. Bu jarayonda o'quvchida mehnat qilish madaniyatini o'stirmoq darkor.

Yoshlar mehnati dastlab oilada, keyin esa o'quv yurtlarida amalga oshiriladi.

Yoshlar mehnatining mazmuni mamlakat oldida turgan ijtimoiy, siyosiy va O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti vazifalar, viloyat va tumanlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quv yurtlarining ichki imkoniyatlari va talablari asosida belgilanadi.

Avvalo, ta'lim jarayonida mehnat haqida dastlabki bilim va tasavvurlarga ega bo'ladilar, o'kish ham mehnat ekanligini tushunib oladilar. O'quv rejasiga kiritilgan mehnat darslarida esa, mehnat qilish malakalarini egallaydilar. Bu jarayonda o'z mehnatlarining natijasini ko'rib zavqlanadilar va yanada yaxshiroq mehnat qilishga harakat qiladilar.

Mehnat qilish jarayonida, sinfdan va maktabdan tashqari mehnat, o'z-o'ziga xizmat qilish mehnati ijtimoiy foydali mehnat turida faol ishtirok etadilar va chinikadilar. Pedagogika fani mehnat tarbiyasini tashkil qilishda bir nechta talablar ko'yadi:

Jumladan, mehnatning ijtimoiy axlokiy ahamiyatiga alohida e'tibor berish, mehnat o'quvchi ning yoshi, xayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, ularning mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaktida turli kasblar haqida ma'lumotlar berib borilishi, mehnat axllari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar.

Yukoridagi fikrlar kuyidagicha ilmiy-amaliy fikr va muloxazalarni keltirib chikaradi.

Mehnat inson xayotining zaruriy shartidir. U inson uchun

faqat material, ijtimoiy zaruriyat emas, balki ma'naviy-ruxiy ehtiyoj hamdir. Inson bolasining yoshligidanqmehnatga ehtiyoj xavasi genetik fiziologik asosga ega. Bolalarda bir yoshdan boshlab keng ijodiy faoliyat shakllanadi. Shu keng faoliyat jarayonida bolalarning kizikishi, imkoniyat, kobiliyat va layokatli ko'rinishlarini topa bilish lozim. Yoshlikdan faoliyatga ijobiy munosabatga o'rgatish lozim. Mehnat tarbiyasi fan asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchi larning olgan bilimlarining anik maksadga yo'nalganligini, ishlab chikarish jarayonining ilmiy asoslarini, bilim va kasbiy kizikishlarini ko'zda tutadi. O'quvchi butun o'quv davrida mehnat bilan yaralgan boyliklar bilan tanishadi, bular faqat erkin mehnat kila olganlaridagina yuzaga kelishini tushunadi, o'quvchi mehnatini ilmiy tashkil qilishning birinchi darsini o'quv jarayonida oladi.

Mehnat tarbiyasi oilada goyat ko'lamdor xolda amalga oshiriladi. Oila boshliklari va bolalarning birgalikdagi mehnatini tashkil qilish nihoyatda katta imkoniyatlarga ega.

Kasb tanlash jiddiy va mas'uliyatli ishdir, o'z xayot yo'llarini jiddiy sur'atda belgilab borish jiddiy masala. Buning uchun maktablardagi politexnika sistemasida to'garaklar muxim o'rin tutadi, fan to'garaklarida bolalar politexnik saviya, bilimlarini kengaytiradi, kasb tanlashga tayyorlanishadi. Maktabda yukori sinf o'quvchi lari uchun "ishlab chikarish asoslari: kasb tanlash" kursi o'kitiladi. Kasbga yo'naltirish umumiy o'quv tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak, o'quvchi larni kasbga yo'naltirishda ota-onalar ham manfaatdor. Shuning uchun ham o'quvchi larning ota-onalari bilan aloka bo'lishi lozim. Mehnat tarbiyasi iqtisodiy tarbiya bilan chambarchas boglikdir. Bozor munosabatlari sharoiti yoshlarda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tafakkurni tarbiyalash ayniksa muxim. Zero, bu to'grida gamxo'rlik ko'rsatilmokda, pedogoglarimiz tadkikotlar olib bormokda. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, iqtisoiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida

fikrlay olish kabi qobiliyatni kamol toptirishdir.

Jismoniy tarbiyaning maksadi – o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolari soglom o'sishini ta'minlash barobarida ularni akliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlash yotadi. Abdulla Avloniyning fikricha, soglom fikr, yaxshi axloq va ilm-ma'rifatga ega bo'lmok uchun badanni tarbiya qilish zarurdir.

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport – har qanday yoshda ham kaddi-komatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saklab turishning vositasi hisoblanadi.

Fan va texnika tarakkiyoti mutaxassislikka nisbatan yuksak talablar ko'ymokda. Bu xol o'quvchi larni mehnatga tayyorlash, unga o'rgatish yo'l va vositalarini takomillashtirishni takazo kilmokda.

Inson faoliyatining asosiy turi mehnat, atrof-muxitni o'zlashtirish, bunyod qilish orkali ham ijtimoiy, ham shaxsiy ehtiyojlarini kondiradi. Shuning uchun mehnatga murakkab ijtimoiy xodisalar sifatida karaladi. Mehnat faoliyati o'kish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Shu jarayonda avlodlar to'plagan bilimlarni ko'nikma va malakalarni egallash yordamida mehnat faoliyatiga tayyorlanadilar.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi Milliy konsepsiyasi materiallarida, umumiy ta'lim va xunar maktabini islox qilishning asosiy yo'nalishlarida ham katta e'tibor berildi. Mustakillik milliy kadrlar tayyorlash ko'lamini va sifatini oshirishni takozo qilmoqda. Yirik korxonalarda milliy kadrlarning kamligi yetuk mutaxassislarning migratsiyasi ushbu muammoga davlat nuqtai nazaridan jiddiy yondashishni talab etmokda.

Mehnat faoliyati motivlari ehtiyojlari turiga qarab tabiiy va ma'naviy turlarga ajratiladi. Shu motivlarga kizikish ham kiradi, hamda shaxs diqqatini mehnat ob'ektlariga yo'naltirishni egallashga karatilgan bilish faoliyati karor topadi.

Kasbga nisbatan kizikishni vujudga keltirish o'kituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita boglikdir. Mehnat ta'limini

turmush bilan boglash, uygunlashtirish, o'quvchi larning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-xunar shaxsdan ifodaviy zo'r berishni, akliy jiddiylilikni, chidam va sabr-tokatni talab kiladi. Barcha qiyinchilik va sinovlarga bardosh bera oladigan yigit-kizlarga mazkur tanlangan kasbga nisbatan yarog'li deb topiladi. Mehnat ta'limi esa xuddi ana shuning amaliy tomonini o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega. Ta'limni okilona, optimal yo'l bilan tashkil qilish va olib borish turli yoshdagi maktab o'quvchi larida mehnatga ong'li munosabatni tarkib toptirib, kasb-hunarga nisbatan qiziqish hissini uygotadi.

Barkamol avlodni jismoniy barkamolsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bu tarbiyaning bosh maksadi jismonan chinikkan, mard va sabotli, kat'iyatli va vatanparvarlarni kamol toptirishdir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan 2000 yilni "Soglom avlod" yili deb e'lon kilinishi bu tarbiyaga e'tiborni yanada kuchaytirdi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Farzandlari soglom yurt kudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari soglom bo'ladi", deb ta'kidlaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov fikrini davom ettirar ekan, eng avvalo har bir odam o'z sogligi haqida kaygurishi, har bir oila o'zidan soglom nasl, soglom zurriyot koldirishni o'ylashi zarur. Agar farzand soglom, oqil, iymon-e'tiqodli bo'lsa, ota-onasiga faqat raxmat keltiradi. El-yurt nazaridan xech qachon chetda qolmaydi deb uktiradi. Jismoniy barkamollik tarbiya tizimida muhim o'rinni egallaydi va boshqa tarbiyalar bilan birga amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya o'z oldiga qator vazifalarini ko'yadi. Jumladan, organizmni chiniqtirish, soglikni mustahkamlash va rivojlantirish, bolalarda yangi jismoniy harakat turlarini hosil qilish va qurollantirish, bolaning yoshiga, jinsiga chiniqqanlik darajasiga mos keladigan jismoniy harakat sifatlarini rivojlantirish va o'z sogligiga ong'li munosabatda bo'lishni tarbiyalashdan iborat. Bu vazifalarni hal

qilishda jismoniy tarbiya aqliy, estetik va mehnat tarbiyalari bilan hamkorlik qiladi. Insonning soglom va barkamol o'sishi turli omil va vositalarga bog'lik. Avvalo nasl toza, soglom bo'lishi kerak, shu sababli O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti soglom ota-onadan albatta soglom farzand tugilishini alohida ta'kidlaydi. Qolaversa, yashash jarayonida sanitariya- gigiyena omillariga amal qilishi, tabiatdagi soglomlashtiruvchi omillar, ya'ni kuyosh, xavo va suv ta'siridan o'rinli foydalanish va jismoniy mashklardan foydalanishni takozo kiladi.

Yosh avlodni jismonan chiniktirishda o'quv yurtlari rejasi bo'yicha o'tiladigan jismoniy tarbiya darslarining roli va ahamiyati bekiyos kattadir.

Bu darslar mutaxassis o'kituvchilar tomonidan o'quv yurti dasturlari bo'yicha olib boriladi va tibbiyot xodimlari nazoratida bo'ladi. Jismoniy tarbiya oldidagi vazifalarni xal etishda ertalabki gimnastik mashg'ulotlar, fikultminutlar, fizkultura bayramlari, salomatlik kunlari munosabati bilan uyushtiriladi. Bularga ota-onalar ham taklif kilinadi.

Iqtisod, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy tarbiya. Iqtisodiy tafakkur, ishbilarmonlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik, ekologiya, efologik tarbiya. ekologik madaniyat, mehnat, mehnat tarbiyasi, aqliy mehnat, jismoniy mehnat, kasbga yo'llash.

Iqtisodiy tarbiya barkamol inson tarbiyasining muhim muammolaridan biridir. "Iqtisodiy o'zgarishlarni ustivor deb hisoblayotganimiz, taqsimotning ma'muriy buyruqbozlik tizimidan butkul voz kechayotganimiz hamda bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy mnosabatlarni shakllantirayotganimiz jamiyatni isloh qilishga qat'iy yondoshishimizning ifodasidir", degan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov. (I.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.Toshkent, "O'zbekiston",1997 y., 188-bet.) Jamiyatni isloh qilish, bozor iqtisodiyoti talablari esa unda yashayotgan kishilarda iqtisodiy tafakkurning shakllanishini talab etadi.Shuning uchun ham o'sib

kelayotgan yosh avlodda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ular haqida fikrlay olish kabi qobiliyatlarni shakllantiradi. 2. Iqtisodiy tarbiyaning mazmuniga Sharq mutafakkirlari katta e'tibor qaratib kelganlar. Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy mamavzutika fani inson hayotida asosiy o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha kishi hisob ilmini bilishi va ishiga pishiq bo'lmog'i lozim. SHunda u mehnatining natijasini o'lehovlar orqali aniqlay oladi. Abu Nasr al-Forobiy inson yashashi uchun juda ko'p narsalar kerakligini va bo'larni vujudga keltirish yo'lida boshqa shaxslarga murojaat qilish kerakligini e'tirof etadi. Bu o'rinda olim iqtisodiy aloqa zaruriyatini ko'rsatib o'tgan edi. Darhaqiqat iqtisodiy aloqa o'rnatish uchun odamlar, davlatlar, jamiyatlar integratsiya yo'lida harakat qiladilar. Hozirgi vaqtda bu fikr qanchalik to'g'ri ekanligini rivojlangan davlatlar hayoti misolida ko'rish mumkin. Iqtisodiy integratsiya davlatlarga faqat boylik keltiryapti. Al-Forobiy "Baxt saodatga erishuv haqida" asarida shunday yozadi: "Inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi". Ko'rinib turibdiki, o'tmish mutafakkirlari maktab va oila sharoitlarida O'quvchi iqtisodiy tafakko'rinii kengaytirish, ularni tejamkorlikka, ishbilarmonlikka, iqtisodiy hisob- kitobga o'rgatishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish lozimligiga e'tibor qaratganlar.Bolaga iqtisodiy tarbiya berish oiladan boshlanadi. Bola maktabga borgach bu borada puxta bilimlar ola boshlaydi. Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarida shu xususda alohida to'xtaladi. Oila a'zolari- deb yozadi u,- kunlik oziq-ovqatlar uchun yetarli mahsulotlarni oldindan tejamkorlik bilan sarf qiladi. Har bir kishi bug'doy, guruch, mevalarni saqlash yo'llarini bilishi kerak. Ehtiyojga yaroqli narsalarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish lozim. Ota-ona uvol qilish gunohligini farzandiga yoshligidan nasihat yo'li bilan o'rgatadi.

Ibn Sino Bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar

o'rgatish kerak deb ko'rsatadi: Inson hunarni puxta o'rganishi shart. Chunki hunar unga kelajakdagi ro'zg'or tebratishi uchun asqotadi.

Iqtisodiy tarbiya avvalo oilada amalga oshiriladi. Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida Bolada mehnatsevarlikni shakllantirish yotadi. Bu shunday olib borilishi kerakki, Bola o'z mehnatining natijalarini ko'ra bilsin. Shundagina bola o'z imkoniyatidan to'g'ri yokinoto'g'ri foydalanayotganini anglaydi. Hunaregallash yoshlarni mustaqillikka o'rgatadi. Bu jarayonda Bola hisob-kitob qilishni ham o'rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo'ladi. Ota-onalar hovli va xonadonlarni tartibga solish, ovqat pishirish, kir yuvish va kiyim-kechakni yamash, ro'zg'or asboblari va uydagi jihozlarni ta'mirlash sohasida Bolalar mehnatini tashkil etadilar. Bunda ota-ona yumushlarni Bolalarga ularning jismoniy, aqliy, ruhiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda topshirishlari kerak. Ota-ona ishni topshirish bilan cheklanmay Bola uni qanday bajarayotganini nazorat qilishi, lozim bo'lsa, maslahat, ko'mak berishi, Bolani ruhlantirib turishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan oila, maktab, jamoatchilik va mehnat jamoalarining bahamjihat kuch-g'ayrat sarflashlariga va o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablari bir xil bo'lishiga bog'liq. Bugun maktab partalarida o'tirgan yoshlar shu asr oxiri va kelgusi asr boshlaridagi ulug'vor vazifalarni hal etadilar. Bas, shunday ekan, yoshlarda shaxsiy va ijtimoiy turmush masalalarini, shuningdek, Vatan mudofaasi, xalqaro munosabatlar va tabiat injiqliklari bilan bog'liq ravishda tug'iladigan muammolarni to'g'ri hal etishga yaroqli bo'lgan qobiliyatni, jumladan, tejash va tejamli bo'lish qobiliyatini hozirdan boshlab astoydil shakllantirish va o'stirish g'oyat katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston davlatining moddiy va ma'naviy o'sish borasidagi iqtisodiy qonuniyati bilan o'quvchilar tabiiy fanlar mazmunida tanishadilar. Jamiyatshunoslik darslarida Bolalar xalq farovonligini yuqori darajaga ko'tarish uchun qanday iqtisodiy vazifalar bajarilishi lozimligini o'rganadilar. Kimyo, biologiya darslarida o'qituvchilar yoshlarga mineral o'g'itning iqtisodiy ahamiyatini

yaqqol misollar bilan ko'rsatishadi. Yangi texnologiya nima va u sanoatga qanday joriy qilinadi? Fan kashfiyotlari qay darajada iqtisodiy foyda keltirishi mumkin? Shunday savollarga Bolalar o'qituvchilar ordamida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda javob topadilar.

Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mehnat darslarida amalga oshiriladi. Bu darslar nechog'lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, o'quvchilar shunchalik iqtisodiy bilim va malaka oladilar. Avvalo, bu darslarning mazmuni to'g'ri belgilanib olinishi zarur. Yana bir muhim qoidani nazarda tutish kerak. Hozirda boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish, tabiatshunoslik, mamavzutika va mehnat darslari orqali iqtisodiyotga oid boshlang'ich tushunchalar o'rgatiladi. Bunda o'quvchilar atrof olam, mehnat, insonlar va ularning hayoti, bozor, narxlar haqidagi dastlabki tushunchalarni o'rganadilar. Shuningdek mamavzutika darslarida boshlang'ich mamavzutik tushunchalarni o'rgatish orqali o'quvchilarda mamavzutik tafakkur shakllantiriladi, bu esa o'quvchilarni bozor munosabatlariga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Mehnat darslari Bolalar uchun iqtisodiy bilimlar bilan tevarak-atrofdagi hayotni o'ziga xos tarzda bog'lovchi omil bo'lishi lozim. Masalan, o'quvchilar boshlang'ich sinf mehnat darslarida turli buyumlarni hisobli o'lchamlar yordamida qog'ozdan, kartondan, loy va plastilindan tayyorlaydilar. Bu buyumlar albatta insonlar hayotida nima uchun kerakligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Shuningdek har qanday chiqindi materiallarning ham ahamiyati tushuntirilib, ular yordamida yordamida kerakli buyumlarni tayyorlaydilar buyumlar yasaydilar. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar tejamkorlikka, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka o'rgatiladi. Yuqori sinqlarda o'quvchilar "Ishlab chiqarish texnologiyasini o'stirish", "Mahsulot tannarxi", "Tovarlarni chet ellar bilan turli yo'llar orqali ayriboshlash" kabi mavzulardagi mashg'ulotlar, yuqorida aytilganidek, hayotiy tusda o'tkazilgandagina o'quvchi ongida chuqur iz qoldiradi. O'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish maqsadida biz keng va to'g'ri yo'naltirilgan vazifalarni oldimizga

qo'yishimiz zarur: Iqtisodiy geografiya darslarida iqtisodiy tarbiyaga oid mavzularni chuqurroq tushuntirish. Hozirgi kunda o'quvchilar natqidan o'rin olayotgan atamalarni kasblarga bog'lab o'rgatish. Ikkinchi yo'nalish o'quvchilarning darslikdagi iqtisodiy tarbiyaga qaratilgan topshiriqlar va vazifalarni bajarishlaridir. Bunda darslikdagi har bir bobni mavzularga bo'lingandan so'ng tahlil qilish va iqtisodiy tarbiyani o'stirish uchun savol va topshiriqlar beriladi. Masalan: "O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari" va "O'zbekiston iqtisodiy rayonlarining o'zaro iqtisodiy aloqalari" degan mavzularni ko'rib o'taylik. "O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari" mavzuidan so'ng hozirgi iqtisodiy tushunchalar va muammolar bilan uyg'un bo'lgan quyidagi savol va topshiriqlar beriladi. Tashqi iqtisodiy aloqa nima? Eksport va import nima? Valyuta, jahon bozori nima? O'zbekiston qaysi davlatlar bilan xom ashyo orqali, qaysi davlat bilan tayyor mahsulotlar orqali aloqa qiladi? O'quvchilarga O'zbekiston bilan iqtisodiy aloqa o'rnatgan davlatlar diagrammasini to'zish va ularni xaritada belgilash topshiriladi. Shu mavzudagi barcha iqtisodiy atamalarni lug'at daftarchaga ta'riflab yoziladi. Bundan tashqari, quyidagi atamalar har bir mavzuga bog'lab o'rganiladi: bozor iqtisodi, birja, biznes, broker, reklama, marketing, menejer va boshqalar. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda iqtisodiy tarbiya berish bu sohada keng imkoniyatlarga ega. Geografiya fani to'garaklarida o'quvchilarga asosan iqtisodiy bilimlar beriladi. O'lka va o'lkaning taraqqiyoti, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, mahsulot sifati, tabiatni muhofaza qilishga oid iqtisodiy tushunchalar ular ongida shakllantiriladi. Bu tushuncha va bilimlar orqali respublika, viloyat va tuman xalq xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari chuqurroq o'rganiladi. Bunday bilimlar o'quvchilar kelajakda qaysi sohada ishlash yoki qayerda o'qishi mumkinligini mo'ljallashiga ham imkon beradi. Iqtisodiy tarbiya uslublari xilma-xildir. Jumladan, suhbat, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, sanoat shoxobchalariga sayohat o'tkazish, solishtirish, xisob-kitob qilish g'oyatda ta'sirchan uslublar hisoblanadi. O'quvchilarda iqtisod borasida

ljodiy fikr yuritishni shakllantirishda darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlardan unumli foydalanish lozim. O'quvchilarni qay darajada iqtisodiy tarbiya topganliklari o'qituvchilar tomonidan kuzatib borilishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T. Sharq 2008.
2. I. A. Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. 1997.
4. Ochilov M. Oliy maktab pedagogikasi. T. 2008.
5. Ochilov. M. Muallim qalb me'mori. T. 2003.
6. Munavvarov. Pedagogika. T. O'qituvchi 1996.

18-Mavzu:

Fuqarolik tarbiyasi Huquqiy tarbiya.

Reja:

1. Huquqiy tarbiya tushunchasi,
2. Huquqiy tarbiya shakllari.

O'zbekistonda huquqiy davlat barpo etish maqsadida huquqiy tarbiya va ongni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Mehnat jamoalari, ta'lim maskanlari va har bir shaxs bilan va ko'p qirrali ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika qonun chiqaruvchi organi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan va yurtboshimiz tomonidan imzolangan qonunlar jamiyatimizning barcha sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qilmoqda. Jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarni hal etish xalqning huquqiy madaniyatini, savodxonligi va huquqiy tarbiyasini rivojlantirishni taqozo qiladi.

Huquqiy tarbiyali bo'lish uchun shaxs huquqiy bilimlarini ongli ravishda egallashi, yetarli darajada huquqiy saboq egasi bo'lishi kerak. Hozirgacha huquqiy tarbiya, uning metodlari haqidagi masalalar olimlar tomonidan to'laligicha yoritib berilgan emas.

2. Huquqiy tarbiya shakllari

Huquqiy tarbiya o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra, keng va tor ma'nodagi shakllarga bulinaladi. Keng ma'nodagi tarbiya deganda butun jamoaga, ko'pchilikka ta'sir ko'rsatishga qaratilgan tarbiya. Tor ma'nodagi tarbiya alohida shaxsga, uning ongiga ta'sir etish yo'lidir. Huquqiy tarbiya natijasida keng xalq ommasi va shaxs o'z xatti-harakatlari ekanligini tushunsa, huquq normalariga ongli ravishda rioya etsa maqsadga erishgan bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy tarbiya muntazam olib boriladigan aniq maqsadni ko'zlangan va shaxsga ta'sir eta oladigan huquqiy ong, bilim va qonunlarga rioya etish xislatlari yoki fazilatlarini to'plamidir. Barcha

fuqarolarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish ishlari huquqni muhofaza qilish va jamoat tomonidan olib boriladigan ishdir. Buning natijasida qonunchilikni mustahkamlash, huquq normalarini hurmat qilish, ularni bilishga erishiladi. Ma'lumki, qonunga rioya qilish uchun eng avvalo uni bilish talab etiladi. Tartib buzuvchilar orasida o'z xatti-harakatlarini noqonuniyligini o'ylamaslik va bunday harakatni jazoga loyiq emas deb tushunish ko'p uchraydi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun ichki tartib qoidalar, qonun normalariga rioya qilmaslik natijasida intizomiy, ma'muriy va hatto jinoiy jazo kelib chiqishini tushuntirilishi shart.

Ilgarigi davrlarda huquqiy tarbiya siyosiy tarbiya bilan bog'liq holda olib borilar edi. Shaxs va jamiyat o'rtasida munosabatlar shaxs faoliyatini hayotiy pozitsiya esa tarbiya jarayonida shakllanadi. Tarbiyaning ijtimoiy vazifasi shaxsni foydali faoliyatga o'rgatishidir. Masalan, yoshlarni biron hunarga, muomalaga, san'atga va yurish turishga o'rgatish shular jumlasidan.

Huquqiy tarbiya qadimdan davlat bilan birga shakllanganligini ham unutmaslik kerak. Huquqiy tarbiya o'ziga xos xarakterga ega. U vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Huquqiy tarbiya davlat tomonidan belgilangan tuzilmalardan tashkil topadi va aniq maqsadlarni ko'zda tutadi. Shaxsda, mehnatga bo'lgan munosabatni shakllantirishda jamiyat va davlat manfaatlari, davlatning tartib va qonunlarini hurmat qilish ruhi shakllanadi. Axloq normalari bilan huquq normalari bir-biri bilan yaqin turadi.

Dunyoviy va ruxiy-hissiy bilimlar rivoji olamni va insonni o'zini bilish, anglashni yangi-yangi kirlarini ochmokda. Inson faqat moddiy-biologik vujudan emas, uning yana shu moddiy-biologik tanasi boshkarib, rivojlantirib turuvchi bioenergetik tanasi bor ekanligi dunyoviy fanlar ham to'la isbotlab bo'lishdi. Xuddi shu bioenergetik tana insonning ruxiy-hissiy sifatlaridan tarkib topgan bo'lib, ularning tarkibiy kismini vijdon tashkil etadi. Ruxiy-hissiy sifatlar majmuasi insonning ma'naviyatini tashkil qilganligi uchun demak, vijdon – eng asosiy, eng oliy ma'naviy-insoniy sifat ekan. Shuning uchun inson tarbiyasida vijdonni tarbiyalash ma'naviy-

insoniy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Vijdon tushunchasi, insonning vijdoniy sifati uning ongi, kalbi, akli va irodasiga bogʻlikdir. Chunki insonning ichki ruxiy kechinmalarida yaxshilik va yomonlik doimo ichki kurashda boʻladi. Agar inson biror ma'naviy vaziyatda o'z kalbiga kulok solib, irodasini ishga solib, garazgo'ylik, mansabparastlik, molparastlik va xokazo kabi gayri insoniy illatlardan ustun chikib okilona ish ko'rsa uning vijdoniy sifati yukoriligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatlar inson xayotida juda ko'p bo'ladi.

Bu haqda Prezidentimiz "Fidokor" gazetasining muxbiri bilan bo'lgan "Donishmand xalkimizning mustaxkam irodasiga ishonaman" nomli mulokotlarida: "Aslida mening nazarimda, odamning kalbida ikkita kuch - bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha kurashadi". Inson kalbida gayri insoniy illatlarning ustun bo'lishi aslida ma'naviy kasallikdir. Xuddi ana shu kasallikni davolashni ham Prezidentimiz ko'rsatib o'tdilar. I.A.Karimov shu mavzuda o'z so'zlarini davom ettirib: "Ma'lumki, harqanday kasallikning oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga karshi immunitet hosil kilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning mukaddas diniga soglom munosabatni karar toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur".

Arastu haqim vijdonni talkin kilib shunday degan: "Ruximizning ma'naviy quvvati bilan vijdonimiz, fikrimizga quvvat beruvchi bir vositayu idrokiyatdir".

Insonni faqat tibbiy-biologik emas, balki uni ruxiy-hissiy siymo sifatida yaxshi o'rgangan vatandoshimiz Ibn Sino: "Vijdon rux va fikrimizni tuygun kilmokka birinchi vositadir", - degan edi.

"Vijdon deb ruximizga, fikrimizga ta'sir kiladurgon hissiyot, ya'ni sezuv-tuymokdan iborat ma'naviy quvvatni aytilur. Biz har vakt af'ol va harakatimizni yaxshi va yomonligini, foyda va zararligini onjak vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning akl va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o'z kamchiligini o'lchab bilmak ila barobar boshkalarining ham af'ol va harakatini

sezur. Agar ishlagan ishi shariat, akl va xikmatga muvofik bo'lsa, muxabbat kilur. Kaboxat, yomon ishlarni kilsa, nafrat kilur. Biz janobi haqning amr va naxyini fikr va ruxiyatimizning ma'naviy quvvati o'lan vijdonimiz ila ayira bilurmiz.

Ammo vijdonsiz kishilarning ishlarida, niyat va amallarida, do'st va oshnoliklarida yashirin bir garazlari o'ldigindan har vakt xasrat va nadomat chekub, vijdon azobiga giriftor bulurlar".

Darvoke xayotning asl moxiyati, ma'nosini topishda vijdonning roli yuksakdir, buning uchun eng avvalo, inson o'z-o'ziga to'g'ri talab ko'ya bilishi lozim. Turmushning har bir jabxasida vijdon adolat mezon bo'lmogi lozim. Prezidentimiz I.A. Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sagasida" kitobida bu jixatiga alohida urgu berib o'tadi. "Har bir kishi o'z mamlakatining fukarosi ekanligini his qilishi, uning o'ziga berib ko'yilgan huquq va erkinliklarga ongli munosabatda bo'lishi va kadrlashi, mashakkatli mehnati bilan ko'lga kiritilgan demokratik kadriyatlarni asrab-avaylashi va ximoya qilishi goyat muxim".

Vijdon tarbiyasi juda yoshlikdan boshlanmogi lozim. Uning oddiy insoniy munosabatlarda namoyon bo'lishi, insonparvarlikda, iktisodda vijdoniy munosabatlarning ustivorligiga erishishi lozim.

Abdulla Avloniy vijdonni insonning oyinasi deb biladi. "Al hosil vijdon har kimning af'ol va harakatini ko'rsatadurgon musaffo bir oyinadurki, bu ko'zguga chin nazar kilgan kishi o'z aybi va kamchiligini tuzatmak harakatida bo'lub, boshkalarining aybi va kusurini axtarmogga vakti bo'lmas. Arastu haqim: «Ruximizning ma'naviy quvvati o'lan vijdonimiz, fikrimizga quvvat berguvchi bir vositayi idrokiya deyilur. Ya'ni, hissiyotimizning ruximizga ta'sir ettiruvchi bir robитай ilktirikiyyasidur", demish.

Ibn Sino haqim kuyidagi misralarida vijdonni komillik mezon deb atagan.

Sof vijdon kabi xech komili mezon o'lmas.

Kishi o'z aybini bilmak kabi urfon o'lmas.

Albatta yoshlar tarbiyasida vijdon tarbiyasining roli yuksak bo'lmogi lozim. Bunda kishining o'z vijdoni oldida hisob bermogini,

zavklanish, xuzurlanish, xalovat, obro', kadr-kimmatining vijdon tarozusi ila karalmogini ukdirmok kerak.

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi vijdoniy munosabatlar yoshlarni tarbiyalashda muxim jixat sanaladi. Baxolash jarayonidagi nohaqliklar harqanday yoshni o'ylantiradi, vijdon kiynogiga olib keladi.

Bugungi reyting tizimidagi baxolash tizimi bunday noxush ko'rinishlarning oldini olmokda.

Vijdon - iymon, kalb pokligi, ongli ilmu-amaliy faollikdan iboratdir. Shuning uchun diniy ilmlarni asoslashga iymonlilikning birinchi kismi ilmu-amaliy faollik bo'lsa, ikkinchi kismi shariat amallarini bajarishdir. Xuddi ana shu narsa insonning asl moxiyatidan iborat bo'lib, insonning haqiqiy xayot ma'nosini tashkil kilmogi kerak. Xayot ma'nosi, uning maksadi bilan aralashtirilmasligi kerak. Maksad foyda olish, pul topish, agarda ma'naviy javobgarsiz xayot ma'nosiga aylanib ketsa, kishida ma'naviy inkiroz boshlanadi.

Har bir kishi o'z-o'ziga, kasbiga, davlatiga, xalkiga, insoniyatga, olamga vijdoniy munosabatda bo'lishi kerak. Insoniyat tarixida juda yirik ma'naviy-madaniy manbaga aylangan Avesto, Manas, Alpomish, Maxabxorat, Maxbub ul-kulub kabi asarlar juda uzok yillar davomida vijdoniylik, insonparvarlik, insoniylikda olamga sabok berib kelmokda. Bu o'rinda iloxiy asar Kur'oni karim ma'naviy xayotiy komus hisoblanadi.

Insoniyatga, olamga o'zlarining ta'limotlari, ibratli xayotlari bilan insoniyat farzandlari Abduxolik Gijduvoni, Baxovuddin Nakshbandiy, Buxoriy, Fargoni, Najmiddin Kubro, Ibn Sino, Ulugbek, Eynshteyn, A.Saharovlar ibrat bo'lib kelmokdalar.

Ma'naviy mas'ullik insonlarni moddiy-ma'naviy bunyodkorlik, mahsuldorlik, yaratuvchilikka da'vat kiladi. Xuddi shu ma'naviy-insoniy sifat inson moxiyatining bosh omilidir.

Ollox taolo insonni bilim, axlok va faoliyat bobida mas'ul kilib yaratgan. Bu haqda Kur'oni karim Al-Isro surasining 36-oyatida shunday deyilgan: "Ey inson, o'zing anik bilmagan

narsaga ergashma! Chunki kulok, ko'z, dil - bularning barchasi to'grisida (har bir inson) mas'ul bo'lur".

Mas'ullik esa mustakillik, erkinlik, faollik va ma'naviy javobgarlikdir. Bu iloxiy haqiqat dunyoviy - zamonaviy insonshunoslik fanlari pedagogika, psixologiya, genetika, fiziologiya, biologiya, mikrobiologiya va boshka fanlar nuktai nazaridan ham isbotlandi.

Insonning bu mas'ulligi va ma'naviy javobgarligi, moddiy olamni moddiy-ma'naviy taomilligi, go'zalligi hamda moddiy-ma'naviy ta'minotida amalga oshiriladi. Chunki iloxiy manbalarda tasdiklanishicha, inson Ollox Taoloning yerdagi xalifasi, o'rinbosaridir. Bu insonlarga berilgan buyuk in'om, ishonch va vakolatdir. Bu insonning erkin, ozod, nodir, betakror ulug siymo kilib yaratilganligining iloxiy tasdigidir. Bu ulug vazifani bajarish uchun har bir insonga akl, ong, o'quv, kobiliyat va boshka ma'naviy-insoniy sifatlar ato kilingan.

Demak, insonlarning asl bosh ma'naviy-insoniy moxiyati ularni olamni har tomonlama takomillashtiruvchi moddiy-ma'naviy bunyodkorliklaridadir.

ADABIYOTLAR:

1. A. Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axlok", T. 1991.
 2. Munavvarov A.K. Pedagogika. T."O'kituvchi". 1996.
 3. 1920-23 yillardagi Xorazm Xalq Respublikasi Konstitutsiyalari.
 4. 1921-23 yillardagi Buxoro Xalq Respublikasi Konstitutsiyalari.
 5. 1927-1937-1978 yillardagi O'zbekiston SSR Konstitutsiyalari.
- www.ziynet.uz

19-Mavzu:

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Reja:

1. Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllantirish o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari.

2. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari.

3. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari.

4. Aqliy tarbiya vositalari.

5. Iqtisodiy tarbiya-o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida.

6. O'quvchilarning ekologik tarbiyasi.

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida Shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Eng muhimi insonning olamga munosabati, dunyodagi o'rni, mohiyati, hayotiy yo'nalishini, o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Shuningdek, dunyoqarash «dunyoni tushuntirish», «dunyoni his qilish», «ifodani idrok qiliish» kabi tushunchalar bilan yaqin ma'nodosh ekanligini aytish joiz.

Dunyoqarash tushunchasi mafkura tushunchasi bilan aloqador. Mafkura bizning nazarimizda mehnatsevarlikka, milliy ong, milliy g'oya, milliy g'ururni tarbiyalashga, o'zno'zi anglashga, millatimiz bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'lga qanday yondashishimizni bilishga, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, rasm-rusmlarimizni qayta tiklashga va yanada rivojlantirishga qaratilgan. Bizning milliy istiqloq mafkuramiz davlat mustaqilligini mustahkamlashda, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishda aniq maqsad va yo'nalishlarga tayanadi. Uning yordamida xalqimiz inson huquqini

himoya qiladi, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptiradi, kelajagi buyuk davlat qurish yo'lida o'zida kuch topadi. Eng muhimi istiqloq mafkuramiz, milliy g'oyamiz insonni halol va pok hayot kechirish, beva-bechoralar, qarovsiz qolgan bolalarga nisbatan diqqat va e'tiborda bo'lishkabi yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga asoslanadi.

Dunyoqarash insoniyatni o'tmish merosi, hozirgi hayot va bundagi Sharoitlar, tizimlarning anglab olinganligi, qadriyatdir. Dunyoqarash kishilarning turmush tarzi, hayoti, axloqodobi, madaniyatini yanada o'zida mujassamlashtirgan tasavvurlar, bilimlar yig'indisidir. Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish haxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi. Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarashshaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan

falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi. Aqliy rivojlanishning nima ekanligini aniqlash uchun "fikrlash" va "aql kuchi" tushunchalariga to'xtalish lozim bo'ladi. Amaliy tajribamimizda fikr so'zini juda ko'p uchratamiz. Oddiy qilib aytganda, ob'ektiv olamdagi voqea-hodisalarni ongimizga ta'sir etishi natijasida hosil bo'lgan tuyg'u fikr deb ataladi. Uning tub mohiyati shundaki, fikrimiz orqali biz ko'zimiz bevosita ilg'amayotgan, ko'z o'ngimizda bo'lmagan, bo'lgan taqdirda ham o'sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo'lgan «sirli» jihatalarini ko'rish imkoniga ega bo'lamiz. 1 Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, u aqliy faoliyat mahsuli. Eng qizig'i fikrlash merosiy tushuncha, u barcha insonlarga xos. Falsafiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarda fikrlashning 20 dan ortiq turlari ajratib ko'rsatiladi:

MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

"SWOT-tahlil" metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli harakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi.

Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan mahruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

METODNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI



Trener— o'quvchi fikrlashlarni, fikrlashdan foydalashni qurib beradi.



Trening maqsadi har bir guruhga umumiy tahlil qilishni zarur bo'lgan muammolarni tahlil qilishni zarur bo'lgan qismlar natijalari taqqoslash natijalari taqqoslash.



Har bir guruh o'ziga berilgan muammolarni alohida tahlil qilib, o'z muhokazalarini yakuniy taqqoslagan so'ng, ularni taqqoslash yozma bayon qiladi.



Natijadagi bosqichda har bir guruhlar o'z taqqoslashlarini o'z fikrlari shundan so'ng, ularni taqqoslash tahlillar taqqoslash natijalari taqqoslash.

Namuna:

Tarbiyachiga qo'yilgan zamonaviy talablar					
Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi munosabati		Tarbiyachi va ota-onalar bilan munosabat		Tarbiyachi va axborot texnologiya vositalari bilan ishlash	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

"Keys-stadi" metodi

"Keys-stadi" - inglizcha so'z bo'lib, ("case" – aniq vaziyat, hodisa, "stadi" – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

"Keys metodi" ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot tahlilini bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoli tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil yechimlarni tanlash

4-bosqich: Keys, yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish
--	---

Keys. Mashg'ulot jarayonida siz o'tayotgan mavzuni juda yaxshi biladigan bola bor, shu sabab, u mashg'ulot davomida Sizga va bolalarga xalaqit bera boshladi: savollari, fikrlarga qo'shilishi bilan barchani diqqatini bo'lib chalg'ita boshladi

Sizning harakatingiz....

Кейси бажарини босқичлари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг (индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Мобил иловани ишга тушириш учун бажарилаётганига ишлар кетма-кетлигини белгиланг (жуфтликлардаги иш).

“FSMU” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan mahruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;

Ф	• фикрингизни баён этинг
С	• фикрингизни баёнига сабаб кўрсатинг
М	• кўрсатган сабабингизни исботлаб мисол келтиринг
У	• фикрингизни умумлаштиринг

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhii tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna.

Fikr: “Maktabgacha pedagogika”

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tahlil oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali tahlil oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan mahruza mashg'ulotlarida tinglovchi yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash,

shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, pedagogning ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday mahno anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday mahnoni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Pedagog	Pedagog-tarbiyachi. Yosh avlodga tahlim-tarbiya beruvchi shaxs. Tahlim-tarbiya jarayonini o'rganuvchi va bu jarayonni boshqarish muammolari bilan shug'ullanuvchi shaxs.	
Jamoa	Yig'ilma, oмма, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh mahnolarini anglatadi.	

Tarbiya	Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.	
Shaxs	Psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.	
Insonparvarlik	Insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to'g'risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxurlik qilishni ifodalovchi tushuncha.	
Pedagogik texnika	O'qitish, tahsir ko'rsatish, tahlim tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalaydi.	
Rivojlanish	Shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

“Blits-o'yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. SHundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh ahzolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga tahsir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonitirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini "guruh bahosi" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. SHundan so'ng "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Sharq allomalarining milliy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlariga doir "Assisment" metodi


Test. 1. "Avesto"da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari qanday tartibda tavsiya etilgan: A) Diniy va axloqiy tarbiya; jismoniy tarbiya; o'qish va yozishga o'rgatish. V) Aqliy va axloqiy tarbiya; jismoniy tarbiya; o'qish va yozishga o'rgatish. S) Diniy va axloqiy tarbiya; estetik tarbiya; o'qish va yozishga o'rgatish. 2. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim- tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan: A) Ta'lim-tarbiya haqida; hunar va turli kasb egalari haqida; turmush va xulq-odob qoidalari haqida; jismoniy yetuklik haqida. V) Kaykovus bilim haqida; hunar va turli kasb egalari haqida; turmush va xulq-odob qoidalari haqida; jismoniy yetuklik haqida. S) Kaykovus bilim haqida; hunar va turli kasb egalari haqida; turmush va xulq-odob qoidalari haqida; aqliy yetuklik haqida.	Muammoli vaziyat. Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) "Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati" asarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to'xtalgan. Koshifiy asarida shogirdlikning 8 ta odobini ko'rsatib o'tadi. Bular qanday odob sanalgan?
Simptom Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida inson kamolotida uch narsa - ..., ..., ... muhim rol o'ynashini ta'kidlab, bunda mudarrislar bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarib, shu uch holatga javobgarlik hissi bilan yondashishini uqtiradi	Amaliy ko'nikma Az Zamaxshariy deydi: "...". Bu dono fikrga yoshidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar rioya qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Milliy tarbiya asoslari bo'yicha muqobilini tanlash testi

Djon Lokk	o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan, uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egalashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi
I.G.Pestalotsyi	o'qituvchining ta'limdagi rolga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahorati-ni oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan
A. Disterverg	o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlari ishlab chiqqan. Ular orasiga mo'tadillik, g'ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan
V.A. Slastyonin	ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, o'qituvchi kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir qonun yoki programma, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi metod yoki tamoyillar o'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rni bosa olmaydi deb hisoblaydi
A.S.Makarenko	aqlli, fikran boy, bag'ri keng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziq tirmaydi, o'zining ortidan ergashtira olmaydi ham..., aql — aql bilan tarbiyalanadi, vijdon — vijdon bilan, vatanga sadoqat-lilik — bevosita vatan uchun xizmat qilish
V.A.Suxomlinskiy	o'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi
K.D.Ushinskiy	Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolaparni tarbiyalasin

Milliy tarbiya g'oyasining tarixiy pedagogik asoslarining tarkibiy qismlari haqida pedagog olimlarning fikrlariga oid toifalash jadvali

3-mavzu:



Milliy tarbiyaning mazmuni va uni takomillashtirish Milliy tarbiyaning mazmunining asosi sifatlarini "Tushunchalar tahlili" metodi yordamida izohlang Mashg'ulotni o'tkazish tartibi

1. Talabalarni guruhlariga ajratish
2. Talabalarni mashg'ulotni o'tkazish qoidallari bilan

tanishtiriladi

3. Guruh a'zolariga tarqatma materiallar tarqatiladi

4. Talabalar tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishtiriladi

5. Talabalar berilgan tushunchalarga o'zlaridagi ma'lumotlardan kelib chiqib fikrlarni yozadilar

6. O'qituvchi tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan har bir tushunchani taxlil qiladi.

7. Talabalar belgilangan javoblarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini farqlaydilar.


8. O'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar va bilimlarini mustaxkamlaydilar.

1-jadval

TUSHUNCHALAR TAHLILI

Mavzuga oid tushunchalar	Mazmuni	Kasbiy faoliyatingizdagi o'rni	Qo'shimcha fikrlar
-----------------------------	---------	--------------------------------------	-----------------------

O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari
O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlariga doir Venn diagrammasini to'ldirish.



O'zbek oilasidagi milliy tarbiya mazmuni

1-topshiriq. "T – SXEMA" METODI

Metodning maqsadi: Mazkur metod biror tushuncha, yoki mavzu bo'yicha o'rganilgan axborotlar tizimini qiyosiy tahlil etish, solishtirish, mustaqil munosabatni shakllantirishga imkoniyat yaratish maqsadida qo'llaniladi. Bunda ta'lim oluvchi shaxsidagi: Mustaqil va ijodiy fikrlash; Axborotlar tizimini tahlil etish; O'z pozitsiyasida qat'iy turish; O'z-o'zini nazorat qilish va baholash; Muloqotchanlik va o'zgalar fikriga hurmat; Jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Metodni amalga oshirish tartibi: 6. O'qituvchi talabalarni miqdor jihatdan teng guruhlariga ajratadi;

7. O'quvchilarni trening o'tkazishga qo'yilgan talablar va bajarilishi zarur bo'lgan topshiriq shartlari bilan tanishtiradi; 8. Tarqatmalar (ilovadagi) talabalar guruhiga beriladi va taklif etilgan sxema asosida qatnashchilar tushunchaga yoki muammoga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi; 9. Bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy yo'nalishga ajratilib, kerakli ustunchalarga yoziladi; 10. Belgilangan vaqt (10-15 daqiqa) yakuniga yetgach, barcha guruhlarining fasilitatorlari yordamida prezentatsiya tashkil etiladi; 11. Barcha guruhlarining yakuniy xulosalari o'qib

eshittirilganidan so'ng, trener-o'qituvchi guruhlar ishini baholaydi va qo'shimcha to'ldirishlarni kiritadi.

Kutiladigan natija: O'quvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, mustahkamlaydi, mavzuning mohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi va shaxsiy munosabati shakllanadi.

Tarbiya – ijtimoiylashtirish omili sifatida	
YUTUQLAR	TO'SIQLAR

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash.
Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etish yo'nalishlarini aniqlashga doir toifalash jadvali

O'qituvchi kasbiga oid faoliyat	O'z kasbiy mahorat elementini hosil qilish	O'quvchilar guruhi bilan ishlay olish

Shaxsiy xususiyatlarning o'qituvchi mehnatiga ta'siriga doir Assisment metodi

Test. Hozirgi zamon ilmiy nazariy va metodologik tizimlariga tayangan holda ta'kidlash joizki, o'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi hamda ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan muhim yo'nalishlaridan biri o'qituvchining... A.Ob'ektiv- shaxsiy xususiyatlari. V.Kasbiy xususiyatlari. S.Shaxsiy va kasbiy xususiyatlari.	O'qituvchining kasbiy mahoratini aniqlashga doir muammoli vaziyat. Sinf o'quvchilaridan biri doim ertalab darsga kechikib keladi. Bunga odatlanib qolish yomon ekanligi qanchalik tushuntirilmasin, u bu odatini tashlamadi.
Simptom O'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi, uning sifat va samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar: O'qituvchining pedagogik texnikasi:	Amaliy ko'nikma O'qituvchi kasbiy mahoratini asosini tashkil etuvchi komponentlar:...

Mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha tavsiyalar.

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari	Mustaqil ta'lim Shakli	Dars soat	Ajratilgan ball
	V - semestr		
Ta'limning milliy yo'nal- tirilganligi	Nazariy manbaalar asosida mustaqil o'zlashtiriladi, esse	6	
O'zbekona tarbiya tam- oyillari	tayyorlash		2

Milliy tarbiya tushunchasi	Mustaqil o'zlashtirish,	6	2
Milliy tarbiya ijtimoiy zaruriyat sifatida	taqdimot tayyorlash		
Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralari	Mustaqil o'zlashtirish,	6	2
O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limotida milliy tarbiyaga oid g'oyalar.	taqdimot tayyorlash. Asboblardan birida ishlashni namoyish qilish.		
Milliy tarbiya vositalari	Mustaqil o'zlashtirish,	6	2
Milliy tarbiyaning falsafiy, metodologik asoslari	esse yozish, manbaalar bilan ishlash.		
Islom dini va o'zbekona tarbiya	Nazariy manbaalar asosida mustaqil	6	3
O'zbekona tarbiyaning mazmuni	o'zlashtiriladi, doklad tayyorlanadi		
Milliy tarbiya va ijtimoiylashuv	Nazariy manbaalar asosida mustaqil	6	3
Oila, mahalla va maktabda milliy tarbiyani amalga oshirish	o'zlashtiriladi, keys topshuruqlarini ishlab chiqadi	6	
Milliy tarbiyani amalga oshirishda maktabning imkoniyatlari	Nazariy manbaalar asosida mustaqil o'zlashtiriladi,	6	3
Milliy tarbiya tamoyillari	infografika tuzish		
Milliy tarbiyani amalga oshirishi faoliyat metodikasi, mexanizmlari va texnologiyasi	Nazariy manbaalar asosida mustaqil o'zlashtiriladi, taqdimot tayyorlaydi	6	3
Oilada milliy tarbiyani amalga oshirish		6	
Jami		60	20
JAMI		60	20

ADABIYOTLAR RO'YXATI

“MILLIY TARBIYA ASOSLARI” kursi bo'yicha o'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati.

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

№	Mualliflar	Adabiyot nomi	Nashr yili	Adabiyotning ARMdagi shifri	Adabiyotning ARMdagi inventar raqami
1.	Mavlonova R., Vohidova N., Rahmankulova N.	Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik).	T.: Fan va texnologiyalar 2010 y.	34	Y-4685
2.	Vohidova N.X., Mirzayeva F.O.	«Ijtimoiy pedagogika» (darslik)	T.: Sano-standard. 2022 y.	1	Y-53045

X. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev SHavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning yangi muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / SH.M. Mirziyoev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Mirziyoev SHavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlai – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'itilgan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr / SH.M. Mirziyoev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.

3. Mirziyoev SHavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan

o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nntqlari o'rin olgan. /SH.M.Mirziyoev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

4. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

1. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 - noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 6108 - son farmoni.

Axborot manbaalari

<http://www.edu.uz>—O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

<http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.

<http://www.gov.uz>— O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.

www.pedagog.uz

<http://www.ziynet.uz/>

"MILLIY TARBIYA ASOSLARI" FANIDAN GLOSSARIY

Русский	Ўзбекский	Английский	Комментарии на русском языке	Комментарии на английском языке
Авторитарный руководитель	Авторитар раҳбар	Authoritative head	Все инструкции конструктивный дух, четкие, ясные, острые навыки	It sends all instructions to its employees in a business sense, clear, sharp tone
Анали	Тахлил	Analysis	- рассмотрение, изучение чего-либо, основанное на расчленении (мысленном, а также частично и реальном) предмета, явления на составные части, определение входящих в целое элементов	-consideration, the studying something based on a partition (mental, and also partially and real) a subject, the phenomenon components, definition entering in whole the elements
Апробация	Tajriba	Approbation	- испытание с целью подтверждение того или иного предположения в ходе исследования; опытная проверка	- test for the purpose of acknowledgement of this or that assumption during research; skilled check
Беседа	Suhbat	Conversation	- 1) вопрос-ответный метод привлечения слушателей к обсуждению, анализу поступков и выработке нравственных оценок; 2) метод получения информации на основе вербальной (словесной) коммуникации; 3) метод обучения	- 1) a question-technical method of attraction of pupils to discussion, the analysis of acts and development of moral estimations; 2) a method of reception of the information on the basis of verbal (verbally communications; 3) a training method

Взаимодействие педагогическое	Birgalikda pedagogik	Interaction pedagogical	- личностный контакт воспитателя и воспитанника, случайный или преднамеренный, частный или публичный, длительный или кратковременный, вербальный или невербальный, имеющий следствием взаимные изменения их поведения, деятельности, отношений, установок, — процесс и результат изменения одним человеком поведения, установок, намерений, представлений, оценок др. человека в ходе взаимодействия с ним	- personal contact of the tutor and the pupil, casual or deliberate, private or public, long or short-term, verbal or nonverbal, mutual change of their behaviour having by a consequence, activity, relations, installations
Влияние (в психол.)	Ta'sir (psixologik jibaidan)	Influence (in psychol)	- совокупность особенностей высшей нервной деятельности, свойств характера, жизненного опыта, нравственного сознания, комплексов, проявляющаяся в типичных для ребенка психических состояниях, реакциях и отношениях к действительности	- process and result of change by one person of behavior, installations, intentions, representations, estimations of other person during interaction with it
Внутренняя среда ребёнка	Bo'laning ichki muhiti	Internal circle of the child	- влияние педагога на сознание, волю, эмоции воспитуемых, на организацию их жизни и деятельности в интересах формирования у них требуемых качеств и обеспечения успешного достижения заданных целей	- set of features of the higher nervous activity, properties of character, life experience, moral consciousness, the complexes, shown in mental conditions typical for the child, reactions and relations to the validity
Воздействие педагогическое	Ta'sir	Influence pedagogical		- influence of the teacher on consciousness, will, emotions of students, on the organization of their life and activity in interests of formation of them demanded qualities and maintenance of successful achievement of the set purposes

Воздействие педагогическое	Pedagogik ta'siri	Influence pedagogical	- влияние педагога на сознание, волю, эмоции воспитуемых, на организацию их жизни и деятельности в интересах формирования у них требуемых качеств и обеспечения успешного достижения заданных целей	- influence of the teacher on consciousness, will, emotions of students, on the organization of their life and activity in interests of formation of them demanded qualities and maintenance of successful achievement of the set purposes
Воображение (фантазия)	Tasavvur (hayoliy)	Imagination (imagination)	- психический процесс, заключающийся в создании новых представлений, мыслей и образов на основе имеющихся знаний и опыта	- the mental process consisting in creation of new representations, thoughts and images on the basis of available knowledge and experience
Воспитание	Tarbiya	Education	это относительно осмысленное и целенаправленное формирование человека в соответствии со специфичной целью, групп и организаций в которых оно осуществляется	- is relatively, intelligent and purposeful cultivation of the person according to specificity of the purposes, groups and the organizations in which it is carried out

Воспитание умственное	Rubiy ta'lim	Education intel- lectual	– формирование интеллектуальной культуры, познавательных мотивов, умственных сил, мышления, мировоззрения и интеллектуальной свободы личности. Воспитание физическое – система совершенствования человека, направленная на физическое развитие, укрепление здоровья, обеспечение высокой работоспособности и выработку потребности в постоянном физическом самосовершенствовании. Воспитание художественное – формирование у воспитанников способности чувствовать, понимать, оценивать, любить искусство, наслаждаться им, развитие потребностей в художественно-творческой деятельности и создании эстетических ценностей. Воспитание экологическое – целенаправленное развитие у подрастающего поколения высокой экологической культуры, включающей в себя знания о природе и гуманное, ответственное отношение к ней как к наивысшей национальной и общечеловеческой ценности.	– формирование интеллектуальной культуры, информативных мотивов, интеллектуальных сил, мышления, мировоззрения и интеллектуальной свободы личности. Воспитание физическое – система совершенствования человека, направленная на физическое развитие, укрепление здоровья, обеспечение высокой работоспособности и выработку потребности в постоянном физическом самосовершенствовании. Воспитание художественное – формирование у воспитанников способности чувствовать, понимать, оценивать, любить искусство, наслаждаться им, развитие потребностей в художественно-творческой деятельности и создании эстетических ценностей. Воспитание экологическое – целенаправленное развитие у подрастающего поколения высокой экологической культуры, включающей в себя знания о природе и гуманное, ответственное отношение к ней как к наивысшей национальной и общечеловеческой ценности.
--------------------------	--------------	-----------------------------	--	---

Воспитательная работа	O'quv ishlari	Educational work	– целенаправленная деятельность по организации жизнедеятельности взрослых и детей, ставящая своей целью создание условий для полноценного развития личности.	– purposeful activity on the organisation of ability to live of adults and children, setting as the purpose creation of conditions for high-grade development of the person.
Всестороннее развитие личности	Shaxslar har tomonlari rivoj- lanishi	All-around de- velopment of the person	– 1) целостное и полноценное развитие всех существующих сил человека, его способностей и дарований; 2) гуманистический идеал воспитания, сложившийся в эпоху Возрождения в русле культурного движения гуманизма.	– 1) complete and high-grade development of all intrinsic forces of the person, its abilities and talents; 2) the humanistic ideal of the education which has developed in Renaissance in the history of cultural movement of humanism.

Готовность ребёнка к школе	Bolaning maktab- ga tayyorgarligi	Readiness of the child for school	- комплексное понятие, в состав которого входят личностная и интеллектуальная готовность, а также достаточный уровень развития зрительно-моторной координации. Личностная готовность – наличие мотивов учебной деятельности (наличие желания не просто пойти в школу, но и учиться, выполнять определенные, связанные с учебной обязанностью), познавательное отношение к внешнему миру, сформированность коммуникативных средств и навыков, желания общаться; достаточный уровень эмоционального и волевого развития психики. Интеллектуальная готовность – достижение достаточного для начала систематического обучения уровня зрелости познавательных процессов (восприятия, памяти, мышления, воображения, речи), владение ребенком знаниями, умениями и навыками в объеме стандартной программы дошкольного учреждения. – форма психической активности личности, направленная на познание и преобразование мира и самого человека.
Деятельность	Faoliyat	Activity	- complex concept into which structure enter personal and intellectual readiness, and also a sufficient level of development of visually-motor coordination. Personal readiness - presence of motives of educational activity (desire presence not simply to go to school but also to study, carry out the certain duties connected with study), the informative relation to an external world, sfor-mirovannost kommunikativny means and skills, desire to communicate, sufficient level of emotional and strong-willed development of mentality. Intellectual readiness - achievement sufficient to start regular training of level of a maturity of informative processes (perception, memory, thinking, imagination, speech), possession of the child of knowledge, skills in volume of the standard program of a kindergarten. - the form of mental activity of the person, directed on knowledge and transformation of the world and the person.

Дидактика	Didaktika	Didactics	is the theory of education which represents a part of a pedagogical science is such collective, purposeful educational activity when each participant and a command as a whole are united the decision of the main task and focuses the behavior on a prize. to live - internal and external activity of the person in concrete conditions.
Дидактическая игра		Didactic game	is such collective, purposeful educational activity when each participant and a command as a whole are united the decision of the main task and focuses the behavior on a prize.
Жизне- деятельность		Ability	to live - internal and external activity of the person in concrete conditions.
Задача педагогическая		Problem pedagogical	is such collective, purposeful educational activity when each participant and a command as a whole are united the decision of the main task and focuses the behavior on a prize.
Знания		Knowledge	is such collective, purposeful educational activity when each participant and a command as a whole are united the decision of the main task and focuses the behavior on a prize.

— один из видов деятельности, значимость которой заключается не в результатах, а в самом процессе. Способствует психологической разрядке, снятию стрессовых ситуаций, гармоничному включению в мир человека отношений. Особенно важна для детей, которые через воспроизведение в игровом процессе действий взрослых и отношений между ними познают окружающую действительность.

Информационные технологии

Information technologies

— методы и средства получения, преобразования, передачи, хранения и использования информации.

Качества личности

Qualities of the person

— совокупность всех социально и биологически обусловленных компонентов личности, предопределяющих ее устойчивое поведение в соц. и природной среде.

Коллектив (от

лат. collectivus — собирательный)

Collective

— группа людей, взаимно влияющих друг на друга и связанных между собой общностью социально обусловленных целей, интересов, потребностей, норм и правил поведения, совместно выполняемой деятельностью, общностью средств деятельности.

— methods and means of reception, transformation, transfer, storage and information use.

— set of all socially and biologically caused components of the person predetermining its steady behaviour in soc. And an environment.

— group of the people mutually influencing against each other and connected among themselves by a generality of socially caused purposes, interests, requirements, norms and rules of the behaviour, in common carried out activity, a generality of means of activity.

Конструирование (в педагогике)

Designing (in pedagogies)

— создание новых дидактических материалов, новых форм и методов организации педагогического процесса.

Критерий

Criterion

— признак, на основании которого произвольится оценка, определение или классификация чего-либо; мера суждения, оценки каково-либо явления. Разработка критериев тех или иных явлений в педагогике представляет определенную трудность в силу того, что сам предмет педагогики сложен и многообразен в своих проявлениях.

— a sign on which basis the estimation is made, definition or classification something; a measure of the judgement, what estimation of the phenomenon. Working out of those criteria or other phenomena in pedagogics represents certain difficulties owing to that the subject of pedagogics is combined and diverse in the displays.

Культура мышления

The culture of thinking

— степень овладения человеком приемами, нормами и правилами умственной деятельности, выражающаяся в умениях точно формулировать задачи (проблемы), выбирать оптимальные методы (пути) их решения, получать обоснованные выводы, правильно пользоваться этими выводами на практике. Повышает целенаправленность, организованность, эффективность любого вида деятельности.

— degree of mastering by the person receptions, norms and the cerebration rules, expressed in ability precisely to formulate problems (problems), to choose optimum methods (ways) of their decision, to receive substantiated conclusions, correctly to use these conclusions in practice. Raises purposefulness, organisation, efficiency of any kind of activity.

Личность	The person	- человек как участник историко-эволюционного процесса. выступающий носителем социальных ролей и обладающий возможностью выбора жизненного пути, в ходе которого он преобразует природу, общество и самого себя.	- the person as the participant of evolutionary process acting as the carrier of social roles and possessing possibility of a choice of a course of life in which course it will transform the nature, a society and itself(himself).
Любовь к детям	Love to children	- 1) положительное эмоциональное отношение к ним; специфическая деятельность по усилению личности начала в каждом ребенке, развитию его способностей к самоопределению и самореализации, самостоятельной выработке системы жизненных ценностей и отношений; 2) одно из важнейших свойств, необходимое для человека, избирающего педагогическую деятельность.	- 1) the positive emotional relation to them; specific activity on strengthening of the personal beginning in each child, to development of its abilities to self-termination and self-realisation, independent development of system of vital values and relations; 2) one of the major properties, necessary for the person selecting pedagogical activity.
Мастерство педагогическое	Skill pedagogical	- высокий уровень овладения педагогической деятельностью; комплекс специальных знаний, умений и навыков, профессионально важных качества личности, позволяющих педагогу эффективно управлять учебно-познавательной деятельностью слушателей и осуществлять целенаправленное педагогическое воздействие и взаимодействие.	- high level of mastering by pedagogical activity; a complex of special knowledge, skills, professionally important qualities of the person allowing to the teacher effectively to operate by учебно-информативной деятельности pupils and to carry out purposeful pedagogical influence and interaction.

Методы воспитания	Upbringing methods	совокупность наиболее общих способов решения воспитательных задач и осуществления воспитательных взаимодействий.	set most the general ways of the decision of educational problems and realization of educational interactions.
Модернизация	Modernization	Процесс педагогического образования и образовательный процесс на основе обновления периода	Modernization of pedagogical process and pedagogical science on the basis of time requirements
Мотивация	Motivation	- динамический процесс физиологического и психологического управления поведением человека, определяющий его направленность, организованность, активность и устойчивость. - познавательная деятельность личности, характеризующаяся обобщенным и опосредованным отражением действительности.	- dynamic process of physiological and psychological management by behaviour of the person, defining its orientation, organisation, activity and stability.
Мышление	Thinking	- познавательная деятельность личности, характеризующаяся обобщенным и опосредованным отражением действительности.	- the informative activity of the person characterised by generalised and mediated reflexion of the validity
Мышление педагогическое	Thinking pedagogical	- определенное видение и понимание учителем ученика, самого себя, окружающего мира, выступающее основанием для выделения и решения задач в педагогическом взаимодействии.	- certain vision and understanding the teacher of the pupil, itself, the world around, acting as the basis for exarticulation and the decision of problems in pedagogical interaction.
Мышление практическое	Thinking practical	- вид мышления, связанный с постановкой целей, выработкой планов, проектов в непосредственной практической деятельности и часто разветвляющийся в условиях дефицита времени.	- the kind of thinking connected with statement of the purposes, development of plans, projects in direct practical activities and often developed in the conditions of deficiency of time.

it is practical activities component shown at performance of necessary actions brought to perfection by repeated exercises.

Theoretical and methodological, practical and pedagogical approaches to radical reforming of the education system in the Republic of Uzbekistan on the basis of up-to-date healthy pedagogical thinking, as well as bringing the cadres trained in the educational institutions to the level of developed countries at the level of intellectual, spiritual and ethical level.

A unified system that forms the core of the National Program of Personnel Training

Integrated learning system consisting of interconnected and interconnected stages, connected by a logical sequence

- это компонент практической деятельности проявляющийся при выполнении необходимых действий доведенных до совершенства путём многократных упражнений.

Система образования Республики Узбекистана на основе обновленного звука педагогического мышления радикальных реформ, учебные заведения и персонал подготовили интеллектуальный, духовный и нравственный уровень развитых стран в соответствии с уровнем теоретико-методологического и практического набором педагогических подходов

«Национальная программа» составляет ядро всей системы

Ссылка на основе логической последовательности и простоты, в зависимости от сложности разработки и требует один шаг целостной системы образования

Skills

Malaka

Навыки

Educational model

Таълимий модел

Национальная модель образования

Обобщение

Generalization

• переход на более высокую ступень абстракции путём выявления общих признаков (свойств, отношений, тенденций развития и т.п.) предметов рассматриваемой области: учёт за собой появление новых научных понятий, законов, теорий. Обеспечивает мышлению слушателей определённую последовательность,

• transition to higher step of abstraction by revealing of the general signs (properties, relations, development tendencies, etc.) subjects of considered area attracts behind itself occurrence of new scientific concepts, laws, theories. Generalization provides to thinking of pupils definiteness and sequence,

- это составная часть и одновременно продукт социализации

is a component and simultaneously a socialisation product

- это совместная, целенаправленная деятельность учителя и слушателей в ходе, которой осуществляется развитие личности, её образование и воспитание

is joint, purposeful activity of the teacher and students where course development of the person, its formation and education is carried out.

education

Таълим

Образование

Training

О'rganish

Обучение

- это организованное, целенаправленное, преднамеренное педагогическое влияние и воздействие на учебный процесс

is organized, purposeful, deliberated pedagogical influence and influence on educational process

Pedagogical technology

Педагогик технология

Педагогическая технология

- это научно составленный опыт преобразования педагогического процесса в точно учитываемых условиях

is scientifically put experience of transformation of pedagogical process in precisely considered conditions

Pedagogical experiment

Педагогик таъриба

Педагогический эксперимент

Познавательная
активность

Informative
activity

- деятельное состояние личности, которое характеризуется стремлением к учению, умственному напряжению и проявлению волевых усилий в процессе овладения знаниями. Физиологической основой познавательной активности является рассогласование между сегодняшней ситуацией и прошлым опытом. Различают три уровня познавательной активности - воспроизводящая, интерпретирующая, творческая.

- an active condition of the person which is characterized by aspiration to the doctrine, to intellectual pressure and display of strong-willed efforts in the course of mastering by knowledge. A physiological basis of informative activity is the mismatch between a today's situation and last experience. Distinguish three levels of informative activity - reproducing, interpreting, creative

224

Принципы
образования

Таълим
принциплари

Education Prin-
ciples

По образованию молодежи в образовательных целях преподавания основных правил, которые определяют характер базы

Guidelines for determining the basic character of education in accordance with educational objectives for young people

Развитие

Ривожлантириш

Development

- это процесс количественных и качественных изменений,

которые происходят в анатомо-физиологическом созревании человека, в совершенствовании его нервной системы и психики, а также его познавательной и творческой деятельности, в обогащении его мировоззрения, нравственности, общественно-политических взглядов и убеждений.

is a process of numerous and qualitative changes which occur in anatomo-physiological maturing of the person, in perfection of its nervous system and mentality, and also it informative and creative activity, in enrichment of its outlook, morals, political sights and belief.

Развитие
личности

Шахс
ривожлантириш

Development of
the person

- процесс закономерного изменения личности в результате ее социализации.

- process of natural change of the person as a result of its socialisation.

225

Система

Тизим

system

Следственная связь между образовательным событием

A regulated, interdependent and influential pedagogical event

Система
образования

Таълим тизими

Educational
system

Различные степени и взаимные связанные программы непрерывного образования и государственные образовательные стандарты, независимо от организационно-правового Тартири все сектора образовательных учреждений, органы управления образования и учреждения и организации в рамках системы контейнера

Integrated continuing education programs of varying degrees and directions, and the system of inclusive education, regardless of organizational and legal status, covering all sectors of educational institutions, education management bodies and their institutions and organizations

Способности

Кобилият

Abilities

are the individually-psychological features of the person who the requirements of given activity and being a condition of its successful performance

Такт
педагогический

Педагогик такт

Step pedagogical

- чувство меры в поведении и действиях учителя, включающее в себя высокую гуманность, уважение достоинства ученика, справедливость, выдержку и самоблагодарие в отношениях с детьми, родителями, коллегами по труду

- feeling of a measure in behaviour and actions of the teacher, including high humanity, respect of advantage of the pupil, justice, endurance and self-control in relations with children, parents, colleagues on work

Технология

Технология

Technology

- совокупность методов, процессов и материалов, используемых в какой-либо отрасли деятельности, а также научное описание способов производства.

- set of methods, processes and the materials used in any field of activity, and also the scientific description of ways of manufacture.

Умение

Малака

Ability

- это готовность сознательно и самостоятельно выполнять практические и теоретические действия на основе усвоенных знаний.

is readiness meaningfully and independently to carry out practical and theoretical actions on the basis of the acquired knowledge.

Mundarija

1-Mavzu: "Milliy tarbiya asoslari" fan sifatida	3
2-Mavzu: Milliy tarbiya g'oyasining tarixiy pedagogik asoslari	10
3-Mavzu: Milliy tarbiyaning mazmuni va uni takomillashtirish	15
4-Mavzu: O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari	28
5-Mavzu: O'zbek oilasidagi milliy tarbiya mazmuni	34
6-Mavzu: Tarbiyaviy faoliyatda pedagogik texnika	41
7-Mavzu: Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash	49
8-Mavzu: Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash	61
9-Mavzu: Ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari	66
10-Mavzu: O'quvchilarning milliy tarbiyalanganliklarini diagnostika qilish	72
11-Mavzu: Maktabgacha ta'limda milliy tarbiya	75
12-Mavzu: Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya	80
13-Mavzu: Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya	106
14-Mavzu: Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiya	132
15-Mavzu: Ekologik tarbiya. Jismoniy tarbiya	144
16-Mavzu: Axloqiy tarbiya. Estetik tarbiya	156
17-Mavzu: Mehnat tarbiyasi. Iqtisod tarbiya	173
18-Mavzu: Fuqarolik tarbiyasi Huquqiy tarbiya	184
19-Mavzu: Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish	190
Ilovalar	193
ADABIYOTLAR RO'YXATI	209
Glossariy	211

RAXMANOVA MUQADDAS QAXRAMONOVNA

MILLIY TARBIYA ASOSLARI

O'QUV-QO'LLANMA

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 1961. 04.07.2022 y.
Bosishga ruxsat etildi 29.05.2024 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Times New Roman"
garniturasini. Hisob-nashr tabog'i. 14,25.
Adadi 200 dona. Buyurtma № 43.

«BOOK TRADE 2022» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Chirchiq sh., Saodat ko'chasi 17-uy.

ISBN 978-9910-9616-6-3



9 789910 961663